



FARG'ONA DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
MINTAQAVIY MARKAZI



“ETIKA VA ESTETIKANING NAZARIY ASOSLARI” MODULI BO‘YICHA

O‘QUV –USLUBIY MAJMUUA

**F.Yuldashev - FarDU Falsafa
kafedrasi dotsenti, PhD**



023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi FarDU Ilmiy kengashining 2022 yil «26» dekabrdagi 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan

Tuzuvchi: F.Yuldashev - FarDU Falsafa kafedراسи dotsenti, PhD

Taqrizchi: A.A.Qambarov - FarDU Falsafa kafedراسи dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	15
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	19
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	74
V.	GLOSSARIY	162
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	168

I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

O‘zbekistonda yangi erkin jamiyatni rivojlantirish, liberal-demokratik islohotlari jarayonida mamlakatimizdagi 130 dan ortiq millatlar va 16 ta diniy konfessiyalar o‘rtasida millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, hamda ahil qo‘shnichilik asoslarining mustahkamlashning nazariy va amaliy jihatlarini, zamonaviy konsepsiyalarini, tajribalarini ishlab chiqish, xorijiy tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan dinshunoslik fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu talablardan kelib chiqqan holda “Etika va estetikaning nazariy asoslari” moduli aynan Oliy ta’lim tizimida “Falsafa” fanlaridan dars beradigan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga

mo'ljallangan.

Modulning maqsadi va vazifalari:

Maqsadi

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi mutaxassislik fanlari blokidagi asosiy modullardan biri bo'lib, unda etika va estetika to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar, o'qitishning yangi usul va vositalari, istiqboldagi vazifalarni, falsafa fanini o'qitish sohasidagi tajribalarni umumlashtirish, mavjud muammolar, ularning echimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilgan.

Vazifalari:

- Zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik;
- etika va estetika fanlarining umumnazariy masalalari to'g'risida tushunchalar berish;
- oliy ta'lim muassalari pedagog kadrlarini “Falsafa” sohasidagi yangi adabiyotlar, yondoshuvlar va yangiliklar bilan tanishtirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

Tinglovchi:

- etika va estetika fanlarining umumnazariy masalalari, global muammolari, ta'lim, tarbiya va ma'naviy taraqqiyotdagi o'rnini;
- etika va estetika fanining asosiy tushunchalari, meyorlari va tamoyillarini;
- pedagogik faoliyati sohasida etika va estetikaning tamoyillari va qonuniyatlarini;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi in'ikosi, voqelikka axloqiy va estetik munosabatda bo'lishning zamonaviy ko'rinishlarini bilishi zarur;

Tinglovchi:

- milliy va umuminsoniy axloqiy-estetik madaniyatning an'anaviy va zamonaviy asoslarini farqlash;
- pedagogik faoliyat sohasida etika va estetikaning amaliy ahamiyatiga doir ishlanmalarni tayyorlash;
- jamiyat ma'naviy hayoti hamda insonlararo munosabatlarni zamonaviy muammolar bilan bog'liq holda o'rganish, ularni tahlil qilishga ilmiy yondashish ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

Tinglovchi:

- falsafiy bilimlarni o'rganish orqali diskursiv (asoslangan) fikr yuritish;
- mantiqning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- globallashtirish jrayonidagi muammolarni aniqlash va tahlil qilish;
- fanning ilmiy, nazariy, tarixiy va pragmatik ahamiyatini hayotiy voqelik va ilmiy asosda tushuntirib berish;
- falsafiy manbalardan zarur va muhim bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olish, ularni izchil tizimga keltirib, talqin qilish malakalariga ega bo'lishi kerak:

Tinglovchi:

- etika va estetika fanlarida innovatsion o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, amalga oshirish, baholash, takomillashtirish;
- etika va estetika fanlarining insonning jamiyatda tutgan o'rnini bugungi kun bilan taqqoslash;
- etika va estetikaning dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” moduli o'quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'рни

“Etika va estetikaning nazariy asoslari” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg‘or tajriba va yangiliklarni o‘rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi jumladan				Mustaqil ta’lim
			Jami			Ko‘chma mashg‘ulot	
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot		
1.	“Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.	4	4	2	2		
2.	XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera.	4	4	2	2		
3.	Axloq psixologiyasi.	6	6	2	4		
4.	Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.	6	6	2	4		
	Jami	20	20	8	12		

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Reja:

Etika va estetikani o‘rganish zarurati.

Etika va estetika fanlarini o‘rganishning metodologik asoslari.

2. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.

2-mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera.

Reja:

1. Hozirgi zamonda etika va estetikaning dolzarb muammolari.

2. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlari

3. Inson shaxsidagi illatlarning jamiyat rivojiga ta’siri.

3-Mavzu: Axloq psixologiyasi.

Reja:

1. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayri zo‘ravonlik.

2. Gender muammolari.

3. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyliigi va ratsionalligi.

4-mavzu: Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.

Reja:

1. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.

2. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

3. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Etika” va “Estetika” fanini o‘qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Etika va estetikani o‘rganish zarurati. Etika va estetika fanlarini o‘rganishning metodologik asoslari. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari. Etika va estetikaning qamrovli hissiy-intelektual hodisa sifatida shaxs va jamiyat hayotini ma’naviy boyitishdagi vazifalari.

2-mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy, ekologik axloq, etosfera.

Hozirgi zamonda etika va estetikaning dolzarb muammolari. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo‘lish oqibatlarini uning jamiyat rivojiga ta’siri. Estetika qonuniyatlarining umumbashariylik jihatlari; estetik qadriyatlar ustuvorligining mamlakatlararo va millatlararo tinch-totuvlikni, birdamlikni ta’minlovchi omil ekani; «Dunyoni go‘zallik qutqaradi» shiorining va global ahamiyatga egaligi; “Go‘zal muhitda yashash oliy ne‘mat” ekanligining dolzarbligi.

3-Mavzu: Axloq psixologiyasi.

Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayrizo‘ravonlik. Axloqiy meyorlar va ularning axloqiy tamoyillar bilan ichki bog‘liqligi; axloqiy meyorlarning axloqiy talab shakllari sifatida namoyon bo‘lishi; ularning juftlik xususiyatlari; birini biridan farqi va bir biriga «o‘tib turishi».

4-mavzu: Axloq psixologiyasida gender muammosi.

Аёл ва эркекларнинг оддий хулқ-атвори ва мотивациясининг ахлоқийлиги ва рационаллиги. Никоҳ ва унинг моҳиятан ахлоқий муносабат экани. Оила маънавий-ижтимоий муҳит сифатида; оилада эркек ва аёлнинг ўрни.

5-Мавзу: Давлат хизматчилари этикаси ва имижи.

Касбий одобнинг ахлоқий маданият билан уйғунлиги; касбий эркинлик ва касбий бурчинг ахлоқий моҳияти. Этикет замонавий ахлоқнинг назарий ва амалий асоси. Этикетнинг миллий ва маданий хусусиятлари.

6-мавзу: Эстетик англаш тушунчаси.

Estetik anglash va uning gnoseologik ildizlari; estetik anglashning individuallik xususiyati; estetik bilish va estetik qadriyatlar; haqiqat, ezgulik va go‘zallik - oliy qadriyatlar sifatida; go‘zallik va haqiqat, go‘zallik va ezgulik; estetik ongning gnoseologik ildizlari hamda uning umumbashariylik va milliylik jihatlari.

Estetik anglashning asosiy unsurlari: estetik ehtiyoj; estetik munosabat; estetik tuyg‘u; estetik did; estetik baho; estetik ideal; estetik qarashlar; estetik nazariyalar. Shaxs estetik ehtiyojini tarbiyalash muammolari

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси –Т.: “Ўзбекистон”, 2021. 464 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ – 637- sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
3. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
5. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.- 318 6

7. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й. и др. Современный образовательный технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство СРНС, 2015. – 318 с. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
8. V. Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
9. Белогуров А.Й. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.
10. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. J.Rumiy. Ichindagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
13. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
14. Игнатова Н. Й. Образований в сифровую эпоху: монография.М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017.–128 с.
15. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
16. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
17. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
18. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018 y.
19. M. Kaxharova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
20. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

21. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
22. Oliy ta‘lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
23. Otamurodav S. Globalashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
24. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
25. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
26. Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
27. Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6
28. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.
29. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
30. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.
31. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. –T.: Sharq, 2005.
32. Nurmatova M., Muhammadjonova L. Ma’naviyatning axloqiy asoslari. // O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Unversitet, 2013.

IV. Internet saytlar

<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

<http://bimm.uz> – Oliy ta‘lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

<http://ziyonet.uz> – Ta‘lim portali Ziyonet

<https://philpapers.org/> - mejdunarodnaya filosofskaya poiskovaya sistema po knigam, statyam, jurnalam, naxodyashimsya v otkritom dostupe

<https://plato.stanford.edu/> - Stenfordskaya ensiklopediya filosofii.

<https://elibrary.ru/> - krupneyshiy rossiyskiy informatsionno-analiticheskiy portal (v tom chisle) v oblasti filosofii

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim (BBB)” metodi

Metodning maqsadi: talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi

Metodni amalga oshirish tartibi:

O‘qituvchi doskani uch qismga ajratadi.

1-qismga “Bilaman”, 2-qismga “Bilmayman”, 3-qismga “Bilib oldim” deb yozadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga murojaat qilib, “Etika va estetika kategoriyalari haqida kim nimalar biladi?” deb so‘raydi.

Talabalarning fikrlarini “Bilaman” ustuniga yozadi.

Talabalar o‘z fikrini aytib bo‘lgandan so‘ng o‘quvchilarga etika kategoriyalari haqida yana nimalarni bilishni xohlashlarini so‘raydi.

O‘quvchilarning savollarini doskaning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadi.

Talabalarning savollari tugaganidan keyin o‘qituvchi etika kategoriyalari haqida ma’lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni talabalarga tarqatadi.

Talabalar matn bilan tanishadilar va yangi ma’lumotlarni bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar.

O‘qituvchi talabalardan etika kategoriyalari haqida yana qanday yangi ma’lumotlarga ega bo‘lganliklarini so‘raydi va “Bilib oldim” ustuniga yozadi.

O‘qituvchi uchchala ustunni umumlashtiradi va talabalar bilan birgalikda xulosa qiladi.

Namuna: Go‘zallik tushunchasining falsafiy mohiyatini tushuntirib bering?

Bilaman	Bilmayman	Bilib oldim

Blum taksonomiyasiga asoslangan holda Kognitiv (bilishga oid) sohadagi “Tahlil” o‘quv maqsadini amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan metod

Metodning maqsadi: talabalarda o‘qilgan materialni eslab qolish, mazmuniga qarab turkumlash, tushunchalarni tizimga solish ko‘nikmasini paydo qiladi. Shuningdek, talaba fanda qo‘llaniladigan tushunchalar, tamoyillar, meyorlar va o‘ziga xos sifatlarini turkumlashni biladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

Dars o‘qituvchining kirish so‘zi bilan boshlanadi.

O‘qituvchi Kirish so‘zidarsning mavzusi, maqsadi va o‘tkazish tartibi bilan talabalarni tanishtiradi.

Talabalar 5 ta guruhga bo‘linadilar.

Guruhlarga 2 tadan savol yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

Talabalar qog‘ozdagi savollarga o‘z javoblarini beradilar.

Boshqa guruh a‘zolari qo‘shimcha fikr yordamida javobni to‘ldirishlari mumkin.

Barcha savollarga javoblar berib bo‘lingach o‘qituvchi mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi.

Guruhlarga qo‘ygan baxolarini e‘lon qiladi.

O‘quv mashg‘ulotini natijalarini sharhlaydi.

Namuna:

1-guruxga beriladigan 1-savol: Etika (yoki estetika) fanining amaliy ahamiyatini sharxlab bering? 2-savol: Etika (yoki estetika) fanining global muammolari haqida fikr bildiring?

2-guruxga beriladigan 1-savol: Etika (yoki estetika) fanining asosiy mezoniy tushunchalarini hayotiy misollar yordamida asoslang? 2-savol. Etika (yoki estetika) fanining shaxs kamolotidagi o‘rnini tushuntiring?

Namuna: Topshiriq №1. Quyidagi tushunchalarni jadvaldagi yo‘nalishga mos tarzda ajrating? G‘ayriinsoniylik Vatanparvarlik Nafrat Vatanfuruslik Muhabbat Adolatsiz Erkparvarlik Ezgulik Millatparvarlik Loqaydlik Adolat

Yovuzlik Shafqat Burch Shafqatsiz Loqayd Insonparvarlik Qullik Millatchilik
Fidoyilik

Etikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari)	Etikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) ziddi	Etikaning tamoyillari	Etika tamoyillarining ziddi

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg’ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test

... nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo'lgan, o'quv-metodik ta'minotdan, nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat ta'lim dasturning bo'lagidir. Nima haqida gap ketmoqda?

- A. kredit
- B. o'quv moduli
- C. o'quv kursi



Qiyosiy tahlil

Matematik analiz darsida funksiyaning limiti haqida ma'lumot berilmoqda. Ushbu mavzu boshqa yetakchi xorijiy OTMLlarda qanday o'tiladi?



Tushuncha tahlili

- O'quv moduli bu...



Amaliy ko'nikma

«Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish usullari» mavzusi bo'yicha ma'ruza darsning texnologik xaritasini tuzing

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: ETIKA VA ESTETIKA FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA USLUBLARI

REJA:

- 1.1. Etika va estetikani o‘rganish zarurati.
- 1.2. Etika va estetika fanlarini o‘rganishning metodologik asoslari.
- 1.3. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo‘llari.

Tayanch iboralar:Axloq, nafosat, go‘zallik, axloq falsafasi, nafosat falsafasi, falsafiy tafakkur, xulq, odob, axloqiy ong, estetik did, axloqiy qadriyat, estetik qadriyat, estetik baho, axloqiy meyor, axloqiy boshqaruv, estetik munosabat, estetik ehtiyoj, estetik hissiyot, estetik mushohada, estetik ideal.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida axloq va nafosat masalalari muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buning sababi har fanday falsafiy ta’limotning asosini tashkil etuvchi insonning tabiat, jamiyat bilan axloqiy va estetik munosabatlarning falsafiy ichimini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi bilan belgilanadi. Zero, falsafiy tafakkurni insondan ayri xolda tasavvur etib bo‘lmaganidek, axloq va nafosat rivojini inson omilisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ilmiy muomalada azaldan qo‘llanib kelinayotgan Etika (Axloqshunoslik) va Estetika (Nafosatshunoslik) davrlar o‘tishi bilan alohida fan sifatida shakllandi. Bu fanlar inson va uning ijtimoiy faoliyati, jamiyatdagi o‘rni, voqelikka munosabatini

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng axloq va nafosat ilmiga e‘tibor kuchaydi, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rniga, ma‘naviy tarbiya axloqiy va estetik ta‘limning zaruriyati alohida ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash, ma‘naviy-axloqiy tarbiya va ma‘rifiy ishlar masalalari “Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari” sifatida ko‘rsatib o‘tilganligi bejiz emas. Zero, “ta‘lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma‘naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish» dolzarb muammolar

Axloq falsafasi bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy fan. U keyinchalik esa odat, fe‘l, fikrlash tarzi singari ma‘nolarni anglatgan; yunoncha «ethos» so‘zidan olingan.

Uni birinchi bo‘lib yunon faylasufi Arastu ilmiy muomalaga kiritgan. Arastu Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa san‘at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. ko‘targanlar va «Etika» (taethika) deb ataganlar. Biroq, bizda milliy-mintaqaviy axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g‘oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o‘nlab asrlar avval ro‘y bergan. Ajdodlarimizning eng ko‘hna e‘tiqodiy-axloqiy kitobi - «Avesto» buning yorqin

Etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o‘rganadi. «Axloq» so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe‘lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so‘zining ko‘plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma‘noga ega: umumiy

tushuncha sifatida u fanning tadqiqot obyektini anglatadi, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak,

haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy

Axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Estetika eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714—1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug' olmon faylasufi G. Leybnits (1646-1716) ta'limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi.

Leybnits inson ma'naviy olamini uch sohaga: aql – idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg'uga bo'ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Baumgartengacha aql – idrokni o'rganadigan fan – mantiq, iroda – ixtiyorni o'rganuvchi fan esa – axloqshunoslik (etika)ning falsafada ko'pdan buyon o'z o'rnini bor edi. Biroq his-tuyg'uni o'rganadigan fan falsafiy maqomda o'z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma'nolarni anglatuvchi yunoncha

aisthetikos – «oyestetikos» soʻzidan «estetika» (olmoncha «yestetik» – «eshtetik») iborasini olib, ana shu boʻshliqni toʻldirdi.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, koʻp oʻtmay, u goh «goʻzallik falsafasi», goh «sanʼat falsafasi» sifatida esa oʻz maʼruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyatsiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qoʻllashga urinishlar boʻldi...

i anglatadigan «sanʼat falsafasi» va «goʻzallik falsafasi» iboralariga toʻxtalamiz. Estetika tarixida birinchi ibora tarafdorlari koʻpchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib oʻtganimizdek, sanʼat bu fanning yagona tadqiqot obyekti emas. muhitni goʻzallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fan shugʻullanadi. Demak, uning qamrovini sanʼatning oʻzi bilangina chegaralab qoʻyishga haqqimiz yoʻq. Zero bugungi kunda inson oʻzini oʻrab turgan barcha narsa-hodisalarning goʻzal boʻlishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabogʻlar – hammasidan

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqsak, «Goʻzallik falsafasi» degan ibora bu fanning mohiyatiga koʻproq mos keladi. Negaki, u faqat sanʼatdagi goʻzallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi goʻzallikni ham oʻrganadi. Shuningdek, goʻzallikdan boshqa ulugʻvorlik, fojeaviylik, kulgililik, moʻjizaviylik, xayoliylik, uygʻunlik, noziklik singari koʻpdan-koʻp tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida. Lekin, bu oʻrinda, shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida goʻzallik, bir tomondan, unsur sifatida ishtirok etsa, ikkinchi tomondan, ularning oʻzi goʻzallikka nisbatan unsur vazifasini oʻtaydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon boʻlishini biz

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida etikaning o'z o'rnini bor. Har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan

Yangicha yondashuvlardan biri - etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. Chunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq mafkuraviylikni va mafkura axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisalarga aylanmog'i kerak. Chunki mafkura bir yoqlama, mahdud, o'ta siyosiyashtirilgan g'oyalar tizimi emas, u ham xuddi axloq kabi, axloq bilan yonma-yon turib, insonni yuksak ma'naviy parvozlarga da'vat etuvchi botiniy kuchdir. Zero, milliy g'oya bilan umumbashariy qadriyatlar axloqni to'ldiruvchi va boyituvchi hodisa sifatida o'zining bosh maqsadini axloqiy

Etika oldida qator global muammolarni ham qilishdek o'ta muhim vazifalar i, ballistik raketalar, eng yangi texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bombardimon harbiy o'choqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusmdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni yo'q qilishga qaratilgan. manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir yo'l bilan-

Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis

did egalari bo'lishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga

Estetikaning, ayniqsa, badiiy asar ijodkorlari uchun amaliy ahamiyati katta. Chunonchi, biror bir san'at turida ijod qilayotgan san'atkor birinchi galda, ma'lum ma'noda, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak. Deylik, bastakor notani bilmasdan, musiqali asar yaratish qonun-qoidalarini, shu jumladan, musiqaga ham taalluqli bo'lgan estetikaning umumiy qonuniyatlaridan bexabar holda tuzukroq asar yaratishi dargumon. Ba'zilar, daho san'atkorlar qonun-qoidalarsiz ham ijod qilaveradilar, degan noto'g'ri tasavvurga ega. Vaholanki, daholarning o'zlari ko'p hollarda estetik nazariya bilan shug'ullanganlar. Bu borada Navoiy, Jomiy

Bugungi estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Zotan, biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim. Qolaversa, hozirgi mashinasozlikni, aviasozlikni, umuman, sanoatni zamonaviy dizaynsiz tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bunda bevosita texnika estetikasining ahamiyati katta. Bulardan tashqari, ayniqsa, yoshlarning estetik tarbiyasiga alohida e'tibor berish – zamonning dolzarb talabi bo'lib qarmoqda. Shu bois uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillaridan biri: «Ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish», deb aniq belgilab qo'yilgani bejiz emas.

Axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo'lgan omillar, unsurlar to'g'risida to'xtalmaslik mumkin emas. Axloq axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlar. Ba'zi mutaxassislar etikaga oid

to'g'ri emas. Chunki mazkur tushunchalar, tamoyillar va meyorlar ko'proq axloqqa emas, balki uni o'rganadigan fanga - etikaga taalluqlidir. Bizning axloqiy asosida ro'yobga chiqadi. Axloqiy kodekslarimiz, meyorlarimiz va tamoyillarimiz

Axloqning o'ziga xos xususiyatlari deganda biz uning qat'iy amrlik, meyoriylik va baholash jihatlarini tushunamiz. Qat'iy amr o'zini tutishdagi manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan muvofiqlashtiradi va jamiyat manfaatlari ustuvorligini ta'minlaydi, ayni paytda shaxs erkinligini cheklamaydi, faqat o'zboshimchalikka yo'l qo'ymaydi. Unga ko'ra, biror inson ikkinchi insonga vosita deb qaramasligi lozim. Qat'iy amr tug'ma axloqiy hodisa, uning talabi so'zsiz va ixtiyoriy tarzda bajarilishi kerak; u ixtiyor erkinligi bilan zaruriyatning

- axloqning meyoriylik jihati bilan bog'liq. Meyorlar, qonun-qoidalar, pand-o'gitlar vositasida axloq boshqarish vazifasini bajaradi. Ular orqali kishilar faoliyati yo'lga yo'nalmaga, shaxs ma'naviy dunyosining bir qismiga aylanadi, odamzot avlodlarining axloqiy aloqalari davom ettiriladi. Axloqiy meyorlarning ikki turi mavjud: xatta-harakatning yo'l qo'yib bo'lmaydigan shakllarini anglatuvchi taqiqlar (odam o'ldirma, yolg'on gapirma, o'g'irlik qilma v.h.) va o'zni tutishning eng yaxshi ko'rinishlariga da'vat (halol bo'l, rostgo'y bo'l, ezgu ishlar qil v.h).

Axloqning o'ziga xos uchinchi xususiyati esa insonning o'z xatti-harakatlariga munosabatini ichiga oladigan ichki baholashdan va inson xatti-harakatlarining boshqa kishilar hamda jamiyat tomonidan umum qabul qilingan axloqiy meyorlar asosida baholaydigan tashqi baholashdan tashkil topadi. Shunga ko'ra, baholash ko'rinishlari ham ikki xil bo'ladi. Birinchisi – ijobiy: ma'qullash, rozilik, ikkinchisi - salbiy: tanbeh va norozilik. Bu xususiyatlar faqat axloqqa xos. Shu bilan birga uning yana boshqa ikki xususiyati borki, ular nafaqat axloqqa,

balki ma'naviyatning barcha sohalari uchun umumiylik tabiatiga ega. Ularga alohida to'xtalib o'tamiz.

Axloq eng avvalo, umuminsoniy an'anaviy hodisadir. Asosiy axloqiy ezigulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma'noda umuminsoniy hodisalardir. Zero, o'zbekcha ezigulik yoki yovuzlik, inglizcha vijdon, fransuzcha insonparvarlik, arabcha yolg'on, deyish mumkinmi? Albatta, yo'q.

m muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviylik va milliylik xususiyatlari axloqning nisbatan kichikroq qamrovga ega bo'lgan ko'rinishlarida - xulqiy xatti-harakatlar, odob va etiketda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, musulmon mintaqasida tashqari gigiyenik-ozodalik nuqtai nazaridan ham ahamiyati bor: ovqatlanish paytida ro'molsiz ayol yoki do'ppisiz erkak boshidan soch tolasi, qazg'oq, chang-dasturxonga hurmatsizlik sanaladi. Yoki amerikalik yigit o'zi kresloda o'tirib, oladi va uning uchun bu tabiiy hol hisoblanadi. O'zbek uchun esa stolga yoki xontaxtaga oyoq qo'yib o'tirish - o'ta odobsizlik.

G'arbu Sharq mintaqalari odobida yana bir katta farq borki, bu hozirgi paytda G'arbda huquqning axloqdan, Sharqda axloqning huquqdan ustuvorligi masalasi. G'arb yoshlari balog'atga etgach, ota-onaga teng huquqli fuqarolar sifatida munosabat qiladi, o'zining qarshi fikrini to'ppa-to'g'ri, ota yo onasining foydalanish deb biladi. Sharq yoshlari, masalan, yapon yoki o'zbek ota-onaga tik gapirishni, to'g'ridan-to'g'ri qarshi chiqishni an'anaviy axloqiy qoidalarning oyoqosti qilinishi deb tushunadi, padari yo volidasiga ko'zini erga tikib, muloyim,

o'z fikrini tovush ko'tarmay aytishni, ba'zan esa sukut saqlashni afzal deb biladi, ularga bo'ysunishni burch sifatida olib qaraydi. Afsuski, ba'zi G'arb mamlakatlarida keksa avlodni yoshlar huquqiy hayotiga, erkinligiga g'ov deb guruhlarining ko'chada ketayotgan qariyalarni tutib do'pposlashlari oqibatida yuzaga kelgan o'nlab sud jarayonlari guvohlik beradi.

To'g'ri, sharqona etiket, odobiy qonun-qoidalarining an'anaviylik bilan bog'liq, zamonaviy nuqtai nazardan ba'zi nuqsli tomonlari bor. Lekin, shunga qaramay, ularda insoniylik va mehr-oqibat tuyg'ulari mustahkam ildizga ega. G'arbda esa hozirgi paytda bunday fazilatlarni uchratish tobora g'ayritabiiy holatga o'xshab qolayotir. Shu bois endilikda G'arbning huquqiylik tamoyilini Sharqning axloqiylik tamoyili bilan uyg'unlashtirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

na qilib aytganda, beshikdan to qabrgacha asqotadi. Tarbiya go'dakdagi axloqiy mohiyatini yuzaga chiqarishi uchun, unda axloqiy yo'nalmalarning, xulq va odatlarning shakllanishiga xizmat qiladi, axloqiy ta'qiqlarining mohiyatini bola rivojlantiradi, ularni ongli axloqiy tanlov bilan ish ko'rishga o'rgatadi. Axloqning tarbiyaviy vazifasini amalga oshirishda turli xil vositalar va omillar ishtirok etadi. Jumladan pand-o'git, adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalari.

Insonni qadriyatlarga yo'naltirish ham axloqning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Chunki axloqiy qadriyatlar shaxsning kamol topishida katta rol o'ynaydi, insonga ezgulikka qarab borish va yovuzlikdan qochish yo'lini ko'rsatadi. Mazkur vazifa qadriyatlarga asoslangan xolda odamlar axloqiy xatti-harakatlarini baholash imkonini ham beradi; ularning umum qabul qilingan tamoyillar va meyorlarga mos yoki mos emasligini belgilashda obyektivlikni ta'minlaydi. Shuningdek, u eng yaxshi an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar hamda umumbashariy va milliy fazilatlar uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Axloqning kommunikativ vazifasini ham borki, u inson munosabatlarini go'zal taomilga aylantirishda muomala odobi, etiket singari meyoriy qonun –

qoidalar majnuni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi, mohiyatan u muomalani imkon boricha insoniy, go'zal munosabat, yoqimli aloqa sifatida ro'y berishiga ko'maklashadi, kishida yuksak muomala madaniyatining shakllanishiga,

Etikaning yana bir vazifasi esa - bilish. U insonga axloqiy bilim beradi. Shu bilim vositasida odam o'z xatti-harakatini boshqaradi, hissiyotlarning qaysi biriga kundalik hayotda duch - keladigan axloqiy muammolarni hal etishda kishiga ko'maklashadi. bir so'z bilan aytganda, axloqning bu vazifasi insonning o'z ichki

bir alohida olingan shaxs va butun jamiyatni to'g'ri yo'lga solish uchun xizmat qildi. U odamlardagi nafsni jilovlash, salbiy oqibatlariga olib keladigan xatti - harakatlarning oldini olish, individning o'z-o'zini boshqarishi, ijtimoiy tatbiq etish kabi masalalarni hal etishga qaratilgani bilan muhimdir. Bunda odamlarning o'zni tutishlari va o'zaro munosabatlarini jamiyat fikri hamda shaxsning axloqiy o'z-o'zini baholashi asosida, ma'qullash yoki tanbeh berish

Axloqning insoniylashtirish vazifasi ham muhim. U odamzotni hayvoniy xislatlardan - zulm, zo'ravonlik, zug'um, adolatsizlik, insofsizlik kabi qator illatlardan forig' bo'lishi, yuksak insoniy fazilatlar bilan yo'g'rilib yashashi, doimo komillikka intilishiga ko'maklashish bilan belgilanadi. Ayni paytda mazkur vazifa axloqiy qonun-qoidalar hamma uchun majburiyligini ular oldida, ijtimoiy hayotda egallagan o'rnidan qat'i nazar, barcha odamlarning teng ekanini ta'minlashga, jamiyatda obro'parvarlik (avtoritarizm) axloqini inkor etishga va insonparvarlik axloqini barqaror qilishga yo'naltirilgan.

etilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro'y beradi. Uni odatda, ikki xil deb ta'riflash qabul qilingan: birinchisi – insonning salomatligi va turmush tarzini

utilitar-empirik manfaatdorlik, ikkinchisi – botiniy-ruhiy manfaatdorlikni, maqsadga muvofiqlikni ta'minlaydigan hissiy-ma'naviy munosabatlar. Mana shu nafaqat birinchi xil munosabat turlaridan yuksak darajaligi bilan farqlanadi, balki o'ziga xildosh bo'lgan axloqiy yoki e'tiqodiy munosabatga nisbatan ham miqyosli

tdan boshqa barcha munosabat turlari inson «aqlini taniganidan» so'ng, ya'ni go'daklik davridan o'tgandan keyin voqe bo'ladi. Masalan, go'dak hali uyat hissini yotar ekan, tushib turgan ola-chalpoq quyosh nuridan quvonadi, uni kuzatadi, u bilan o'ynagisi keladi yoki beshikka osig'liq rangli o'yinchoqdan zavqlanadi, g'adir-budir, shaklan qo'pol materialni emas, mayin duxobani yoki shunga o'xshash yumshoq, silliq narsalarni xush ko'radi, ularni siypalab zavqlanadi, alla eshitib orom oladi. Bularning bari estetik munosabatning insoniy mohiyatda namoyon bo'luvchi hodisa sifatida ibtidodan mavjud ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, keksayib, umrining qolganini ko'proq to'shakda o'tkazayotgan kishi jisman zaifligi tufayli tashqi muhit bilan utilitar-empirik munosabatini davom ettira olmasligi mumkin. Lekin, u badiiy adabiyot o'qib, televizor ko'rib, musiqa eshitib zavqlanadi, ya'ni tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'la biladi: inson moddiy boylik yaratishdan mahrum bilgan paytda ham estetik munosabat tufayli, to o'lguncha o'z ma'naviyatini boyitish imkonini yo'qotmaydi. Estetik

shmasa, uning munosabati, obyekt qanchalik go'zal yoki ulug'vor bilmasin, estetik shakl kasb etmaydi. Estetik jarayon esa subyektning botiniy his-tuyg'ulariga, tug'ma hamda ta'lim-tarbiya va tajriba vositasida vujudga kelgan qarashlarga

bog'liq. Estetik munosabat ana shu estetik jarayonning pirovard natijasidir. Masalan, O'rol Tansiqboyevning «Tog'dagi qishloq» asarini sotayotgan do'kon xizmatchisida bu rasmga nisbatan estetik munosabat tug'ilmaydi, sotuvchi unga faqat tovar sifatida qaraydi, maqsadi uni iloji boricha kattaroq pulga sotish. YA'ni sotuvchi estetik jarayonni boshidan kechirmaydi, o'z vaqti, kuzatishi, diqqat-e'tiborini asosan, oldi-sotdi jarayoniga yo'naltiradi. Uning munosabati iqtisodiy-moliyaviy chegaradan nariga o'tmaydi. Rasmni sotib olgan xaridor esa unda Vatanning bir parchasini, tog' qishlog'ining o'ziga xos go'zalligini ko'radi, undagi ko'zga ko'rinmaydigan, lekin botiniy bir tuyg'u bilan ilg'ab olinadigan ruhni, olislarda qolib ketgan bolalik deb atalgan umrning bir bo'lagini qalban his qiladi, xo'rsiniq aralash quvonch hissini tuyadi. Chunki uning butun botiniy-ruhiy intellektual tajribasi rasmdagi go'zallikning nimasi bilandir tanish va ayni paytda notanish ko'rinishini ilg'ab olishga qaratilgan; har gal u shu rasmga tikilganida ana har galgi munosabati estetik munosabatdir. Shunday qilib, sotuvchi qo'liga tushgan mablag'dan qoniqish hosil qilsa, rasm ixlosmandi tasvirlangan manzara go'zalligidan, qalbida uyg'ongan hissiyotdan, olislarga «borib kelgan» xayolotidan, hatto tasavvuridagi, shu tasavvur «turtkisi» tufayli paydo bo'lgan xayoliy manzaradan zavqlanadi. Yoki Ko'kaldosh madrasasi yonidan ishga kechikishdan havotirlanib shoshilinch o'tib borayotgan xizmatchini olaylik. U mahobatli estetik obyektning ulug'vorligini his etmaydi, bu yodgorlikka nisbatan unda estetik munosabat yuzaga kelmaydi, chunki vaqt va kundalik tashvishlar iskanjasida yuqoridagi sotuvchiga o'xshab estetik jarayonni boshidan kechirishga

Biroq, aytilganlaridan estetik munosabat faqat subyektga bog'liq, hamma narsani subyekt hal qilar ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak. To'g'ri, estetik munosabat individual hodisa, unda ko'p narsa subyektga bog'liq lekin hammasi emas, chunki obyekt go'zalligi, ulug'vorligi, ranginligi va hokazo estetik ko'rinishlari bilan muayyan shart-sharoitda o'ziga nisbatan estetik munosabat

uyg‘otish xususiyatiga ega. Zero estetik obyeksiz subyekt estetik jarayonni boshidan kechira olmaydi, ya‘ni estetik munosabatning faqat bir tomonlama ro‘y berishi mumkin emas. Bu o‘rinda obyekt – estetik «qo‘zg‘atuvchi», subyekt – «qo‘zg‘aluvchi» rolini o‘ynaydi. «Qo‘zg‘atuvchi» estetik ko‘rinishi bilan ta‘sir ko‘rsatsa, «qo‘zg‘aluvchi» mohiyati bilan ta‘sirni qabul qiladi, idrok etadi. Bu idrok etish obyektini o‘z tasavvurida yangitdan yaratish bilan yakunlanadi; estetik shakl va mazmuni o‘zida ifodalaydigan estetik ko‘rinishi tufayli, ikkinchisi (subyekt) – o‘sha ko‘rinishining idrok etilishini ta‘minlovchi hissiy va intellektual murvatlarini o‘zida mujassam etganligi bilan estetik munosabatni vujudga keltiradi. Bu munosabat esa, yuqorida aytganimizdek, subyekt va obyekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tashkil etgan estetik jarayonning nisbatan tugallangan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shu estetik jarayon ro‘y beradigan maydonni

Estetik anglash estetik jarayonni tashkil etishi barobarida estetik munosabatni yuzaga keltiradi, ongning ana shu faoliyati ichki nafosatni shakllantiradi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, estetik anglash faqat estetik yaratishda ham faol ishtirok qiladi, ya‘ni u estetik faoliyat jarayonida o‘zining doimiy ulushiga ega: san‘at asarining dunyoga kelishida, turmush sharoitini,

Estetika o‘z ichiga ham tabiatdagi, ham jamiyatdagi, ham shaxs hayotidagi estetik jihatlarni o‘zida mujassam qiladigan estetik munosabat obyektini sifatida yashash sharti subyektiv xilma-xillik bilan belgilanadigan murakkab maqsadni emas, balki serqirra maqsadga muvofiqlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan hissiy-

Nazorat savollari:

1. Etika va estetikani o'rganish zarurati nimadan kelib chiqadi?
2. Mustaqil demokratik taraqqiyot yo'lida etika va estetikaning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. O'zbekistonda axloqiy va estetik madaniyat.
4. Estetikaning falsafiy mohiyati nimada?
5. Estetikaning jamiyatdagi rolini tushuntirib bering.
6. Estetikaning amaliy ahamiyatini tushuntiring.
7. Inson go'zalligining muhim mezonlarini izohlab bering.
8. Inson axloqining muhim mezonlarini izohlab bering.
9. Voqelikka estetik munosabat deganda nimani tushunasiz?.
10. Etika va estetikaning qamrovli hissiy-intelektual hodisa sifatida shaxs va jamiyat hayotini ma'naviy boyitishdagi vazifalarini ayting.

Topshiriq

Savol	Javob
Axloq va san'atning bir-biriga ta'siri	San'at insonni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalaydi
Axloq va dinning bir-biriga ta'siri	Diniy mafkura axloqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi
Axloq bilan tarbiyaning bir-biriga munosabati	Axloq tarbiyaning nazariy asosidir

2-MAVZU:

XXI ASRNING GLOBAL AXLOQIY VA ESTETIK MUAMMOLARI: AXLOQIY, EKOLOGIK AXLOQ, ETOSFERA

REJA:

- 1. Hozirgi zamonda etika va estetikaning dolzarb muammolari.**
- 2. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari uning jamiyat rivojiga ta'siri**

Tayanch iboralar: etosfera, biosfera, noosfera, texnokratiya, biologik axloq, ekologik axloq, evtonaziya, genofond, tubanlik, shuhratparastlik.

Etikaning hozirgi kunda umumjahoniy global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi ham borki, u haqda alohida to'xtalmaslikning iloji yo'q. Bu muammolardan biri, eng muhimi, sayyoramizda etosfera - axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog'liq.

Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz - eymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyyer, lift, kompyuter, poyezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefondagi gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch

bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri buyuk rus olimi V.I.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi - biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, - deb yozadi u. -Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz».

Ana shu nuqtadan tafakkur o'zi nima degan muammo paydo bo'ladi. Bu haqda V.I.Vernadskiy shunday mulohaza bildiradi: «Tafakkur energiyaning shakli emas. U qanday qilib moddiy jarayonlarni o'zgartira oladi? Bu masala hanuzgacha ilmiy jihatdan echilishi topgan emas».

Vernadskiy hayratga solgan masala hozir ham o'sha—o'sha, hol etilmagan.

Xo'sh, tafakkur o'zi nima? U biologik hodisa bo'lmish insonda, uning ruhiy-fiziologik yaxlitlikdan iborat miyasida tug'iladi, lekin tug'ilishi bilan biologik qobiqdan chiqadi va tashqi muhitda energiyaga o'xshab nimanidir yaratadi. Endi inson bilan uning tafakkuri orasida muayyan masofa paydo bo'ladi, masofa uzoqlashgani sari tafakkurning mohiyati ayon bo'lib boradi: inson kutgan oqibat kutilgandan boshqacha mazmun kasb eta boshlaydi. Nega? Bizningcha,

Noosferada, yuqorida aytganimizdek, inson fikri narsalashadi, o'z intellektimiz narsalarga aylanib, bizni o'rab oladi. Insonning ichki tabiati muhit mavqeini egallab, tashqi tabiatga ta'sir ko'rsata boshlaydi va ko'p hollarda bundan eng avvalo insonning o'zi ozor chekadi. Tafakkur biologik xususiyatga ega bo'lmagani uchun biologik muhitning o'rnini egallashga, uni asta-sekin siqib chiqarishga harakat qiladi. Bu harakat ma'lum nuqtadan o'tganidan so'ng esa o'z ijobiy xususiyatini yo'qota boradi va insoniyat uchun salbiy hodisaga aylana boshlaydi. Atom, vodorod, neytron bombalarining kashf etilishi, yadro kallakli

ballistik raketalarining yaratilishi ana shunday salbiy hodisalardandir. Bundan tashqari, noosferaning paydo bo'lishi atmosferani, olamiy okeanni, er osti va er usti suvlarini, nabototni, hayvonotni, hatto insonni ich-ichidan kimyoviy zaharlanishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda tirik organizmlarning, o'simliklarning, hayvonlarning ko'pgina turlari jisman yo'q bo'lib ketish arafasida turibdi. Ayniqsa, joy topolmay, okean bo'ylab kemalarda suzib yurgan radioaktiv chiqindilar yoki ularning kimsasiz go'zal orollarga ko'mib tashlanishi, kislota yomg'irlarining ko'payib borishi singari hodisalar bag'oyat xatarli. Afsuski, inson ko'ra-bila turib, o'zi o'tirgan shoxga bolta urishni to'xtatmayotir.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zahardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda, XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan forig'lantirishni taqozo etadi. YA'ni ular insoni-yat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad Lorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», - degan so'zlari shu nuqtai nazardan diqqatga sazovordir.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa - XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

Yana bir muhim muammo, bu - biologik axloq. Mazkur hodisa so'nggi bir necha o'n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a'zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo'li bilan o'tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtai nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo'lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi,

xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo'nalishdan iborat: biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi», ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik etika» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya'ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o'z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhroilarning ba'zi ko'rinishlariga to'xtalib o'tdik. Biroq, yana undan tashqari so'nggi paytlarda jahon bo'ylab sintetik jismlar ishlab chiqarishning keng yo'lga qo'yilganligi, hayvonot va ayniqsa o'simliklarning gabrid usulida yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hadislar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo'sh, ular tabiat bilan singishib, uyg'unlashib keta oladimi, tabiat ularni o'ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlari, yuqorida aytib o'tganimiz - muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo'lar?...

Biologik axloqning ikkinchi yo'nalishi tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog'liq.

Totli o'lim-evttonaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyorida tashqari o'limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtai nazardan kechirilmaydi. Chunki sabrli, bardoshli bo'lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o'z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o'tishini biladi. Shu bois u o'zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam - shifokordan azoblariga chek qo'yishni so'raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti-harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti

- harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko‘rinishi sifatida qabul qilish to‘g‘rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o‘z echimini kutmoqda.

Chunki tabobat borasidagi so‘nggi tadqiqotlar inson o‘limi bir lahzada ro‘y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to‘xtaganda ham, miya o‘lmasa insonni o‘ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig‘i, undan keyin miya tanasi halok bo‘ladi. Shundan keyingina insonni o‘lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o‘lmas ekan, ko‘pgina ichki a‘zolarining yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta‘minlash va shu orqali ancha muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko‘chirib o‘tkazilishi hali o‘lmagan odamning minimal tiriklikka bo‘lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o‘z tajribalariga asoslanib, yurak ko‘chirib o‘tkazilganda ruh ham ko‘chib o‘tadi, degan fikrni bildiradi. Chunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o‘tkazilganida, yigitning fe‘l-atvorida juda katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o‘pkasi 36 yashar ayolga o‘tkazilganda ham shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o‘zgarib ketgan. Axloqiy nuqtai nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Biologik etikaning anchadan buyon ko‘pchilikka ma‘lum muammosi, bu – abort. Ma‘lumki, to‘rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo‘ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta‘biri bilan aytganda, jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo‘lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo‘sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo‘qmi? Yoki AQSH olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko‘raylik. Ularda «yaxshilangan» - sog‘lom, kuchli intellekt egasi bo‘lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o‘rniga ko‘chirib o‘tkazish tajribalarini olib borish mo‘ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta-sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg‘armasining

(genofondining) bir yoqlama o'zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Rim papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo'rlik yo'li bilan o'zgartirish, nafaqat katta gunoh, balki o'ta axloqsizlik deb atadi. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham etika javob topmog'i lozim.

O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o'lim. Shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy «Mukoshafaat ul – qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadischilar rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

... Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

- 1 – Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;
- 2 – Oллоhdan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;
- 3 – Farz bo'lgan namozni va ro'zani inkor etsa».

Demak inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazardan ham nafaqat tan olinadi, balki birinchi o'ringa qo'yiladi.

O'lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u - jinoyatchini jazolashdan ko'ra, undan o'ch olishga qaratilgan, qadim-qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», yangilangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti-xarakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas, u qilgan yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim - odamni emas, yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o'lim jazosi kamdan-kam hollarda adolatli hukm bo'lib

chiqadi. Chunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin-yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ana shu davrlarda o'limga hukm qilinganlarning juda ko'pchiligi ke-yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo'lingan: nohaq jazolangan - qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko'rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to'g'ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi - hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o'lim - tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo'yilganligi - avval yosh nuqtai nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqea. Bu nafaqat bizga, balki Yer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo. Axloq falsafasi oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda etakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda Axloq falsafasining ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin.

Inson hayotida axloqiy meyorlar katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda ma'lum. Etikaga oid tushunchalarni va axloqiy tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy, lekin keng tarqalgan shakli sifatida ro'yobga chiqadi. Halollik, rostgo'ylik, hayolilik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari meyorlar ayniqsa

diqqatga sazovor.

Halollik. Halollik vijdon, adolat va burch kabi Axloq falsafasi mezoniy tushunchalari bilan bog'liq, insoning o'zgacha munosabati o'zicha munosabatidek sof, pokiza bo'lishini talab qilidigan axloqiy meyordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning emak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy meyor bo'lib amal qilgan, uning ziddi-harom diniy nuqtai – nazardan salbiy hisoblangan xatti - harakatlarga nisbatan qo'llanilgan. M., bismil qilingan hayvon yo parranda go'shti - halol, o'laksa go'shti - harom, nikohdagi jinsiy aloqa - halol, zino - harom, mehnat haqi - halol, o'g'rilik bilan topilgan mol - harom v.h.

Ko'rib o'tganimizdek, har bir diniy e'tiqodning asosida axloqiylik yotadi va u ko'p hollarda ibodatdan baland qo'yilgan: solih bandalar, «Qur'on»da aytilganidek, eng avvalo go'zal axloq egalaridir. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar'iy qobiqdan chiqib, asta-sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy meyorga aylandi, teran ma'naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo'lib qoldi. M., hozirgi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik ilmiy halollik, iqtisodiy halollik v.b. haqida gapirishimiz mumkin.

Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud nopoklikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo tashvishga solib kelgan. Chunonchi, imom G'azzoliyning harom eyish haqida to'xtalib, mana bunday deyishi bejiz emas:

«... Xohi zulm bilan olingan bo'lsin (kuch ishlatib, xoinona undirish va bosqinchilik-o'g'rilik yo'llari bilan olish); xoh zavq va o'yin yo'li bilan olinsin (qimor va shunga o'xshash narsalar bilan bo'lganiday); xoh hiyla va nayrang yo'llari bilan olinsin (tovlamachilik va aldanchilik, tarozidan urish kabi); o'z moli va boyligini harom ishlarga (ichkilikbozlik, qimor, fohishabozlik) xarjlashi - hammasi harom eyishga kiradi».

Afsuski, G'azzoliy sanab o'tgan holatlarni atrofimizda ko'p ko'ramiz. Chunki nopok yo'l tutish oson, lekin halollikka erishish qiyin. Buning sababi

shundaki. halollikning mavjudligi fidoiylik axloqiy tamoyili va rostgo'ylik axloqiy meyori bilan shartlanadi; doimo halollik qilish yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so'z bilan ish birligiga erishishi kerak. Shu bois halol inson jamoatchilik o'rtasida obro'ga ega, hurmatga sazovor bo'ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko'paysa, o'sha erda baxt va farovonlik hukum suradi.

Halollika birinchi bo'lib to'xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho'rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg'on, aldov, nopoklik, haromxo'rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko'pchilik odamlar halollik, rostgo'ylik ustidan hatto kuladigan bo'lib qolganlar. So'z bilan ish birligi yo'qolgan, qog'ozdagi chiroyli gaplar hayotga to'g'ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. Shu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo'lishga chaqirishni o'z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero, ko'z o'ngimizda nopoklik yolg'on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab-yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Fransiya, AQSH, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan. Shu o'rinda quyidagi misolni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Falsafa jamiyati a'zolari bilan muloqot-uchrashuvga kelgan bir taniqli olim va jamoat arbobi qiziq voqeani so'zlab bergan edi. Olimning hikoya qilishicha, Finlyandiyada u bilan birga Rossiya Jamoat televideniyesi xodimini o'z mashinasida olib yurgan fin fuqarosi yonilg'i quyish nuqtalaridan birida to'xtab, sakson litr benzin oladi va borib egasiga shuncha benzin olganini aytib, haqini to'laydi. Uning qancha yonilg'i quyib olganini kuzatishni xayoliga ham keltirmagan benzokolonka xo'jayini pulni olib, ishini davom ettiraveradi. Mashina yo'lga tushganda, sobiq Sho'rolar Ittifoqi hududidan kelgan mehmonlar hayratlanib so'rashadi: «Nega xo'jayin sizni benzin quyayotganingizda kuzatib

turmadi?» U esa tushunmay elkasini qisadi: «Nimaga kuzatib turishi kerak?» Mehmonlar tushuntirishmoqchi bo'lishadi: «Axir, siz sakson litrga haq to'lab, yuz litr benzin quyib olishingiz mumkin edi-ku!» U yana hayron qoladi: «Nega yuz litr olishim kerak ekan, menga faqat sakson litr zarur!». Mehmonlar yana tushuntirishga harakat qilishadi: «Siz kam pul to'lab, ko'p benzin olishingiz mumkin edi, nega unday qilmadingiz?» Mezbon esa yana elka qisadi: «Nega men kam pul to'lashim kerak - sakson litr zarur edi, sakson litr oldim, tavba, buning nimasi tushunarsiz?!», deydi. Xullas, ikki birday kishi harom yo'l bilan ortiqcha benzin quyib olish mumkinligini Finlyandiya fuqarosiga tushuntira olmaydilar; harom va yolg'on nimaligini bilmaydigan mezbon bular meni kalaka qilyapti degan xayolga borib, asabiylasha boshlaganidan keyingina mehmonlar gapni boshqa yoqqa buradilar.

Qanchalik achchiq bo'lmasin, bu - bor gap, haqiqat. Zero, Prezident Islom Karimov nutqlaridan birini «Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezon bo'lsin» deb, boshqa bir suhbatini esa «Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin» deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgo'y, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo'lgan fuqarolar jamiyatini qurish - faqat axloqiy muammo emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy-siyosiy yangilanishdir.

Rostgo'ylik. Rostgo'ylik yoki to'g'ri so'zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog'liq haqiqat esa doimo sinfiylik, partiyaviylik-mafkuraviylik va tarixiylik-davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo'ylikdir. Demak, rostgo'ylik - insonning keyinchalik kasb etgan tabaqaviylik, - so'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy-hayotiy, davriy-tajribaviy xususiyat emas, balkining mohiyatida berilgan fazilat. M., yaqinda tili chiqqan yosh go'dakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, o'zi nimaiki desa - rost gapiradi («Aldagani bola yaxshi» degan maqolni eslang). Go'dakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, to'g'risini aytishidan biz-kattalar kulamiz; lekin haqiqat ustidan, rostgo'ylik ustidan kulayotganimizni o'ylab ham ko'rmaymiz. Go'dak kattarib, «aqli kirib» borgani sari atrof-muhitda yolg'on mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi bo'lishi, yo

jazo olishi mumkinligini anglab etadi va asta-sekin yolg'onga o'rgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolg'on ijtimoiy bosqichga ko'tarildi. Endi xususiy yoki guruhiy manfaatdorlikni ta'minlovchi yolg'on atrofdagi voqelikning hamrohiga aylanadi. Insonning bu yo'ldan faqat yuksak ma'naviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi. Ezgulik, nomus, or, qadr-qimmat, insonparvarlik, halollik, insof nima ekanini tushunib etgan kishigina rostgo'y bo'la oladi.

Rostgo'ylik oson emas. U insondan sabr-toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlarningdir ko'ziga qarab, yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar etkazishdan cho'chmaydi. To'g'ri, bunday munosabat tufayli rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'nadashnomlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida etgazganligidan, ularni noto'g'ri yo'lga solib yubormaganligidan qalbda paydo bo'lgan qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi.

Yolg'onga kelsak, uni ko'pchilik donishmandlar eng katta yovuzliklar sirasiga kiritishgan. Chunki yolg'onchi kishilar bo'lgan yoki bo'layotgan voqeahodisalar haqida noto'g'ri axborot berib odamlarni adashtiradilar, o'zlari ham adashadilar. Kimningdir yoki kimlarningdir yolg'oni tufayli odamlar ishonchga loyiq narsalarga ishonish, ishonchsizlikka sozovor narsalarga ishonmaslik imkonidan mahrum bo'ldilar va turmushda hatto hayot-mamot masalalarida noto'g'ri qarorlar qabul qiladilar, bu narsa esa fojeaga olib keladi. Yolg'onchilik qilgan odam ham «quruq» qolmaydi, u ham o'z «fojeaviy ulush» iga ega bo'ladi, unga bundan buyon nomusiz, kazzob, ishonib bo'lmaydigan odam sifatida munosabat qilinadi, bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, o'zi ham zarar ko'radi. Bunga o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ikki marta yarim kechada «Uyim yonib ketdi!» deb yolg'ondan faryod ko'tarib, hammani - sog'u kasalni, qariyu yoshni oyoqqa turg'izib ovora qilgan, uchinchi marta haqiqatdan ham uyiga o't tushganida ko'tarilgan dod – voyga hech kim e'tibor qilmagan yolg'onchining qismati misol bo'la oladi. O'z qishloqdoshlarining ishonchini yo'qotgan ertak

qahramoni faqat o'zgalarnigina emas, o'zini ham aldadi: uchinchi chorloviga hech kim yordamga kelmadi, uyi tag-tugi bilan yonib ketdi, boshpanasiz qoldi. Har qanday yolg'onchining peshonasida ana shunday «boshpanasiz» panohsiz qolish qismati bor. Zero har bir inson uchun o'zgalarning unga bo'lgan ishonchi eng qoim panohdir; o'zgalarning ishonchi insonning o'ziga ishonchini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Hayolilik. Bu meyor xulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsa-da, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat - nafosat bilan uyg'unlashib ketadi. Hayodan odatda, inson qizaradi, bu qizarish, ayniqsa xotin-qizlarda ichki go'zallikning yuzga tepchib chiqishiga sabab bo'ladi va alohida bir nafislikni, mayinlikni vujudga keltiradi. Insonning o'zi sodir etgan yoki boshqalar vositasida amalga oshirilgan axloqiylikka zid xatti-harakatlardan noqulay vaziyatga tushishi, o'ng'aysizlanishi, mulzam bo'lishi uyat hissida ham mavjud. Lekin bu holatlar uyatda ijtimoiylik kasb etgan bo'ladi, shu sababli ular xatti-harakat sodir qilingandan so'ng ham davom etadi va ko'p hollarda vijdon azobiga aylanadi. Hayotda esa mazkur holatlar sof ma'naviy tabiatga ega va vaqt doirasida cheklangan bo'lib, ular xatti-harakat sodir etilayotgan paytdagina yuzaga chiqadi.

Sharq donishmandlari, xususan, Abu Lays as-Samarqandiy, G'azzoliy, Navoiy kabi allomalar, keyinroq esa Avloniy, Fitrat singari jadid mutafakkirlari, hayoni yuksak axloqiy qadriyat sifatida olib qaraganlar, uni ikkiga - odamlar oldidagi hayoga va Alloh oldidagi hayoga ajratganlar hamda nomusning bir ko'rinishi deb ta'riflaganlar. Chunonchi, «Hayo, - deb yozadi Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida, – dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir... Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir».

Darhaqiqat, hayolilik kishining ma'naviyatli, ma'rifatli, nomusli, ochiq ko'ngilli ekanini anglatadi, uning ziddi behayolik esa, aksincha, ma'naviyatsizlik, nopoklikka moyillik, qalban qattiqlik kabi illatlar bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda hayolilik alohida ahamiyatga ega. Turli sivilizatsiyalarning o‘zaro aloqalari, ba‘zan esa omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik singari zamonaviy hodisalar o‘zbek oilasidagi an‘anaviy hayolilikka ma‘lum ma‘noda salbiy ta‘sir ko‘rsatayotir, ayniqsa xotin-qizlar va yoshlarning o‘zini tutishida, muomalasida, kiyinishida bu ta‘sirni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli oiladagi va maktabdagi tarbiyada hayolilik xulqiy go‘zallik, nazokat; behayolik esa xulqiy xunuklik va qo‘pollik ekanini uqdirish shaxs erkinligining doimo o‘zgarar oldida mas‘uliyat bilan bog‘liqligini izchil ravishda tushuntirib borish muhim vazifalardan biri.

Insoflilik. Aflotun haqida gap borganida, uning adolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o‘tgan edik. Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo‘ladi. Bordi-yu, o‘zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. U fuqarolar, jamiyat a‘zolari orasidagi o‘zaro munosabatlar meyoridir.

Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog‘liq, ma‘lum ma‘noda halollikka o‘xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki halollik o‘z haqi va haqqini, ya‘ni moddiy va ma‘naviy huquqini o‘zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg‘a tashlangan holatdir: unda kishi o‘z halol haqi va haqqidan o‘zganing hisobiga kechadi; «o‘zga»ning sharoiti o‘zinikidan nihoyatda og‘ir va yomon ekanini hisobga olib, o‘z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o‘zgaga beradi, muruvvat ko‘rsatadi.

Xush fe‘llilik, shirin suxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar meyoriylik nuqtai nazaridan g‘oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma‘lum ma‘noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe‘l, shirinsuxan inson o‘zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g‘azab bilan yomon

kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham ko'tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o'tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag'ishlaydi. Jamiyat doimo o'shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o'rnak olishga intiladi.

Xush fe'llilik, shirin suxanlilik qay darajadadir ko'proq ixtiyor bilan, kishining ma'lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko'proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o'z g'azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so'zlagisi, biror-bir gap bilan o'zini ko'rsatgisi kelib qolganda o'sha istakni to'xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, «yetti o'lchab bir kesish» tamoyili asosida ish ko'rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo'ladilar.

Ayni paytda ba'zi bir odamlar guruhi uchun meyorga aylanib qolgan illatlar ham borki, ular haqida to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. Ular ichidan eng keng yoyilgan, ma'lum ma'noda yuqumli ma'naviy kasallikka aylanib borayotgan ikkitasini – xudbinlik va shuxratparastlikni ko'rib chiqaylik.

Xudbinlik. U o'z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo'yadigan axloqiy sifat, illatni anglatuvchi tushuncha; biror - bir insonning moddiy - maishiy manfaatlarining boshqalarnikidan ustun qo'yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o'z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba'zi unsurlaridan iborat salbiy xatti-harakatlar majmu'idir.

U sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik meyo'rining aksi: agar jo'mardlik, ko'rib o'tganimizdek, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o'z manfaatlari yo'lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy meyor egasining bo'rtib ko'zga tashlanadigan xususiyati.

Xudbinlikni inson shaxsining o'ziga bo'lgan muhabbati bilan chaplashtirmaslik lozim. Biz Imom G'azzoliy muxabbatning besh turi haqida so'z

yuritib, insonning o'ziga, o'zining a'zolariga, salomatligiga bo'lgan muhabbatini birinchi o'rniga qo'yganini yaxshi bilamiz. Uningcha, bu muxabbat Alloh, ota-ona, qarindosh-urug', do'st-birodar, muhtoj-ehtiyojmandlar xizmatida bo'lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi. Xudbinlik esa muhabbat hissiga emas, nafsga, hirsga, rujuga asoslanadi, o'zini adolatsizlik, insofsizlik va berahmlik xislatlarida namoyon etadi. To'g'ri, hammaning ham qo'lidan jo'mardlik kelavermaydi, lekin insonning o'ziga bo'lgan muhabbati, boshqalarning ham o'ziga shunday muhabbati borligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi.

Xudbinlik jinoyat emas, xudbin odam qonunni buzmaydi, aksincha doimo qonun oldida «toza», «faqat qonuniy haqi»ni qanday sharoitda bo'lmasin - birovlarining fojeasi ustidami, o'limi, - qat'i nazar, undirib oladi, xolos. Uning aqidasi: «Go'zal bino qulasa-qulayversin, men o'zinga tegishli yuzta g'ishtni sug'urib olishim kerak!»

Shuni afsus bilan qayd etish keraki, xudbinlik ustidami jamiyatda ko'payib borsa-borayaptiki, kamaymayapti. Chunki qonunning mustahkamlanib borishi xudbin odamlar uchun qulaylik tug'diradi: ular qonunning ruhini - mohiyatini bir chetga surib qo'yib, uning jumllalaridan - shaklidan foydalanadilar. Avvalgi, an'anaviy urf-odatlar hukumron davrlarda xudbin odam jazolanishi - bir chetga chiqarib qo'yilishi, jamoadan, mahalladan haydalishi mumkin edi. Endilikda bunday munosabat erkin shaxs huquqlarini paymol qilish, noqonuniy yondashuv deb hisoblanadi. Demak, xudbinlikni yo'qotishning faqat bir yo'li bor, u ham bo'lsa jamiyatda axloqiy tarbiyani zamonaviy tarzda keng joriy etish.

Shuhratparastlik. Shuhratparastlik - shon-shuhrat ketidan quvadigan va bu yo'lda har qanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xususiyati. Shuhratparast odam o'z nomining doimo atrofdagilar va jamiyat diqqat markazida turishiga mashhurlikka, shov-shuvga, maqtovga ichki bir tiyiqsiz ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj oxir-oqibat uni jamiyatning axloqiy - ijtimoiy talablari bilan ham, individ sifatidagi o'z biologik va ma'naviy-intelektual imkoniyatlari bilan ham mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qo'yadi.

Shuhratparastlikning axloqiy illat sifatidagi xatarli tomoni shundaki, u ravnaq topib borish xususiyatiga ega: dastavval kishi o'z «men»ining boshqa «men»lardan kam bo'lmasligini talab qiladi, keyin asta-sekin o'z «men»ining barcha «men»lardan baland turishini xohlab qoladi va nima qilib bo'lsa ham shu xohishni amalga oshirishga intiladi. Natijada u mavjud veqelikni, atrofdagilarning o'ziga bo'lgan asl munosabatini real baholay olmaydi; qayerda uni «ko'tar-ko'tar» qilib maqtashsa, o'sha erga o'zini uradi, hayot asl insoniy vazifasini bajarishdan chalg'iydi, tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadi. Shuhratparastlikka yorqin misol, umumbashariy timsol sifatida, odatda salkam 2,5 ming yildan buyon Herostratning nomi keltiriladi: u abadiy shuhrat qozonish uchun olamning etti mu'jzasidan biri - Efes shahridagi Artemida ibodatxonasida o't qo'ygan. Uning nomi hozirgacha taajjub, hayrat, ayni paytda nafrat va la'nat bilan tilga olinadi.

Shuhratparastlik ham xuddi xudbinlik kabi zamonaviy jamiyatda avj olgan illatlardan hisoblanadi. Agar xudbinlikning keng yoyilishiga ma'lum ma'noda shaxs erkinligining qonuniy muhofazasi, ba'zi, demokratik tamoyillar yo'l ochib bersa, shuhratparastlik uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalari ko'k chiroq vazifasini o'taydi: Nitsshe aytganidek, hozirgi paytda har qanday kichkinagina «men», yo'lini topib, sahnadan, sahifadan yoki ekrandan o'zi haqida jahonga jar solish huquqiga va imkoniga ega Matbuot va so'z erkinligidan «o'ziga xos» foydalanadigan, «mashhurlar» haqidagi shov-shuvlar bilan shug'ullanadigan o'nlab gazetalar, ko'rsatuv va eshittirishlar shuhratparastlarning yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek paydo bo'lishini ta'minlamoqda. Misol tariqasida ko'pchilik omaviy axborot vositalarida aslida horijiy mualliflar musiqalarini, qo'shiqlarini noqonuniy o'zlashtirgani- o'g'irlagani (plagiat) uchun jazolanishi kerak bo'lgan shuhratparast «san'atkorlar»ning ko'klarga ko'tarilishini keltirish mumkin. Shuhratparastlikning bunday keng yoyilishiga qarshi faqat axloqiy tarbiya vositasida kurashish qiyin, shu sababli ularga nisbatan axloqiy yo'l bilan birga ichki va xalqaro huquq meyorlaridan ham unumli foydalangan holda maqsadga muvofiqdir.

Tubanlik– insonda kuchli nafratlanish tuyg'ularini hosil qiluvchi estetik

kategoriyadir. Nafosatshunoslik kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his–tuyg‘u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. Tubanlik ana shunday tushuncha: uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Chunki, xunuklik kishilarda engil noxushlik tuyg‘usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg‘otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib etadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko‘kalamzorlarga to‘kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko‘ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Gohida muhtojlik inson tabiatidagi yovuz maylni qo‘zg‘atib yuborishi natijasida insonni tubanlashtiradi. Ayniqsa, mamlakat boshiga og‘ir kulfat tushganda undan o‘z moddiy manfaatlari yo‘lida foydalanuvchi kimsalar (2001 yil 11 sentabrda AQShda sodir bo‘lgan fojea sabab o‘g‘ri «tadbirkorlar» magazinlarni talashgan edi–H.B.) tubanlikka misol bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Globallashuv jarayonining “Etika va estetika” fanlariga ta’siri natijasida bo‘ladi va uning oqibatlari nimadan iborat?
4. Tubanlilikning illat sifatida ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta’siri nimalarda ko‘rinadi?

3-MAVZU: AXLOQ PSIXOLOGIYASI

REJA:

- 1. Ruhiy tahlil yo‘nalishi va g‘ayri zo‘ravonlik.**
- 2. Gender muammolar.**
- 3. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyliigi hamda ratsionalligi.**

Tayanch iboralar: biofillik, nekrofillik, ezgulik, yovuzlik, axloqiy muhabbat, zo‘ravonlik, g‘ayrizo‘ravonlik, itoatsizlik, pozitiv diskriminatsiya, gender tenglik, gender siyosat, feminizm.

Ruhiy tahlil usulining vujudga kelishi juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. XX asr arafasidan to bugungi kungacha bu shov-shuvlar goh kuchayib, goh susayib davom etmoqda. Ular bejiz emas. Zero, ming yillardan buyon o‘qitilib va amaliyotda qo‘llanib kelinayotgan ruhshunoslik fani bir zarb bilan taxtdan tushirildi. Ana shu zarb egasi avstriyalik olim Zigmund Freyd (1856 - 1939) edi.

Gap shundaki, akademik ruhshunoslik tabiiy fanlar laboratoriyasining usullarini qo‘llab, vijdon, qadriyatli mulohazalar, ezgulik va yovuzlikni bilish - ruhshunoslik muammolari tizimiga kirmaydigan metafizik tushunchalar, deb hisoblab, asosan, odatdagi «ilmiy usul» bo‘yicha qabul qilingan mayda masalalar bilan shug‘ullanib kelardi; u o‘zining asosiy obykti - qalbni nazardan qochirib, umumiy, yoshga, kasbga doir ruhiy holatlar hamda reaksiyalar va tabiiyyatlarning shakllanishiga, ya’ni ruhiy «murovatlar»ga e’tiborni qaratib, yuqorida aytganimizdek, inson uchun nihoyatda muhim bo‘lgan muhabbat, aql, vijdon, qadriyatlar singari hodisalarni chetlab o‘tdi. Freyd esa kuzatuvlar, aql va o‘z kechinmalariga suyanibgina axloqiy muammolarga murojaat qilmasdan ruhiy kasallikni muvaffaqiyatli davolash muammosini hal etib bo‘lmasligini aniqladi va bemor o‘z qalbi ehtiyojlarini hisobga olmagan uchun kasallikka chalinadi, degan xulosaga keldi.

Freyd inson ruhiy hayotida uch bosqichni ajratib ko'rsatadi: ong, ongoldi, va ongtubi yoxud onglanmagan, ya'ni, ongga aylanmagan holat. Onglanmagan holat va ongoldi ongdan nazorat (senzura) degan o'rta bosqich orqali ajralib turadi. Nazorat ikki vazifani bajaradi: birinchisi, shaxs o'ziga maqbul ko'rmagan va qoralagan his-tuyg'ular, fikrlar, tushunchalarni onglanmagan holat hududiga siqib chiqaradi; ikkinchisi, ongda o'zini namoyon etishga intilgan faol onglanmagan holatga qarshi kurashadi. Onglanmagan holatdagi fikrlar, his-tuyg'ular umuman yo'qolib ketmaydi, biroq xotiraga chiqishi uchun yo'l qo'yilmaydi. Shu bois ular ongda bevosita emas, balki bilvosita - bilmay gapirib yuborish, xato yozib yuborish, tush, nevrozlar singari g'alati harakatlar orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, onglanmagan holatning sublimatsiyasi - taqiqlangan intilishlarning ijtimoiy jihatdan maqbul harakatlarga aylangan tarzda ko'rinishi ham ro'y beradi. Onglanmagan holat g'oyat yashovchan, vaqtga bo'ysunmaydi. Undagi fikrlar, istaklar, his-tuyg'ular nazorat tufayli, hatto o'n yillardan so'ng ongga chiqsalar-da, o'z ehtiros quvvatini yo'qotmaydilar. Ongoldi holatini muvaqqat onglanmagan holat, de-yish mumkin, uning ongga aylanish imkoni bor, u onglanmagan holat bilan ong o'rtalig'ida bo'lib, ongning kundalik ishida xotira ombori vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, qalb qa'rida yotgan, tiyiqsiz ehtiroslar hisoblangan onglanmagan holat intilishlariga diqqatni qaratib, Froyd inson qalbining «qora» tomonlarini tahlilga oladi. Bu tahlil, insonning qanchalik zohiriy axloqiylashuviga qaramay, unda tabiiy jinsiy aloqada o'zini namoyon qiladigan uyatsiz, aksilaxloqiy, «yomon» tomonlar mavjudligini isbotlab beradi. Bu tomonlarni Froyd tushlarda aks etishini ko'rsatadi, zero, tushda ongning nazorati g'oyatda zaiflashishi tufayli ular o'zlarini ramziy tarzda namoyon etadilar. Shu vajdan buyuk tahlilchi-faylasuf Aflotunning, yaxshi odam yomon odam o'ngida qilgan ishlarni tushda ko'rish bilangina cheklanadi, degan fikrini eslatib o'tadi.

Freyd onglanmagan holatni inson qalbidagi barcha yovuzliklar saqlanadigan hovuzga o'xshatadi. Tushlardagi madaniy kishini dahshatga soladigan tuban, hayvoniy holatlar - jamiyatdagi axloqiy talablar bilan hisoblashish natijasida real

hayotda amalga oshmagan shaxs xohish-istaklarining evaz, tovon tarzida yuzaga chiqishi. Inson faqat fikran, tushlarida, xayolan va orzularida onglanmagan holat intilishlariga, «yomon» ibtidoğa beriladi, real hayotda esa o'zining ochiq jinsiy hirsini yoki tajovuzkorligini ko'rsatib, yomon otliq bo'lmaslikka, yaramas odam degan nom olmaslikka, boshqalarga hayoli, halol, muloyim shaxs sifatida ko'rinishga urinadi. Bu urinish birovlarini ikkiyuzlamachilikka yoki mavjud hayotiy qadriyatlarni va axloqiy qoidalarni so'zsiz, notanqidiy qabul qilishga olib kelsa, boshqalar uchun u ruhiy nosog'lomlikka, insonni ichdan kemiradigan, lekin tashqaridan bilinmaydigan asabiy kasallikka aylanadi. Freydning fikriga ko'ra, tushlardagi «yovuz» niyatlar va «yaramas» istaklarni hozirgi zamondan emas, ko'proq kechmishdan izlash kerak, zero, ular «faqat infantilizmni», etnik ibtidomizga qaytganimizni o'zida aks ettiradi. Ana shu jihatlar axloqiy muammolarni, xususan, axloqning kelib chiqishi, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida yuzaga kelgan turli xil axloqiy qoidalar va talablarni ko'rib chiqishda Freyd uchun qo'l keladi.

Shuni aytish kerakki, Freyd insondagi ezgu ibtidoni, olijanob intilishlarni inkor etmaydi. Uning axloqiy qarashlarini tushunmaganlarga, uni yovuzlikni mutlaqlashtirishda ayblaganlarga qarshi Freyd, bizning insondagi barcha yovuzliklarni ta'kidlab ko'rsatishimizga sabab shuki, boshqalar ularni inkor etadi; bu ta'kidlashdan insonning ruhiy hayoti yaxshilanmasa ham, har holda u tushunarli bo'ladi; agar biz bir tomonlama axloqiy baholashdan yuz o'girsak, u holda, shubhasiz, inson tabiatidagi ezgulik va yovuzlikning o'zaro munosabati shaklini aniqlashimiz mumkin, degan fikrni bildiradi. Haqiqatan ham Freyd axloqiy qarashlarining o'ziga xosligi aynan ana shunga asoslangan. Biroq, Freyd, barcha illatlarning va vijdon, qo'rquv, aybni his qilish, tazarru singari fazilatlarining kelib chiqishini, faoliyatini, deyarli barcha axloqiy hodisalarni asosan «Edip kompleksi»ga olib borib taqab qo'yadi.

Zigmund Freydning o'zi bir o'rinda: «Yangi harakatni to'xtatib bo'lmasligiga dushmanlarim ishonch hosil qilganlari kabi, menga ham bundan buyon uni o'zim chizib bergan yo'ldan olib ketish mumkin emasligiga

ishonishimga to'g'ri keldi», – degan edi. Darhaqiqat, ruhiy tahlilning keyingi taraqqiyoti – froydchilik va yangi froydchilik bosh-qacha yo'ldan, ruhiy tahlil asoschisi nazariyalarini tanqi-diy o'rganish hamda rivojlantirish yo'lidan ketdi. K.Yung, A.Adler, E.Fromm singari tahlilchi-faylasuflar inson qalbini o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Imkon nuqtai nazaridan faqat ulardan biri - Frommning axloqiy qarashlariga to'xtalamiz.

Erix Fromm (1900 - 1980) asosiy diqqatini inson qalbining axloqiy talablarga munosabatini ochishga, totalitarchilik, insonparvarlik, tiriksevarlik (biofillik) va o'liksevarlik (nekrofillik) haqidagi mulohazalarga qaratadi. Uning «Sevish san'ati» (1956), «Inson qalbi. Uning ezgulik va yovuzlik qobiliyati» (1964), «Inson o'zi uchun» (1967) kabi asarlarida axloqiy muammolarga keng o'rin berilgan.

Erix Fromm inson hayotini «san'at», axloqni esa «yashash san'ati», etikani esa inson haqidagi nazariy fan deb ataydi. Biroq inson ana shu «yashash san'ati»ga ko'p hollarda amal qilmaydi, ya'ni o'ziga, o'zining mavjudligiga e'tibor bermaydi. Mutafakkir shu bois alam va achinish aralash shunday deb yozadi: «Inson uchun o'zining xususiy hayoti va yashash san'atidan boshqa hamma narsa muhim. U o'zidan boshqa hamma narsa uchun yashaydi. Holbuki, axloq yashash san'ati borasida komillikka erishish uchun zarur bo'lgan meyorlar majmu'idan iborat ekan, axloqiy tamoyillar hayot tabiatiga, xususan, insoniy mavjudlik tabiatiga mos kelmog'i lozim. Har qanday hayot tabiatining umumiy tamoyili o'z xususiy mavjudligini asrash va barqaror etishdan iboratdir».

Shunday qilib, axloq insonning go'zal yashashini, eng avvalo o'zi uchun yashashini ta'minlashi kerak. Fazilat - insonning noyob individualligi. O'z individualligini namoyon eta olgan odamgina fazilatli hisoblanmog'i lozim, zero insonning hayoti hamma narsadan ustun va qimmatlidir. Fromm o'z axloqiy qarashlarini ana shu nuqtai nazardan turib o'rta tashlaydi va himoya qiladi.

Frommning fikriga ko'ra, yovuzlik faqat insoniy hodisa. U insoniylik holatidan ortga qaytish, insonga xos aql, muhabbat, erk xususiyatlarini yo'q qilishga bo'lgan intilish. Ayni paytda, u fojeiy holatdir. Chunki inson, hayvoniy

darajaga qaytsada, u biror-bir soniya odam ekanini unutmaydi, demak, yovuzlik masalani hal qilishning yo‘li sifatida uni hech qachon qoniqtirmaydi. Insonning yovuzlik holati - o‘zini ezib turgan insoniy turmushi og‘irligidan ozod bo‘lishga fojiviy urinishi tufayli ro‘y beradi, u o‘zini yo‘qotishdan iborat. Ezgulik bizning mavjudligimizni tobora mohiyatimizga yaqinlashtirib boradi, yovuzlik esa turmushimiz bilan mohiyatimizning o‘sib boruvchi begonalashuvi demakdir.

Inson ortga va oldinga intilishga, boshqacha aytganda, ezgulik va yovuzlikka moyil. Toki ikkala mayl teng ekan, agar u o‘z ahvolini anglab etishga qobil bo‘lsa, tanlash borasida erkin. Biroq, agar insonning yuragi tosh qotib, mayllari ortiq tenglashmaydigan darajaga kelsa, u bundan buyon tanlovda erkin bo‘lolmaydi. Inson to tanlash erki qolmaydigan nuqtagacha o‘z xatti-harakatiga javobgardir. Inson yuragi qanchalik tosh bo‘lmasin, u insoniy yurak bo‘lib qolaveradi. Biz inson bo‘lib tug‘ilganmiz va shu bois oldimizda doimo qaror qabul qilish masalasi ko‘ndalang turadi. O‘z maqsadlarimiz bilan birga, biz vositalarimizni ham tanlashimiz kerak. Agar kimki hayotga befarq, loqayd qarasa, unday odamning ezgulikni tanlashiga umid yo‘q.

Freyd qarashlari haqida mulohaza yuritar ekan, Fromm o‘z ustoziga nisbatan kengroq miqyosda harakat qiladi: inson tabiati nafaqat biologik, balki tarixiylik bilan shartlanganini ta’kidlaydi. U Freydning inson muammosini to‘g‘ri hal etishda biologik va madaniy jihatlarni qarama-qarshi qo‘yish usulini rad etadi, shaxsni o‘rganishda odamning boshqalarga, tabiatga va o‘z-o‘ziga munosabatini tushunish muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, Fromm iqtisodiy, ruhiy va mafkuraviy jihatlar bir-biri bilan uzviy aloqador ekanini, ular jinsiy aloqaning jo‘ngina refleksiya emasligini aytadi. Biroq Freydning buyuk xizmatlarini e’tirof etib, ruhiy tahlil jarayonidan asosiy maqsad - ustoz ta’kidlagan haqiqatni tan olish ekanini va ruhiy tahlil haqiqatga yangicha mazmun berganini uqtiradi.

Ruhiy tahlilgacha bo‘lgan tafakkurda, agar inson o‘z gapiga o‘zi ishonsa, u haqiqatni gapirayotgan hisoblanardi. Ruhiy tahlil subyektiv ishonch aslo haqqoniylikning mezoni bo‘la olmasligini ko‘rsatdi. Inson haqiqat yuzasidan harakat qilaman deb ishonishi mumkin, lekin asl sabab - beshafqatlik. U xatti-

harakatning sababi muhabbatim deb biladi, lekin aslida uni mazoxcha bog‘liqlikka intilish harakatga keltiradi. Inson menga burch rahnamolik qilyapti deb o‘ylaydi, ammo asosiy sabab - uning shuhratparastligi bo‘ladi. Gap shundaki, inson nafaqat bularga boshqalarning ishonishini xohlaydi, balki o‘zi hammasiga ishonadi. Ruhiiy tahlil jarayonida odam uning qaysi g‘oyalari ehtirosli qobiqqa o‘ralgan-u, qaysilari uning fe‘l-atvori tizimida ildizga ega bo‘lmagan, substansiya va vazndan yiroq shartli klishelar (nusxalar) ekanini anglaydi. Ruhiiy tahlil shu ma‘noda haqiqatni izlashdir. Uning asosiy tamoyili shundaki, tafakkurimiz va hissiyotlarimizni sinchillik bilan o‘rganmasdan hamda qaysi joyda biz aqliylashamiz-u, qayerda e‘tiqodlarimiz hissiyotga borib taqalishini aniqlamasdan turib, ruhiy sog‘lomlik va baxtga erisha olmaymiz.

Erix Fromm muhabbat muammosiga ham juda katta e‘tibor beradi. Muhabbat, bu - har biri o‘zligini saqlagan holatdagi ikki kishining birlashuvi. Muhabbat, bu - harakat, orom emas, faollik - kuzatish emas. Sevish - olish emas, berish. Sevgida inson o‘zi uchun eng bebaho bo‘lgan hayotining bir qismini - hissiyoti, bilimi, kechinmalarini o‘zgaga bag‘ishlaydi. Buni u o‘rniga nimadir olish uchun qilmaydi, ana shu «bag‘ishlash»ning o‘zi nafis bir lazzatdir. Alloma faylasuf, yuqorida ta’kidlaganidek, muhabbatni g‘amxo‘rlik, mas’uliyat, hurmat va ilm unsurlaridan iborat deb bilar ekan, mas’uliyatga o‘zgacha e‘tibor bilan qaraydi. Fromm mas’uliyatni odatda qabul qilinganidan boshqacharoq tarzda talqin etadi. Odatda mas’uliyat deganda, chetdan yuklangan, ya’ni odamga boshqa kishilar, jamiyat va hokazolar tomonidan taklif etilgan, uqtirilgan yoki majburan bo‘yniga qo‘yilgan qandaydir bir narsa tushuniladi. Fromm esa mas’uliyatni mohiyatan qalbning xohishi bilan bog‘liq emin-erkin holat, deydi. Mas’uliyatni his etish, bu - boshqa mavjudotning ehtiyoji va talabiga «labbay» deb javob berishga tayyor turish. Shunday qilib, mas’uliyat kimgadir g‘amxo‘rlik qilish bilan bog‘liq. Boshqa tomondan faylasuf mas’uliyatni hurmat bilan bog‘laydi. Hurmat, bu - qo‘rquv yoki qo‘l qovushtirish emas, u insonni qanday bo‘lsa, shunday qabul etishni talab etadi.

Frommning fikriga ko'ra, industrial jamiyatda haqiqiy muhabbat kamdan-kam uchraydi. O'z farzandlarini tom ma'noda sevgan ota-onalar ham umumiy qoidadagi istisnodir. Nikohda esa muhabbat deb butunlay boshqa sabab, boshqa hislar tushuniladi. Unda hatto sevgi tasavvuri ham buziladi. Bu aynan inson o'zini muhabbatning «mo'jiza qushi»ni qo'lga kiritdim deb hisoblagan paytda ro'y beradi. Muhabbatning yo'qolishiga go'yo muhabbatni qo'lga kiritib olish mumkin degan noto'g'ri tasavvur olib keladi. Shu bois ko'p hollarda muhabbatdan boshlangan nikoh ikki egalik qiluvchining, juftlashgan ikki xudbinning hamdo'stligiga aylanadi. Biroq muammo nikohda emas, balki ikki tomon shaxsining iste'molchilik xususiyati bilan bog'liq. Muhabbatga mavjud bo'lish, o'zini ifodalash qobiliyati tarzida emas, balki ma'budga qaragandek munosabatda bo'lish ana shundan kelib chiqadi. Shu bois birga yashashning tizimini o'zgartirishga, ya'ni ko'pxotinlilik, jazmanbozlik, jamoaviy jinsiy aloqa va hokazolarga intilish - bor-yo'g'i haqiqiy muhabbat qiyinchiliklarini engib o'tish uchun yo'l qidirish. Agar inson o'z «yarmini» topish va sevishtirish baxtiga erishsa, u boshqa juft izlashga hech qachon intilmaydi, butun borlig'ini o'z seviklisiga bo'lgan muhabbatga bag'ishlaydi. Umuman, Fromm taqdim etgan shaxs tizimida muhabbat diniy hissiyot va dunyoqarash bilan birgalikda markaziy o'rinni egallaydi.

Ruhiy tahlil aslida totalitar tuzumga qarshi, mustamlakachilik aldovlarini, «dohiyalar» qalbining zulmatini va yovuzliklarini ochib berish qudratiga ega, butun insoniyat uchun, jumladan, biz uchun ham g'oyat zarur ta'limotdir. Axir, o'zbekning «Odam olasi ichida» degan maqoli bor-ku! Ruhiiy tahlil o'sha «ola»ning qayerdaligini, qandayligini, paydo bo'lishiga sabab nima ekanini va uni qanday qilsa bartaraf etish, «oqqa» aylantirish mumkinligini ko'rsatib berishda mislsiz ahamiyatga ega.

Insoniyat tarixi mobaynida qadimda ilgari surilgan g'oyalar keyinchalik mohiyatan yangilangan, o'zgargan holda yana maydonga chiqishini kuzatish mumkin. Bu hodisa etika va estetika sohalariga ham tegishli. XX asrda yuzaga kelgan va amaliyotda muvaffaqiyatga erishgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik

ko'rsatmasdan kurashish - g'ayrizo'ravonlik axloqshunosligi ana shunday «yangilangan eski g'oya»lardan.

Ma'lumki, yovuzlikni yo'qotish, to'g'rirog'i, kamaytirish, zaiflashtirish barcha davrlarda ham asosiy axloqiy muammo bo'lib kelgan. Qadimgi dunyodagi va O'rta asrlardagi Sharq mutafakkirlari yovuzlikni kuchsizlashtirishning yo'li - unga qarshi yovuzlik bilan javob bermaslik, deb bilganlar. Bunday yondashuvni qadimgi hindlar va xitoylarda (yo'ga, jaynichilik, buddhachilik, daochilik), nasroniylikdagi Iso alayhissalom da'vatlarida, musulmonlikdagi tasavvuf namoyandalarida ko'rish mumkin. Lekin bu davrlarda yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslikni faqat sabr-toqat, Xudoga tashlab qo'yish orqali amalga oshirish mumkin deb bilganlar. Agar hazrati Iso o'z ummatlariga «O'ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut», degan bo'lsalar, buyuk mutasavvif va shoir, yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy o'z hikmatlaridan birida shunday deb yozadilar:

Zolim agar jafo qilsa, Alloh, degil,
Ilking ochib, duo aylab, bo'yun sungil.

Lekin avvalgi davrlardagi bu qarashlarning mohiyati chidam va bardosh bilan cheklangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan hamda hozirgi paytda muvaffaqiyatli davom etayotgan yovuzlikka qarshi zo'ravonlik ko'rsatmaslik ana shu sabr-bardosh, chidam orqali bo'ysunishni emas, balki kurashishni taqozo etadi. Ana shu yangilangan, mohiyati o'zgargan axloqiy yo'nalishning ibtidosida XIX asr mutafakkiri amerikalik faylasuf-axloqshunos Henri Deyvid Toro (1817 - 1862) turadi. Bu yo'nalish doirasida ke-yinchalik, XX asr boshlarida Lev Tolstoy (1828 - 1910), ke-yinroq buyuk hind mutafakkiri va jamoat arbobi Mohandis Karamchand Gandi (1869 - 1948), amerikalik ruhoni, faylasuf, jamoat arbobi Martin Lyuter King (1929 - 1968) singari mutafakkirlar izlanish olib bordilar. Shuningdek, AQShdagi Albert Aynshtayn instituti direktori professor Jin Sharp, Polsha Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Anjey

Gjgorchik, Rossiya Fanlar akademiyasi Falsafa instituti professori Abdusalom Guseynov singari zamondosh olimlarimiz ham mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Mazkur yo‘nalish asoschisi Toro o‘zi yoqtirmagan amerikacha jamiyatdan bosh olib chiqib, 1845 yilning bahoridan 1847 yilning kuzigacha Uolden ko‘li bo‘yida kulba qurib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Keyinchalik shu tajriba asosida «Uolden yoki o‘rmondagi hayot» asarini yozadi. Bundan tashqari u «Fuqaroviy itoatsizlik», «Massachusetdagi qulchilik» singari maqola va esselarida ham g‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligi g‘oyalarini ilgari suradi. Toro hayotda ham ana shu g‘oyalarga amal qiladi: soliq to‘lashdan bosh tortadi. Kunlardan birida shaharga tushganida, uni soliq to‘lamagani uchun qamab qo‘yishadi. Kimdir uning o‘rniga soliq summasini to‘lab yuborgandan keyingina Toroni qamoqdan chiqarishadi. U o‘zining bu xatti-harakatini quyidagicha tushuntiradi: «Menda, agar shunday imkoniyatim bo‘lgan taqdirda ham, dollarlaringa odam sotib olishlarini yoki odamni o‘ldirish uchun miltiq sotib olishlarini kuzatib turishga ishtiyoq yo‘q». Mutafakkir quldorlik hukm surayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlari hukumati bilan har qanday aloqani uzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va boshqalarni ham shunga chaqiradi.

Toro g‘ayrizo‘ravonlik inqilobi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Uning fikricha, agar minglab odamlar soliq to‘lamasa, u zo‘ravonlik ham, qonli chora ham hisoblanmaydi; aksincha, soliq to‘lash davom etaversa, davlatga zo‘ravonlik qilish va begunohlarning qonini to‘kish uchun imkon berilgan bo‘ladi. Fuqaroviy itoatsizlikning zarur shartini faylasuf, shunday qilib, hammaning soliqdan bosh tortishida ko‘radi. Keyingi bosqich, Toroning fikriga ko‘ra, ish tashlash, davlat xizmatchilarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortishlaridir. Ana shunda tinchlik yo‘li bilan, qonsiz inqilob amalga oshadi. Lekin mazkur bosqichlardan avval har bir inson o‘zini axloqiy jihatdan tayyorlash bosqichini boshdan kechirishi, ya‘ni o‘z ongi va qalbida shaxsiy inqilob qilishi zarur. Faqat yuksak darajadagi axloqiy tayyorgarlikkina pirovard maqsadga ko‘ngildagidek etkazishi mumkin.

Biz axloqiy qarashlarini ko‘rib o‘tganimiz buyuk rus yozuvchisi, mutafakkir Lev Tolstoyning g‘ayrizo‘ravonlik masalasiga yondashuvi mazkur yo‘nalishning asl mohiyatini ochib berishga ko‘maklashadi. Buni biz uchun ma’lum ma’noda noyob bo‘lgan hujjatda – uning o‘zbek ziyolisi Ubaydulla Xo‘jayev bilan yozishmasida ko‘rishimiz mumkin. Har ikkala maktubni to‘liq keltiramiz:

Ubaydulla Asadullaxo‘ja o‘g‘lining

Lev Tolstoyga yo‘llagan maktubi

Hurmatli Lev Nikolayevich!

Men sizni bezovta qilishni xohlamasam-da, ushbu maktubim orqali o‘zim uchun shubhali tuyulgan «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi savolga javob olish uchun murojat qilishga jazm etdim. «Yovuzlikka yovuzlik qilmaslik» haqidagi gap so‘zsiz haqiqat ekanligini e’tirof etsam-da, quyida keltirilayotgan voqeadan keyin qanday harakat qilish lozimligini bilmayman. Yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslik nafaqat men amal qiladigan Islom dini va dunyoqarashiga, balki Injil va Tavrot talablariga ham to‘liq mos keladi. Menimcha, «yovuzlikka yovuzlik qilmaslik»ning asosida «Agar biror kishi qaydadir yovuzlik qilsa, bu bilan bitta yovuzlik sodir etiladi, agar men o‘sha yovuzlikka qarshilik qilsam va qasos olsam, tabiiyki, buning oqibatida bitta yovuzlik o‘rniga ikkita yovuzlik sodir etilgan bo‘ladi. Agar men qarshilik qilmasam, yovuzlik ko‘paya olmaydi va bittaligicha qoladi», - degan haqiqat yotadi. Shunday qilib, qarshilik va boshqa yo‘llar bilan yovuzlikni iloji boricha kamaytirish kerak degan xulosa chiqadi. Faraz qilaylikki, men qandaydir bir kishining butun bir uyni, shaharni yoqib yuborish, poyezd yo kemani halokatga uchratib, o‘nlab-yuzlab va minglab kishilarning halok bo‘lishiga olib kelishi kerak bo‘lgan katta yovuzlik qilmoqchiligidan xabardorman. Insoniy nuqtai nazardan qaraganda, men tayyorlanayotgan shu yovuzlikning oldini olish choralarini ko‘rishim lozim. Ammo buning uchun yovuzlik qilmoqchi bo‘lgan o‘sha kishini o‘zining qabih niyatini amalga oshirmasdan yo‘q qilmaslikdan boshqa choram bo‘lmas balki. Mening u yovuzni yo‘qotish bilan

qilgan yovuzligim o'nlab, yuzlab va minglab kishining qutqarilishi tufayli oldi olingan juda katta yovuzlik oldida hech narsa emas. Men o'zimning harakatimni yovuzlik emas, undan ham katta yovuzlikni oldini olishning yagona yo'li degan bo'lar edim.

Mening fikrim shunday ammo, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilmayman, shuning uchun ham uzoq ikkilanishlardan so'ng, tushuntirib berishingizni so'rab, Sizga murojaat qilishga jazm etdim.

Agar meni juda qiziqtirgan bu savolga o'zingizning shahringizni ravo ko'rsangiz, abadul abad Sizdan minnatdor bo'lar edim.

Mening turar joyim: Saratov shahri, Yurenkov uyi, huquqshunoslik bo'limi, Xo'jayev Ubaydulla Asadullayevichga. Sizga sidqidildan sodiq musulmon

Ub. A. Xo'jayev.

1909 yil, 28 may

Saratov sh.

Tolstoy javob maktubining ahamiyati shundaki unda yovuzlikning kattasi ham, kichigi ham yovuzlik; katta yovuzlikni yo'qotish uchun kichik yovuzlikdan kechishning o'zi insondan juda katta sabot, chidam va iroda kuchini talab etadi. Odamlarning asosiy ko'pchiligi hozirgi paytda ham Ubaydulla Xo'jayevga o'xshash fikrlash tarzi bilan yashaydi, chunki yovuzlikni yovuzlik bilan engish - eng oson yo'l. Lekin bunda yovuzlik bilan birga inson ham halok bo'ladi, insonni emas, yovuzlikni halok etgan holda insonni saqlab qolish juda og'ir ish. Tolstoy ana shu og'ir yo'l tarafdori.

Toro va Tolstoy g'oyalarini asrimizda Gandi va King yanada yuksak pog'onaga ko'tardilar. Gandi g'ayrizo'ravonlik g'oyasini muhabbat bilan bog'laydi va dushmanga ham mehrni darig' tutmaslikka chorlaydi. Gandi Xirosima va Nagasakiga atom bombasi tashlanganida, atom bombasini boshqa bomba bilan yo'qotib bo'lmagani kabi zo'ravonlikni zo'ravonlik qilib yo'qotish mumkin emas, degan fikrni bildirib, shunday deydi: «Insoniyat zo'ravonlikdan faqat g'ayrizo'ravonlik yo'li orqali qutulishi mumkin. G'azabni faqat mehr bilan engsa

bo‘ladi. o‘azabga g‘azab bilan javob berish g‘azabning yoyilishiga va kuchayishiga xizmat qiladi».

Martin Lyuter King ham xuddi shunday g‘oyani ilgari surar ekan, AQShning mashhur Prezidenti Linkoln hayotidan misol keltiradi. Nima sababdandir Linkolnni ko‘rarga ko‘zi yo‘q Stenton degan kishi saylovoldi kampaniyasida qo‘lidan kelgan yomonlik bilan unga qarshi kurashadi. Linkolnni har qadamda erga uradi, ming xil gunohda ayblaydi, masxaralaydi, hatto uning tashqi ko‘rinishi ustidan kuladi. Linkoln Prezident bo‘lib saylangach, harbiy vazirlik lavozimiga aynan ana shu Stentonni ko‘rsatadi. Atrofidagilar unga: «Janob Prezident, Siz xato qilyapsiz, u Sizning dushmaningiz, uning Siz haqingizda nimalarni gapirganini bilasizmi?!» deb qarshi turadilar. Shunda Linkoln bunday deb javob beradi: «Ha, janob Stentonni bilaman. Uning men haqimda nimalar deganini ham eshitganman. Lekin harbiy vazirlikka undan boshqa biror-bir loyiq amerikalik yo‘q». Oradan bir necha yil o‘tgach, Linkoln o‘ldiriladi. O‘shanda qabr ustida so‘zlangan barcha nutqlardan Stentonning nutqi alohida ajralib turadi. U Linkolnni eng buyuk insonlardan biri deb ta’riflaydi va: «Endi u mangulikka daxldordir», deb o‘z nutqini tugatadi. Agar Linkoln Stentonga g‘azab bilan qaraganda, ikkisi ham o‘lguncha bir-birining dushmani bo‘lib qolar edi. Linkoln mehr-muhabbat vositasida dushmanni do‘stga aylantirdi. U bir paytlar o‘ziga savol bergan ayolga savol bilan shunday deb javob bergan ekan: «Xonim, axir men o‘z dushmanlarimni do‘stlarimga aylantirish yo‘li bilan halok etmayapmanmi?!».

G‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligiga qisqacha to‘xtalib o‘tishimizning o‘zidayoq, biz bu yo‘nalishning kelajakdagi asosiy axloqiy ta’limotlardan biri bo‘lib qolishini ilg‘ashimiz mumkin. Shaxs, guruh, millat, xalqlar o‘z istaklarini, mavjud mustabid tuzum va hukumatdan noroziliklarini tinch yo‘l bilan bildirishlari hamda o‘z maqsadlariga zo‘ravonliksiz, qon to‘kmasdan erishishlari mumkinligi - insoniyatning ulkan yutug‘i. Chunki qonli kurashlar, inqiloblar, terror, qurolli qo‘zg‘olon singari hodisalar muayyan millat va mamlakat erishgan yutuqlarni yo‘qqa chiqaradi, o‘lim, vayronagarchilik, ma’naviy qadriyatlarning oyoqosti bo‘lishi singari ulkan fojialarga olib keladi.

Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidadir. Bu esa o'z navbatida har bir mamlakatda siyosiy va iqtisodiy o'sishga erishishda katta yordam berishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tildi. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Gender tenglik mavzusi ko'tarilganda "pozitiv diskriminatsiya" degan tushuncha ko'p tilga olinmoqda va muhokama qilinmoqda. Bu masala yuzasidan ayrim tushuntirishlarga ehtiyoj borligi ma'lum bo'lmoqda.

Pozitiv diskriminatsiya – bu kam sonli bo'lgan guruh yoki qatlamga alohida imkoniyatlar va kvotalar berish degani. U korxonada, ta'limda, ilmda va hokazo sohalarda gender tenglikka erishish uchun qo'llanadigan usuldir. Masalan, O'zbekistonda olim, muhandis, dasturchi, jarroh (va hokazo) ayollar kam. Ushbu sohalarda ayollarning ko'payishiga esa ehtiyoj mavjud. Shunday sharoitda qizlarni ushbu yo'nalishlarga ko'proq jalb qilib o'qitish, buning uchun ularga alohida shart-sharoitlar yaratish pozitiv diskriminatsiya hisoblanadi.

Jamiyatimizda davlat xizmatida gender siyosatini amalga oshirish uchun vaqtinchalik tarzda bir jinsdagi xizmatchilar uchun kvotalash tizimi joriy etilmoqda. YA'ni har bir davlat korxonasi va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar vakilligining mutanosibligi ta'minlanguncha vaqtinchalik jins kvotalari belgilanadi. Mutanosiblikka erishilgach, kvotalar bekor qilinishi mumkin. Kimdir

bizga bunday “chala tenglik”, “gibrid diskriminatsiya” nega kerak deyishi mumkin. Trampning pozitiv diskriminatsiyaga qarshi qilayotgan ishlarini misol keltirishadi ba’zilar. Boshqa jamiyatlarni bilmadim-ku, ammo an’anaviy o‘zbek jamiyatida pozitiv diskriminatsiyaga katta ehtiyoj mavjud. Chunki ayollarimizning ta’lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirishga ehtiyoj katta. Qolaversa, jamiyatimizda ayollar zimmasiga ortilgan maishiy majburiyatlar yuki ham og‘ir.

Albatta, ijobiy diskriminatsiyani gapirganda, bozor iqtisodiyoti shartlarini unutmash lozim. YA’ni gender tenglikni yaratamiz deb fuqarolarning huquqlariga ziyon etkazmaslikni e’tiborda tutish lozim. Masalan, gender tenglikka erishish, ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun ularning oyliklari saqlangan holda ish kunlarini bir soatga qisqartirish g‘oyasini olaylik. Bundan ayollar yutadilarmi? Yutqizadilar. Sababi, endi ish beruvchi ko‘proq erkaklarni ishga olishga harakat qiladi, chunki kam ishlab ko‘p oylik oladigan ishchi unga kerak emas va bu borada u haq. Ayolning o‘sha ishlamagan bir soatini kim to‘laydi? Shu masalani adolatli echmay turib ayollarga ish vaqtidan imtiyoz berish maqsadga muvofiq emas. Yoki ayollarga farzand parvarishi bilan mashg‘ul davri uchun to‘lovlarni ish beruvchi zimmasiga yuklar ekanmiz, bu bilan mehnat bozorida ularning qadri tushishi va imkoniyatlari kamayishini, raqobatbardoshligi yanada pasayishini o‘ylashimiz lozim.

Gender tenglikni ta’minlash haqida so‘z borar ekan, buning o‘ziga yarasha to‘lovi borligini e’tiborda tutish, budget taqsimoti va boshqa moliyaviy masalalarni echish jarayonida buni ham nazardan qochirmaslik lozim. Istaymizmi-yo‘qmi, gender tenglik faqat huquqiy maydonda echim topadigan masala emasligini tan olishimiz kerak.

Ko‘pchilik gender tenglikning uzoq yillardan beri shakllanib kelgan va an’anaga aylangan urf-odatlariga zid kelishi, ularning ildiziga bolta urishi va oilaviy munosabatlarga aralashib, ularni izdan chiqarishi to‘g‘risidagi xavotirlarini bayon etmoqdalar. Hatto feminizmning g‘arbga xos salbiy oqibatlarini misol keltirmoqdalar.

Ularni xotirjam qilish uchun ta'kidlash lozimki, bu masala oilaviy munosabatlarga aralashmaydi, hech kimni hech nimaga majburlamaydi yoki mavjud huquqlarni cheklamaydi. Faqat tomonlar uchun yangi huquqlar va imkoniyatlar taqdim etish orqali munosabatlarni muvozanatlash imkonini beradi. Undan foydalanish yo foydalanmaslik, albatta, tomonlarning o'zlariga havola.

Masalan, farzand dunyoga kelgach beriladigan ta'til borasida shunday deyilgan: "Ham ota, ham ona bola tug'ilishi munosabati bilan haq to'lanadigan ta'til olish huquqiga ega. Bolaga qarash bo'yicha ta'tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko'ra ular o'rtasida taqsimlanishi mumkin, bunda ota-ona ta'tildan qismlarga bo'lgan holda foydalanishlari mumkin". YA'ni ota va ona o'zaro kelishsalar, farzandga navbatma-navbat qarashlari mumkin. Bu, masalan, sessiya topshirmoqchi bo'lgan talaba qizlar, xorijga stajirovkaga ketishi lozim bo'lgan olim ayollar, uzoq vaqt mehnat faoliyatidan uzilishi natijasida malakasini yo'qotib qo'yishi mumkin bo'lgan kasb egalari uchun katta imkoniyat. Agar er-xotin o'zaro kelishib shunday qarorga kelsalar, gender tenglik masalasi buni qo'llab-quvvatlaydi va huquqni amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Gender tenglik oilada, jamiyatda turli illatlar, an'ana niqobi ostidagi ojizlarga zulm, ularning huquqini toptash holatlariga qarshi kurashadi.

Biz an'analar bilan yashaydigan xalqmiz. Lekin taraqqiyot istasak, qonunlar bilan ham yashashni boshlashimiz kerak. Urf-odatlar shunchaki urf-odat bo'lgani uchun emas, inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lagani, turmushini qulay qilgani, munosabatlarni uyg'unlashtirgani bilan qadrli. Ijobiy urf-odat va an'analarni insonni kamsituvchi va tahqirlovchi illatlardan farqlashda o'rtada faqat bir mezon turadi: inson shaxsi va uning huquqlari. Biz ko'zi ochiq millat sifatida bu farqni ajratib olishimiz lozim.

Gender tenglik to'g'risidagi qonun ijtimoiy-siyosiy sohalarda ayollarning rolini oshirish uchun zamin yaratadi. Hozirda jamiyatimizda "ilg'or ayol" obrazi tobora xiralashib bormoqda. Butun mamlakat bo'ylab bironta ayol hokim yo'q, oliy ta'lim muassasalaridan faqat bittasida ayol kishi rektorlik qilmoqda, ayol vazirlar va vazir o'rinbosarlari barmoq bilan sanarli, ayol elchilarimiz umuman

yo‘q (hatto urushdan endi chiqqan Afg‘onistonning ham xorijda 5 nafar ayol elchisi bor). Ayolga imkoniyat va vakolat berish, uni faollashtirish jamiyatni yanada rahm-shafqatli, insonparvar va ma‘rifatli qiladi.

4-MAVZU: DAVLAT XIZMATCHILARI ETIKASI VA IMIJI

REJA:

- 1. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg‘unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.**
- 2. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.**
- 3. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko‘rinishlari.**

Tayanch iboralar: Muomala madaniyati, ohang, ovoz, tanishish, tanishtirish, salomlashish, mulozamat, kiyinish madaniyati, garmoniya, garderob, aksesuar, did, moda, bo‘yinbog‘, ro‘molcha, ayollar, erkaklar, oyoq kiyim, qaddi – qomat, to‘g‘ri yurish, to‘g‘ri o‘tirish, bahs, uzr so‘rash, telefondagi muomalda, o‘zini tutish, noqulay holatlar, oila etiketi, xunuk odatlar, yig‘ilish, ishlab chiqarish munosabati, da‘vo, biznesmen etiketi, estetik anglash, estetik anglash tuzilmalari, estetik munosabat, estetik faoliyat, did, farosat, fahm, estetik tuyg‘u, estetik hissiyot, estetik did, badiiy did, ideal, estetik qarash.

Etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko‘zini quvontiradigan muomala hodisasi sifatida jamiyatdagi ma‘lum bir mavqega muvaffaqiyatli erishishning garovi tarzda ish ko‘radi. Zero kishilarning o‘zaro munosabati agar u ijobiy tus olsa, har qanday hoh u jamiyat yoki shaxs ravnaqi uchun bo‘lsin muvaffaqiyatli kechadi.

Inson jamiyatda o'zini odob nuqtai nazardan tutishi atrofda qilargilarda yoqimli taassurot qoldirish bilan, bir yo'la namuna hamda yashash tarzi yo'lining bir taklifi sifatida ish ko'radi.

Etiket atamasining o'zi G'arbdan kelgan bo'lib, O'rta asrlarda Yevropada nafaqat madaniyat belgisi balki, oddiy qora xalqdan oqsuyaklarni ajratib turuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Keyinchalik bir qator, g'arb mutafakkirlari, jumladan olmon faylasuflari, sal keyinroq - ruhiy tahlilchilar bunday tarzda «axloqdan» voz kechishni taklif etganlar. Zero o'ta sertakalluflik, faqatgina jamiyat oldidagi obro'si uchun qilinadigan yuzaki odoblar ikkiyuzlamachilik sifatida ham mulozamatni meyordan chiqargan va uni qabul qilgan insonga ham ruhiy jihatdan aksil ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada buyuk alolmalarimizdan hisoblanmish Imom G'azzoliy: o'zining «Kimyoi saodat» asarida: «Xabarda kelibdur, «Har kim yomon kishilar bilan vazmin bo'lsa, u ish sadaqadur». Abu Dardo roziyallohu anhu aytibdurlar: «Aksariyat odamlar bor, o'z obro'yini yomonlarning tilidan saqlaydilar. Men ham alarning yuziga kulib qarayman. Ammo mening dilim ul kishiga la'nat aytadur»². Odamlarning yomonidan qo'rqib, uni aytganini qilgandan ko'ra, uning qalbiga til topib o'z ta'siringizni o'tkazish bilan yaxshi yo'lga boshlagan ma'qul. Zero o'ta «to'g'rilik» ham qo'polikka sabab bo'lishi mumkin.

G'arbda ko'proq o'zini tutish deganda – etiket sifatida – hatti-harakatlar nazarda tutiladi. Ammo Sharqda qalbdagi «etiket» birlamchi vazifani o'taydi. Bu degani Sharqda etiket bo'lmagan, degan ma'noni bermaydi. Azal-azaldan odob masalasi birlamchi vazifa sifatida muhim hisoblangan. qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar odob va kishilar o'rtasidagi mulozamat, muomala borasida alohida to'xtalib o'tganlar.

Odamlarning bir-birlari bilan munosabatda bo'lishlari etiket qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Ularning bir-birlari bilan munosabatga tushish madaniyatiga etiket, munosabat qilish qoidalariga esa etiket qoidalari deyiladi.

Etiket tushunchasi fransuzcha «etiquette» so'zidan olingan bo'lib, rus tilida etiketka, o'zbek tilida esa yorliq degan ma'noni bildiradi. Hozirgi vaqtda

barcha tillarda etiket soʻzi qabul qilingan. Etiket tushunchasining oʻziga yarasha kelib chiqish tarixi bor. U shunday: Fransiya qiroli Lyudovik XIV tantanali qabul marosimlaridan birida mehmonlarga «oʻzini tutish qoidalarini» deb yozilgan kartochka beradi. Kartochka esa etiketka deb nomlangan. Vaqtning oʻtishi bilan etiketka soʻzi etiket soʻziga va unda yozilgan qoidalar esa etiket qoidalariga aylangan va bugungi kungacha uning maʼnosi oʻzgartirilmasdan ishlatiladi. Masalan, rus tili lugʻatida etiket-bu qandaydir jamiyatda oʻzini tutish (yurish-turishning) belgilangan tartibi va muomala qilish shakli deb taʼriflangan.

Jamiyatda shakllangan etiket qoidalarini axloqiy meyorlar deyiladi. Bugungi kunda jamiyatdagi axloqiy meyorlar uzoq vaqt davomida odamlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning ijobiy natijasi hisoblanadi. Bu qoidalarga itoat qilish davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabat qilish garovi boʻlib xizmat qiladi, chunki bir-birini hurmat qilmasdan va boshqa davlatlarga nisbatan oʻzini tutish chegaralarini saqlamasdan birga tinch-totuv yashash mumkin emas. Bundan tashqari etiket qoidalariga rioya qilish bozor iqtisodiyoti davrida turli dinlarga itoat qiladigan turli millat vakillarining, jamiyatimizda paydo boʻlgan turli tabaqali guruhlarining va har xil dunyoqarashdagi kishilarning tinch-totuv yashash garovi boʻlib xizmat qiladi.

Etiket qoidalariga nafaqat davlatlar oʻrtasida, jamiyatning har bir aʼzosi va kasb guruhlari aʼzolari tomonidan ham rioya qilinishi lozim. Oʻzini madaniyatli hisoblaydigan har bir kishi etiket qoidalarining asosiylarini nafaqat bilishlari, ularga itoat qilishlari ham lozim, chunki muomala qilishda oʻzini tutabilish va toʻgʻri xatti-harakat qilish aloqa qilishni osonlashtiradi, bir-birlarini tezroq tushunish uchun imkoniyat yaratadi, barqaror aloqa oʻrnatish garovi boʻlib hisoblanadi.

Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, madaniyatli va tarbiya koʻrgan har bir odam hech qachon jamiyatda oʻrnatilgan tartibni oʻzining soʻzi va yurish-turishlari va xatti-harakati bilan buzmaydi, boshqalarni xafa qilmaydi. Madaniyatli kishi nafaqat rasmiy marosimlarda, uyda ham etiket qoidalariga itoat qiladi. Afsuski, etiket qoidalariga uyda itoat qilmaydigan odamlar koʻp uchrab turadi: ular odamlar

bilan boshqa, uyda esa umuman boshqa munosabatda bo'lishadi, masalan, boshqa odamlar, do'stlari va qo'lostidagilar bilan xushmuomalali, uyda esa qo'pol va odobsiz munosabatda bo'ladi. Ularning bunday ikkiyuzlama yurish-turishlari va o'zini tutishlari faqat madaniyatsizligidan darak beradi.

Hozirgi zamon etiketi odamlarning turmushda (uyda), xizmatda, jamoat joylarida, ko'chada, mehmondorchilikda va rasmiy tadbirlarda o'zini tutish va harakat qilish qoidalarini belgilaydi. Shuning uchun ham etiket barcha xalqlarning asrlar davomida yaxshilik, odillik va odamgarchilik to'g'risidagi tasavvurlari bo'lib, umuminsoniy madaniyatning eng yirik va muhim qismi hisoblanadi.

Kasbiy etiket- bu kasbi bo'yicha birlashgan guruhlar a'zolarining bir-birlariga nisbatan, rahbar xodimlar va ularga bo'ysunadigan kishilar o'rtasidagi hamda o'z kasbiy burchiga nisbatan o'zini tutish va xatti-harakat aqilish qoidalarini o'z ichida oladi. Shundan kelib chiqqan holda xo'randalarga xizmat ko'rsatadigan kasb guruhlarining etiketi korxonada ishlaydigan kasb egalarining bir-birlari bilan o'zaro, korxonah rahbar xodimlari va mutaxassislarining ularga bo'ysunadigan kishilar bilan hamda korxonah xodimlarining va mutaxassis-rahbar xodimlarining aholi va sayyohlarga munosabat hamda o'z kasbiy burchi qoidalaridan iborat.

Ko'rsatilganlardan tashqari kasbiy etiket qoidalari, kasbiy ish kiyimlariga, o'zlarining tashqi ko'rinishlariga va so'zlashishlariga qo'yiladigan estetik talablarni ham o'z ichiga oladi.

Kasbiy etika kategoriyalarining asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- kasbiy burch;
- vijdon (diyosat);
- or-nomus;
- obro'

Har bir odamning Vatani va o'zi yashayotgan jamiyat oldida burchi bo'ladi. Burch-bu kishining biron shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha bo'lib, etika kategoriyasining eng asosiysi

hisoblanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalarini, ya'ni tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini belgilaydi. Burch, qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi: ijtimoiy va shaxsiy burch, oila, ota-onalik burchi, farzandlik burchi, fuqarolik burchi, Vatanni himoya qilish burchi va boshqalar.

O'zbekiston fuqarolarining fuqarolik burchlari O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyaning 47-52 moddalarida (XI bob) ko'rsatilgan. Masalan, Konstitutsiyaning 52- moddasida «O'zbekiston Respublikasini himoya qilish- O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan harbiy va muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar» deyilgan.

Burch, shu jumladan kasbiy burch, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan esa o'zgarib boradi. Masalan, oxirgi yillarda tabiatda sodir bo'layotgan halokat va fojialar tabiatdan oqilona foydalanish va uni kelajak uchun saqlab qolish odamlarning atrof- muhit va kelajak avlod oldidagi burchlariga umuman yangicha mazmun kasb etadi va jamiyat a'zolari oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi. Ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish O'zbekiston fuqarolarining, respublikaning o'z mustaqilliligiga erishishi munosabati bilan eng ulug' va sharaflil burchga aylanib bormoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashib bormoqda.

Kasbiy burch - bu kasb sohiblarining boshqa odamlar va jamiyat oldida o'zlarining kasbiy majburiyatlarini sezish hissidir.

Inson tug'ilishidan boshlab yo'rgaklanadi. Yo'rgakka kirgan dastlabki kunlardan oq kiyina boshlaydi. Kiyim insonning suratini emas, balki uning butun ichki dunyosini siyratini ham ko'rsatadigan omildir. Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri ham, bu - kiyinish odobidir. Kimning qanday kiyinishiga qarab, uning did - farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, xatto kasbini ham aniqlab olish mumkin. Kiyinish madaniyati, kiyinish odobi kishilarning o'zaro muomalasiga, bir - biriga bo'lgan munosabatiga, yurish - turishiga ham ta'sir qiladi.

Lekin kiyinish haqida aniq bir andaza mavjud emas. Kiyim uchun olinadigan turli narsalarning har biri kishining didi, bo'y(basti, yoshi, moddiy imkoniyatlari hamda jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq. Inson kerak bo'lmagan haridlardan asrash uchun doimo o'zini boshqarib turishi lozim va yangi narsalar uyingizda mavjud bo'lgan kiyimlarning uslubiga, gazlamaning rangiga mos keladimi - yo'qmi, uni boshqa narsalar bilan kiysa bo'ladimi, va h.k. larga e'tibor berishi lozim.

Kiyinish shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, hamma vaqt go'zallik, uyg'unlik, noziklik, odob, xushmuomalalik, odamshivandalik haqidagi tushuncha darajasining belgisidir.

Insonning tashqi go'zalligi kiyim rangining bir – biriga mosligidir, tabiiyligi va soddaligidadir. Xushbichim va chiroyli kiyinishning ma'nosi nimada? Ko'zga tashlanmaydigan hamda kishiga tabiiy go'zallik beradigan va uning ayrim kamchiliklarini bilintirmaydigan ust – bosh, chiroyli, xushbichim, gavgaga, yoshiga va faslga mos kiyim kiyishdir.

Kiyim ma'lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go'zallik haqidagi qarashlari mujassamlashadigan moda bilan bog'liq. Kishilik jamiyati rivoji jarayonida bu qarashlar o'zgara boradi, shu munosabat bilan moda ham uzluksiz o'zgarib turadi. O'zbek xalqining milliy madaniyati, urf – odatlari asrlar davomida davr va sharoitga, jamiyat taraqqiyotiga moslashib o'zgarib kelgan. Tarixga aylangan kiyim va liboslarni qanday kiyish urfi va qoidalari deyarli istisnoli jihatlardagina o'z kuchini saqlab qolgan. Ammo odamlar kiyimlarni tanlashda va ixtiro qilishdan toyganlari yo'q. Aksincha zamonaviylikka bo'lgan talablar oldingi davrdagiga nisbatan ancha ilgarilab ketdi.

Yaxshi kiyinish o'ziga xos san'at. Kishi bu san'atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay, o'z didini ham tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlari meyor, va o'zaro mos tushunchalarga asoslangan san'atning barcha turlari bilan tanishib borishi lozim.

Zehn bilan tanlangan orasta libosining egasining didini yaxshiligini bildiradi. Ko'ylak javoni to'la bo'lmasdan turib ham did bilan kiyinish mumkin. Yangi chiqqan zamonaviy libos ketishdan quvish emas, balki siz uchun zarur

bo'lgan narsa haqida o'ylab ko'rgan ma'qul. Zamonaviy moda matoning turlarning yangiligi bilan ham belgilanadi.

Estetik anglash estetik jarayonni tashkil etishi barobarida estetik munosabatni yuzaga keltiradi, ongningana shu faoliyati ichki nafasni shakllantiradi. Shunga ko'ra nafas - o'z ichiga ham tabiatdagi, ham jamiyatdagi, ham shaxs hayotidagi estetik jihatlarni o'zida mujassam qiladigan estetik munosabat obyektini sifatida estetik xususiyatlarni, estetik faoliyatini va estetik anglashni qamrab oladigan, yashash sharti subyektiv xilma-xillik bilan belgilanadigan murakkab, maqsadni emas, balki serqirra maqsadga muvofiqlikni birinchi o'ringa qo'yadigan hissiy-intellektual borliq, inson hayotining insoniy mazmunini ta'minlaydigan ma'naviy-ijtimoiy hodisa.

Quyidalar estetik anglash tuzilmasidagi asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan barcha estetik hodisalarning asosi sifatida ham tabiiy-biologik, ham ijtimoiy-ma'naviy mohiyatga ega: «go'zalnafs», nafasga tashnalik insonda estetik hissiyotni qo'zg'atish xususiyatini saqlab qolgan holda keyinchalik uning butun umri mobaynida takomillashib boradi, estetik muhokama, estetik baho, estetik didva estetik idealning shakllanishiga xizmat qiladi.

Estetik hissiyot. Goh estetik kechinmaning, goh estetik hayajonning sinonimi tarzida talqin qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to'g'ri emas. Chunki hayajon ham, kechinma ham bitta tuyg'udan emas, tuyg'ular silsilasidan iborat bo'ladi, shu sababdan uni ko'plikdagi hislar yoki hissiyot shaklida qo'llash maqsadga muvofiq.

Estetik qiziqish hissi sog'inch va qo'msashdan farqi o'laroq o'tmishda ro'y bergan hodisani emas, balki ko'p hollarda kelajakda, tez muddat ichida ro'y berishi lozim bo'lgan voqelikni nazarda tutadi, unga intiladi; intilish jarayoni esa «uchrashuv»ga tayyorgarlik degani.

Estetik quvonch hissi inson subyekt obyektini ko'rgan paytda, deylik, go'zallikka duch kelganida uni ichki bir quvonch qamrab oladi. Estetik quvonch subyektini kuzatuvni davom ettirishga da'vat etadi va obyektini hissiy o'rganish uchun unga muayyan kayfiyat, ruh beradi.

Estetik zavq- faqat estetik obyektning idrok etishdagina emas, balki ana shunday obyektlarni yaratishda ham ilhom shaklida ishtirok etadi: zavq bilan ijod qilingan asar zavq bilan idrok etiladi. Lazzat bilan zavq o'rtasidagi farq shuki, lazzat ko'proq tashqi nimaningdir subyekt ichiga kirishi bilan belgilansa, zavqda subyekt obyektning ichiga kirib boradi. Estetik mushohada muayyan narsa-hodisaning idrok etayotgan kishi tomonidan tanlangan rakursda olib qaralishini ta'minlovchi fikriy faoliyat. Unda subyektning estetik ehtiyoji, hissiyoti hayotiy tajriba mobaynida vujudga kelgan estetik yo'nalmasi birinchi o'rinda turadi.

Estetik qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi. Registon me'morlik majmui, «Shashmaqom», Navoiyning «Xamsa»si, Rafaelning rang-tasviri, Shekspir asarlari — bular hammasi estetik qadriyatlardir. Estetik qadriyatlar sof ma'naviylik, ya'ni intellektual — hissiy jihati bilan birga, ma'naviylik va moddiylikning omuxtas sifatida namoyon bo'ladi.

Estetik bahoning muhim xususiyati shundaki, u estetik anglash tuzilmasi ichidagi eng qamrovli, eng miqyosli ta'sirga ega. U ma'lum ma'noda estetik anglashning deyarli barcha unsurlari uchun mezon vazifasini o'taydi.

Did - tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, xis-hayajon, subyektiv baxolash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik didni —insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutamiz. Estetik idealning o'zgarishi albatta didning o'zgarishiga olib keladi. Estetik did tarbiyasining asosan uchildizi mavjud. Ular - go'zallik, san'at va badiiy ijod. Did yagona, mutlaq estetik hodisaemas, u hammuayyannisbiyliktabiatigaega. Bu borada uning to'rt xil darajasi haqida fikr yuritish mumkin, bu darajalar odamlarning mavqei, saviyasi, madaniylik toifasi bilan bog'liq.

Estetik ideal-bir tomondan, didni belgilab bersa, ikkinchi tomondan, estetik did estetik idealning amaldagi ko'rinishidir. Idealning murakkab tomoni shundaki, u qadriyat bilan bog'liq. Qadriyat idealning obyektidagi in'ikoi tarzida namoyon

bo'ladi. G'oyalar o'ta mafkuraviylashtirilsa ideal o'rnida aks ideal paydo bo'ladi. Estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi.

IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-Mavzu: "Etika" va "Estetika" fanini o'qitishning zamonaviy usullari va uslublari.

Vatanimiz mustaqillikka erishgunimizga qadar esa bizda ratsionalistik falsafaning ham faqatgina bir shakli, ya'ni markscha-lenincha falsafa fani mutloq haqiqat sifatida o'qitib kelingan edi. O'qitish uslublari va uni tashkillash shakllari ham shunga moslashgan edi. Demak, endilikda biz totalitar sotsializm sharoitida juda cheklab qo'yilgan o'z falsafiy tafakkurimizni, bir tomondan, o'tmish mafkurasi tomonidan unuttirilgan, siqib chiqarilgan o'z o'tmish milliy falsafamiz mazmunini eslab olishga va uni zamonamizga muvofiqlashtirgan holda qayta tiklash va rivojlantirishga, ikkinchi tomondan, yuqorida qayd etilgan jahon falsafiy madaniyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni chuqur tahliliy va tanqidiy o'rganib chiqib, ularni o'z dunyoqarashimizni kengaytirishga jalb etishimiz, uchinchi tomondan, shu yuqoridagilar asosida o'z yangi milliy falsafamiz

asoslarini ishlab chiqishga, to'rtinchi tomondan, shu jarayonlar bilan barobar falsafa qatorida etika va estetikani o'qitish ishlarini olib borishga qaratishimiz kerak.

Boz ustiga hozirgi paytda falsafa darslarini bizning tinglovchilarimiz juda qisqa vaqt oralig'ida, masalan, 24 soatlik ma'ruza va 26 soatli seminar mashg'ulotlarida o'zlashtirishi kerak bo'lmoqda. Etika va estetika fanlarini esa 6 soatdan, ya'ni 12 soat ichida o'rgatish va o'rganish kerak bo'ladi. Bu vaqt ichida biz tinglovchilarni ham o'z o'tmish milliy axloqiy, estetik qadriyatlari bilan, ham jahon falsafasi mazmunida sodir bo'lgan yirik o'zgarishlar bilan, ham shakllanaboshlagan yangi falsafaning o'z asosiy mavzulari bilan, ham milliy g'oyamiz-mafkuramiz mazmuni bilan chuqur tanishtirishga ulgurish yo'llarini izlashimiz kerak.

Yana boz ustiga bizni tinglovchi auditoriya qadimgi falsafani o'rgatishdagi kabi hikmatni sevgani uchun asl elitar falsafani bilishga qiziqadiganlardan emas, aksincha, totalitar sotsializm mafkurasi davridagi safsatabozliklar tufayli obro'sizlangan falsafa qiyofasini esda saqlab turganlarni farzandlari ekanini ham hisobga olishimiz joiz.

Hozirgi davrda etika va estetikani o'qitishning yana bir murakkabligi shundaki, uni o'rganadigan insonlar tabiatida ham katta tezlik bilan murakkab o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. YA'ni, biz bugungi tinglovchilar butun insoniyat ma'naviyatida sodir bo'lgan global ma'naviy inqirozning aksu sadosi ekanini ham hisobga olishimiz joiz. Ma'lumki, ushbu jarayon biz totalitar sotsializm davridagi yopiq jamiyat sharoitidan chiqqan va G'arb falsafasining O.Shpengler, X.Ortega-i-Gasset, K. Mangeym, X. Arendt, T. Adorno, M. Xorkxeymer, V. Benyamin va G. Markuze kabi taniqli faylasuflari salbiy mohiyatini aniq yoritib bergan ommaviy madaniyatning yopirilib kirib kelishi uchun qulay bo'lgan ochiq jamiyat, axborot xaosi, globallashuv, shuningdek, mafkuraviy xurujlar sharoitida ayniqsa katta xavf tug'dirmoqda. Bu hol mazkur sharoitda yoshlarni aslida elitar madaniyat bo'lib kelgan falsafiy madaniyat ruhida tarbiyalashni, asl barkamol avlodni etishtirish ishini beqiyos

murakkablashtiradi. Bu hol bo'yicha davlatimiz rahbari o'z bezovtaligini juda ko'p marta ta'kidlagani bizga yaxshi ma'lum. Xususan, prezidentimiz yoshlarni ochiq axborot olish davrida hukm surayotgan umumbashariy ma'naviy krizisdan asrash muammosiga deyarli barcha asarlarida alohida e'tibor qaratgan. Masalan, "...keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik, - deb yozadi I.A.Karimov. - Bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko'radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to'polonlarni tomosha qilishga moyil... Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vaxshiylik, ur-yiqit instinkglari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi."

Uchinchi tomondan, hozirgi davrda falsafa, etika va estetikani o'qitishda barcha fanlarni o'qitishda bo'lgani kabi yangi uslubiyatni qo'llash, ya'ni innovatsion metodlardan foydalanish talab etilmoqda. YA'ni biz shakllanishi hali o'z nihoyasiga etmagan etika va estetika fanlarini yangi uslubiyat asosida o'qitish muammolari ustida ham ishlashimiz zarurati ko'ndalang bo'lmoqda.

Mazkur shart-sharoitdan kelib chiqilsa, hozirgi kunda ta'lim yurtlarida mazkur fanlarni o'qitish naqadar murakkab ish ekani ko'rinadi. Shunga ko'ra falsafadan mutaxassis bo'lish hozirgi davrda nihoyatda qiyin va mas'uliyatli, ayni paytda juda sharafli va mas'uliyatli ishdir. Lekin bu sharaf faqat o'qituvchining o'z vijdoni va uni tushunib eta olgan ayrim tinglovchilardan boshqalarga sezilmaydigan beg'araz sharafdir.

Ana shu sharafga sozovor bo'lish uchun dastavval dars o'tish jarayoni haqida umumnazariy tasavvurga ega bo'lishimiz muhimdir.

2. O‘zbekistonda Etika” va “Estetika”ni qiyosiy o‘rganish muammolari.

Oliy o‘quv yurtida ishlovchi professor, dotsent, assisentlarning eng asosiy vazifasi – tinglovchilarni o‘qitishdir. O‘qitish jarayoni haqida ikki hil tasavvur shakllangan bo‘lishi mumkin. Birinchisi, Subyekt-obyekt orasidagi munosabat tarzida ifodalansa, ikkinchisi Subyekt-subyekt orasidagi munosabat tarzida ifodalanadi. Birinchi holda o‘qituvchi tinglovchilarga informatsiyani qabul qiluvchi obyekt sifatida qarasa, ikkinchisida u bilan bevosita muloqat qiluvchi, ya’ni hamsuxbat sifatida qaraydi. Albatta, ushbu fanlardan dars o‘tishning eng yaxshi shakli birinchisidir.

Metodikadan ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra go‘yo dars o‘tishning ikkinchi shakli yangi bo‘lib, birinchisi eski, an’anaviy ekan. Bu fikrni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Chunki, avvalo, barcha davrlarda har ikki shaklni ham qo‘llashning davr va shart sharoitlar bilan taqozalanadigan hamda o‘qituvchining o‘z holatidan kelib chiqadigan (ya’ni obyektiv va subyektiv) sabablari bo‘ladi. Shu ma’noda bu masala tahliliga konkret yondoshuv zarur.

Masalan, subyekt-obyekt munosabati 1) tinglovchilar guruxida tortinchoq, nofaol yoki bilim saviyasi juda sayoz tinglovchilar ko‘pchilikni tashkil etadigan holda; 2) o‘qituvchining o‘zi ma’ruzani bemalol o‘qiy oladigan tajriba va bilimga ega bo‘lmagan holda 3) o‘quv mavzusi va materiali juda yangi, hali har tomonlama o‘rganilmagan, endigina o‘rganila boshlangan holda bo‘lishi ham mumkin. Shu kabi hollarda barcha davrlarda, ayniqsa, bugungi kun darslarida subyekt-obyekt munosabati qaror topishi tabiiy. Lekin bundan, birinchidan, etika va estetika darslarini hamisha shunday o‘tish kerak, degan xulosani chiqarishga ham shoshish kerak emas. Ikkinchidan, shunday hollarda ham, ya’ni subyekt-obyekt doirasida dars o‘ta turib ham bunday darslar ichida ham subyekt-subyekt munosabatlari tarzini ham imkon boricha, fragmentar ravishda bo‘lsa ham kiritib turish mumkinligini hisobga olish joiz.

Aksincha, subyekt-subyekt tarzida dars o‘tilishida, o‘qituvchi asosiy subyekt bo‘lishi, tinglovchilar esa unga nisbatan muayyan darajada obyekt bo‘lishlari ham tabiiy. Masalan, falsafadan dars berishning eng yuksak namunasi hisoblanmish

Platonning barcha dialoglarida Suqrot o'z shogirdlari bilan baxs (dialog) olib borarkan, ya'ni subyekt-subyekt tarzida muloqot olib borarkan, ushbu muloqotlarning katta qismida, ayniqsa asosiy g'oyalar muhokamasi va xulosalarida Suqrot monologlari katta o'rin egallaganini ko'ramiz. Vaholanki, Suqrotning shogirdlari, bizning dastlabki darslarda falsafa nimaligini tasavvur ham eta olmaydigan holda darsga kiradigan, masalan, huquqshunos bo'laman deb, kirish bali etmagani uchungina boshqa fakultetga kirib, shuning bilan birga na o'z soxasini va na falsafani bilishga qiziqish bilan qaray olmaydiganlarlardan ham tashkil topishini hisobga olishga to'g'ri keladi.

Shularning hammasiga qaramasdan, hozirgi kun talabasiga o'qituvchi ham obyekt, ya'ni bilimlari uzatilayotgan va o'zi o'zgartirishi kerak bo'lgan obyekt sifatida ham, o'zi bilan teng muloqotga haqli subyekt sifatida ham yondoshuvi maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davr falsafiy darslarining yuksak ekzistensial ma'nosi ham shunda, ya'ni talaba bilan tengday, ayni vaqtda undan ustun ustoz darajasida tura bilishdadir. Bu vaziyatda turish tajribasiz va falsafiy-nazariy bilimi sayoz o'qituvchi uchun juda qiyin va qaltis ish. Shuning uchun ham bu hollarda ko'pchilik yosh o'qituvchilar subyekt-obyekt variantida ish yuritadilar. Ushbu variantni ishning boshlanishida, uning ayrim qismlarida qo'llashni uzurli hisoblash mumkin bo'lsa hamki, uni mutloqlashtirish yaramaydi. Chunki bugungi kun talabasi garchi chuqur nazariy bilish ko'nikmalariga erisha olmagan bo'lsa hamki, keng axborot omboriga egaligi jixatidan o'z o'qituvchisidan ustun kelishi qiyin emas. Ayni shunday hollarda uning bilan subyekt-subyekt, ya'ni falsafiy suxbatlarning "tengxuquqli partneri" sifatida muloqatda bo'lish foydali bo'ladi.

Hozirgi davrda o'qitishga bo'lgan umumiy talablar: Hozirgi davrda umuman har qanday predmetdan dars o'tishga oid tan olingan sakkizta talab borki, bugungi kunda ularga rioya etish zarur hisoblanadi:

1. Talabaga informatsiyani kiritib qo'yish kerak bo'lgan obyekt (idish) sifatida emas, balki shaxs (subyekt) sifatida, ya'ni shakllangan, o'z fikr va muloxazalariga, e'tiqodi, qarashlari, intilishlari, irodasi, xarakteri va h.k. ega bo'lgan subyekt sifatida qarash.

Ushbu talab dars o'tishda o'qituvchi o'z qarashlarini talabaning o'zida mustaqil shakllanib bo'lgan dunyoqarashning o'rniga, uni yo'q deb hisoblab yoki o'chirib tashlab emas, balki uning uchun qadrlil bo'lgan qarashlar va ta'limotlar bilan muvofiqlashuvini nazarda tutib, unga payvand qilish tarzida ish yuritishini taqozo etadi. Buningdarsning zaruril maqsadiga, ya'ni talabaning darsga faol ijobil munosabatda bo'lishiga erishish mumkil emas. Dars o'tishning yangi interfaol metodlari haqida gap ketganida hozirli davrda o'qituvchidan ayni shu vaziyatni nazarga olish talab etilayotgani anglashiladi.

Lekin, hozirli sharoitda buni amalga oshirish juda qiyin. Bu qiyinchiliklarning o'z obyektiv va subyektil sabablari bor. Obyektiv sabablardan eng asosiysi shundaki, biz odatda juda katta (50, 60 va undan ortiq) tinglovchilarga (potoklarda) ma'ruzalar o'qishimizga to'g'ri keladi. Shuning uchun subyektil-subyektil munosabatlari tarzida dars o'tishni seminar mashg'ulotlarigagina tatbiq etish mumkil bo'ladi. Ammo seminarlarimizda ham odatda kamida 30 va undan ortiqroq tinglovchilar qatnashadi. Shuning uchun har bir talabaning dunyoqarashi bilan konkret muloqot qilish uchun sharoit bo'lmasligi tabiil.

Vaholanki, "Ommaviil madaniyat"ning yoprilil kiril kelishi uchun qulay bo'lgan hozirli ochil jamiyat, axborot xaosi, globallashuv va global ma'naviil krizis, shuningdek, mafkuraviil xurujlar sharoitida yashayotgan ekanmiz, va ayni shu kunlarda barkamol avlodni tarbiyalash ko'zda tuilgan ekan, bizga chet tillarini o'qitadigan o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoit, xatto undanda qulayroq sharoit zarur. Lekin iqtisodil krizis avj olib turgan sharoitda biz hozirgidan qulay va ortiqroq sharoit kelishini kutil ham tura olmaymiz. Yuqoridagi mulohazalardan o'qitish jarayoniga nisbatan ikkinchil talab kelil chiqadi.

2. Bu bor sharoitdan iloji boricha yaxshi foydalanishga xarakat qilish talabidir.
3. Uchinchil talab o'qituvchining o'ziga tegishli. O'qituvchining talaba bilan baham ko'rmoqchil bo'lgan bilimlari uning o'ziga yaxshi tushunarli va ma'qul kelgan bo'lishi, bir so'z bilan aytganda uning o'zidan kelil chiqadigan bo'lishi zarur.
4. Bundan esa to'rtinchil talab ham kelil chiqadi. Bu o'qituvchining o'zi ham qandaydir yot informatsiyani talabaga uzatuvchil oddil bir avtomat (radio,

kompyuter, teleekran va h.k.) emas, balki o'zi o'tadigan dars mavzulari bo'yicha o'z fikr va qarashlariga ega bo'lgan, o'z g'oya va maqsadlarini mustaqil shakllantirish, ifodalash oladigan va dars o'tish uslublarini tanlay olish iqtidoriga ega bo'lgan erkin va ijodkor shaxs bo'lishi talabidir.

5.Navbatdagi talab o'qitishning kommunikativ-axborot jixati deyiladi. Bu talab o'qituvchining tinglovchilarga bermoqchi bo'lgan bilim va axboroti ko'pchilikni qiziqtiradigan, jalb etadigan ravishda tashkillanishi kerakligini bildiradi.

6.Oltinchi talabga ko'ra o'qituvchi o'z tinglovchilariga dars jarayonida o'zi bilan erkin fikr almashinuv, muloqot qilish uchun imkoniyat yaratishini taqozo etadi. YA'ni o'qituvchi o'z tinglovchilarining dars mavzusi bo'yicha o'ziga savollar bilan erkin murojaat qilishlari, kerak bo'lsa, o'z fikr va muloxazalarini bildirishlari uchun sharoit yaratishi va shunga rag'batlantirishi kerak.

7.O'qituvchi dars materiallarini o'z tinglovchilarining o'zlashtirishlari uchun tegishli obyektiv va subyektiv sharoitlari mavjudligini hisobga olgan holda tanlashi va tashkillashi maqsadga muvofiq.

8.O'qituvchi o'ziga talaba ko'zi bilan qaray bilishi, ular orqali o'z nuqsonlarini payqashdan qo'rqmasligi va, kerak bo'lsa, o'zini o'zgartirishi joiz. Buning uchun u har bir talabani shaxs sifatida ko'ra olishi, ularning izzat nafsigaga tegmaslika harakat qilishi zarur. Shunday bo'lib qolgan hollarda esa u o'z xatosini tezda tuzatishi zarur.

Etika va estetikadan ma'ruza o'qish, bir vaqtning o'zida birqancha vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ulardan eng muhimlarini bilish ma'ruzani o'qishda qanday uslublarni (metodlarni) qo'llash maqsadga muvofiqligini belgilab olishga yordam beradi. Vazifalarning eng birinchisi, albatta, talaba uchun noma'lum bo'lgan va talaba mustaqil erishishi qiyin yoki mumkin bo'lmagan muayyan axborotni (informatsiyani), muhim nazariy g'oya va qarashlarni unga bevosita etkazib berishdir. Ma'ruzaning ikkinchi vazifasi mazkur mavzu materialini talaba ko'r-ko'rona o'zlashtirishiga emas, balki ongli qabullashiga erishishdir. Buning uchun falsafa o'qituvchisi talabada axborotni mustaqil tahlil etish, fikriy izlanishni amalga oshirish ko'nikmalarini

tarbiyalashi kerak. Ma'ruzaning navbatdagi, eng oliy vazifasi talabada ijodiy fikrlash qobiliyatini hosil qilish bo'ladi. Buning uchun ustoz talabaga falsafiy qarashlar orasidagi ziddiyatlarni payqash, ularga nisbatan o'z munosabatini shakllantirish va ifodalash va, iloji boricha, o'z xulosalarini oldinga surish kabi mustaqil, ijodiy mushohada ko'nikmalarini shakllantirishi kerak.

Mazkur vazifalarni bajararkan, pedagog ma'ruzaning turli qismlarida turlicha uslublarni qo'llaydi va dars vaqtida talaba faoliyatini ham shunga muvofiqlashtiradi. Ma'ruzaning birinchi vazifasini amalga oshirisharkan, u talabadan axborotni passiv va to'liq qabullashi kerak bo'lgan tinglovchi holatida bo'lishni talab qiladi. O'zi esa asosan axborotni talabaga iloji boricha bekamu ko'st etkazish, tushuntirish, izohlash, namoyon etish kabilar bilan cheklanadi. Bu, masalan, fanda oldinga surilgan muhim, o'zgarmas prinsiplar, paradigmalar, shakllangan g'oya va qarashlar, ta'riflar, muhim talqinlar, qonunlar, faktlar va darsga oid muhim davlat xujjatlari kabilar bo'lishi mumkin.

Ma'ruzaning boshidan oxirigacha faqat shu metodni qo'llashning o'qituvchi uchun ham, talaba uchun ham qulay jixatlari ko'p. Uning talaba uchun qulayligi shundaki, 1) talaba o'zini hech zo'riqtirmasdan tayyor axborotni qabul qilib oladi (yoki, umuman, qabul qilmaydi); 2) talaba o'qituvchidan, o'zi qabul qilishi mumkin bo'lgan boshqa axborot manbalardan farqli o'laroq, ancha sifatli, ya'ni o'qituvchining sinovdan o'tgan tajriba, tahlillariga asoslangan, eng dolzarb, muhim jixatlari ajratib olingan, umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan materialni qabul qiladi; 3) mavzu bo'yicha material tanqis xollarda bu ayniqsa qulay...

Ushbu metodning o'qituvchi uchun qulayligi shundaki, u 1) dars rejasi buzilmaydi; 2) mavzu uchun mo'ljallangan materialni dars vaqti ichida to'liq etkazib beriladi; 3) intizom risoladagidek, shovqin suronsiz, ehtiros, baxslarsiz o'tadi; 4) o'z bilimini keng namoyon qilishi bilan zavqlana oladi (agar o'qituvchining bilimi yuqori bo'lsa, albatta); 5) bir bora yozib qo'ygan ma'ruzasini, qayta-qayta ishlamasdan o'qiyverishi mumkin...

Lekin darsni faqat shu metod asosida o'qish, bir tomondan, talabani mutafakkirga emas faqat taqlidchiga aylantirsa, ikkinchi tomondan, o'qituvchining

o'zini ham nazariy va metodik nuqtai nazardan dogmalashib qolishiga olib keladi. Shunga ko'ra falsafa o'qituvchisi talabaga materialni qanday bo'lsa shundayligicha, ya'ni nafaol qabul qilishi shart bo'lgan tinglovchi sifatidagina emas, balki mavzuni tahliliy qabullashi mumkin va kerak bo'lgan subyekt sifatida ham yondoshishi, ya'ni ma'ruzaning ikkinchi vazifasini ham amalga oshirishi zarur.

Shu munosabat bilan ma'ruzaning ikkinchi muhim maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladigan uslubni ham yoritishga o'tamiz. Bunda avvalo o'z ma'ruzasining birinchi vazifasini qoniqarli amalga oshira olgan o'qituvchigina ikkinchi vazifani ham amalga oshira olishini ta'kidlab o'tish joiz. Zero, ma'ruza materialining tahlili talabaga aniq va to'liq etkazilgan axborot asosida bo'lishi zarur. Aks holda tahlil mantiqiy tupikka, boshi berk ko'chaga kirib qolishi va talabadan chin mutafakkirni emas, safsatabo'zni (sofistni) keltirib chiqarishi mumkin.

Ma'ruzaning ikkinchi vazifasini bajarish uchun o'qituvchi talaba faolligini rivojlantiruvchi metodlarni ishga solishni ham bilishi kerak. Ushbu metodlar aktiv va interaktiv metodlar nomini olgan. Bunday metodlar hozirgi davrda juda ko'p. Bular qatoriga, masalan, ma'ruzalarni muammoli o'tish, suqrotcha baxs tarzida o'qish, rolli uyinlar tashkil etish, konkret vaziyatlar tahlili tarzida o'qish, o'yin projeklari asosida tashkillash va h.k. Bularning ba'zilariga navbatdagi mavzularimizda maxsus to'xtalamiz. Mazkur mavzuda esa darsni muammoli o'tish metodikasiga alohida e'tibor qaratamiz.

Falsafiy ma'ruzani muammoli o'tish haqida tushuncha:

Avvalo muammoli ma'ruza deganda nima nazarda tutilishini aniqlab olamiz. Muayyan falsafiy masala qo'yilib, uning muhokamasi va echimida tinglovchilarning barchasi faol ishtirok etishini ta'minlay oladigan ma'ruzalar muammoli ma'ruzalar deyilishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'qituvchi o'z ma'ruzasi matnini tayyorlayotganida va uni o'qishni mashqlarini amalga oshirayotganida o'z diqqat e'tiborini tinglovchilar muhokamasi uchun tavsiya etadigan materialni tanlashga ham maxsus qaratishi kerak. Ta'kidlash joizki, u

ishni u dars vaqtida emas, balki darsga kelishidan oldin amalga oshirgan, ya'ni rejalashtirgan bo'lishi kerak, albatta.

Lekin, guruhda faol tinglovchilar ko'p bo'lgan hollarda bunday material dars vaqtida tabiiy ravishda tanlanib qolishi ham mumkin. Bunday hollarda dars sa'viyasi kutilgandan ham yuqori bo'ladi. Ammo o'qituvchi, ayniqsa u yosh, tajribasiz bo'lsa va, ayniqsa, o'zi xali yaxshi bilmaydigan auditoriya bilan ishlayotgan bo'lsa, bunday tasodiflarga tayana olmaydi. Shuning uchun bunday materialni oldindan tanlab qo'yishi maqsadga muvofiq.

Ma'ruzani muammoli o'tish deganda talaba faylasuflarning o'zlari ham hali echilmagan deb hisoblaydigan masalalarni ham echishga kirishishlari kerakligini bildirmaydi, albatta. Shu ma'noda tanlanadigan material talabaning hozirgi sa'viyasi, tafakkur doirasidan juda yuqori bo'lmasligi mumkin, ya'ni uning mushohada quvvati, shuningdek, asosiy qiziqishlari doirasi, mutaxassislik soxasi, guruxning muxokamaga tayyorlik xolati kabilar albatta hisobga olinishi kerak.

Endi darsga muammoli materialni tanlash haqida fikr yuritaylik Masalan, etika fanining "Axloqiy tamoyillar va asosiy kategoriyalar" mavzusi yoritilishi kerak, deylik. Bunda avvalo axloqiy tafakkurning borliqni bilish va amaliy o'zlashtirishda, ayniqsa, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati, his-tuyg'ularning esa insonlar orasida mehr-oqibat, do'stlik, tinch-totuvlik, birlikni qaror toptirishdagi roli, darajalari masalalari yoritilishi, keyin mazkur mavzuning asosiy tushuncha va talqinlari, turli falsafiy qarash va yo'nalishlarning masalaga munosabatlari ochilishi, shundan keyingina muammoli masalani qo'yish mumkin.

Bunda turli falsafiy qarash va yo'nalishlarning masalaga munosabatlari o'qituvchining muammoli masalani qo'yish uchun tanlab olgan materiali bo'ladi. Mazkur misolda bu material, bir tomondan axloqiy tafakkurda, xususan, erishilgan muvaffaqiyatlar namoyishi bo'ladi. Ikkinchi tomondan, yurtimizda eng yuksak ma'naviyat namoyandalari, masalan, Alisher Navoiyning barcha asarlarida asosan muhabbat tuyg'usi ulug'langani va, umuman, uning va Sharqning boshqa ko'plab genial iste'dod egalarining ishq falsafasi namoyandasi ekanini eslatib

o‘tiladi.

Shundan so‘ng muammoli masalani quyidagicha qo‘yish mumkin:

Sizningcha, bilish va amaliy hayotda axloqiy tafakkurning roli buyukroqmi yoki his-tuyg‘ularmi? Sharqona ma‘naviyat buyukrokmi yoki G‘arb ratsional tafakkurimi?

O‘qituvchining bu erdagi vazifasi faqat muammoli masala va unga tegishli materialni tanlaganidagina emas. Uning asosiy vazifasi mazkur muammo bo‘yicha baxsni tashkil eta olishidadir. Zero, aynan baxsda talaba tafakkuri rivojlanadi, u o‘z nuqtai nazarini oldinga surish va himoya qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Baxsning muhim tashkiliy va tarbiyaviy tomoni o‘qituvchi baxsni janjal emas, balki madaniyatli fikr almashuvi tarzida kechishini ta‘minlay olishida. Buning uchun u butun baxs mobaynida munozara qiluvchilar orasidagi muvozonatni saqlashga intilishi kerak. Baxsni janjalga aylanishi mayli ustun o‘ringa chiqaboshlagan zahoti uning tarafdorlarini bir qadar “sovitib” turish ham zarur bo‘ladi. Lekin bu bevosita tanbeh yo‘li bilan emas, balki janjalga moyil tomon yo‘l qo‘yayotgan xatoga ishora qilish yoki boshqa shu kabi yo‘l bilan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shuning bilan birga pedagog ikkinchi tomonga og‘ib ketmasliga, hamisha adolatli bo‘lishi, oltin oraliq vaziyatida turishi kerak. Ayni paytda baxsning to‘xtab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda baxsda faol qatnashmayotganlarni ham jalb etish bo‘yicha ish olib borishi kerak.

Umuman, falsafiy ma‘ruzalarni muammoli o‘qishning va seminarlarda falsafiy masalalarni muhokama etishning o‘z pedagogik va didaktik (tarbiyaviy) prinsip va talablari bor. Bu haqida batafsilroq fikr yuritamiz.

Falsafiy darslarida “suqrotcha baxs”, “insert”,” birgalikda ilm olish” metodlarining o‘rni.

Falsafiy fanlar darslari qiziqarli va talabaga boy axborot beradigan bo‘lishiga yordam beradigan uslublar juda ko‘p. Lekin ular orasida falsafaning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan “suqrotcha baxs”ga hech qaysi uslub eta olmaydi. Zero aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi ko‘plab mutafakkirlarni

etishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat etuk mutafakkirlarini kamolotga etkazishda davom etmoqda. Bu uslubni yaxshi bilish uchun mazkur dialoglarni chuqur o'rganish kerak. Bugungi kunda ularning o'zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgani esa ishimizni yanada engillashtirdi. Bu uslub seminarda emas, balki faqat ma'ruzalar vaqtida o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi Suqrotning, tinglovchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rollarini o'ynaydilar. Mazkur metodni mashq orqaligina namoyish etish mumkin. Shuning uchun bu erda ushbu uslubga boshqa to'xtalmaymiz.

Lekin metodikadan o'tkazadigan seminarlarimizda bu metodni maxsus mashq qilib ko'ra olamiz. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu uslubni falsafani chuqurroq biladiganlar o'zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Falsafiy fanlar darslarining xajmi juda qisqa bo'lgan nofalsafa mutaxassisliklari darslarida esa uni qo'llash uchun etarli vaqt topib bo'lmaydi. Ammo bu uslub masalaning javobi baxs qatnashchilaridan biriga ayon bo'ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to'qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o'z o'zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

Falsafiy fanlarni o'rganishga endigina kirishganlar esa avval osonroq uslublar asosida o'z tafakkurlarini rivojlantiradigan uslublar asosida ishlashlari maqsadga muvofiq. Shunday uslublar qatoriga "insert" uslubi turadi.

"Insert" uslubi yordamida tinglovchilar asosan falsafiy matnlar (tekstlar) yordamida o'z tahliliy va tanqidiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. Shu orqali falsafiy g'oyalarni tushunishni o'rganadilar. Bu metod bilan ishlaganda tinglovchilarga muayyan falsafiy matn (Masalan, biron muallifning maqolasi yoki biron faylasuf kitobidan olingan ko'chirma) tarqatiladi. Ular tekstni o'qib chiqib, varaq chetlariga (polyalariga) o'z belgilarini qo'yadilar. Belgilarni oldindan kelishib olish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu tinglovchilar ishini tekshirish va baholashni osonlashtiradi. Belgilar quyidagicha bo'lishi mumkin: talaba

« + » - belgisini o'zi uchun yangi fikr qarshisiga qo'yadi.

« - » - belgisini o'z bilimlariga, fikrlariga zid keladigan fikr qarshisiga qo'yadi.

«V» - belgisini o‘z firlariga muvofiq keladigan fikr qarshisiga qo‘yadi.

«? » - belgisini o‘zi tushunib eta olmagan fikr qarshisiga qo‘yadi.

Tinglovchilar teksni o‘qib chiqib, tegishli belgilarini qo‘yib chiqqanlaridan keyin o‘qituvchi ularga quyidagi jadvalga o‘z belgilarini qo‘yib chiqishlarini tavsiya etadi.

V - + ?

Shundan keyin o‘qituvchi “Insert” jadvaldagi bu axborotni tartiblashtirib chiqadi. Tinglovchilardan kim va nimalarni tushuna olmaganlarini va kim, nimalarni tushuna olganlari o‘rganadi. Bu unga tinglovchilarni baholash uchun ham, kelgusi ma’ruza va seminarlarda buni hisobga olishi uchun ham kerak bo‘ladi. Darsning keyingi bosqichida o‘qituvchi tinglovchilar qilgan ishlari asosida tekstni muxokama vilib, undagi ziddiyatli va tushunarsiz ko‘ringan erlarini tinglovchilarning o‘zlari ishtirokida tahlil etib, yoritib oladi, ishni xulosalaydi.

Ish muxokamasini bilimi uncha yuqori bo‘lmagan tinglovchilardan boshlash maqsadga muvofiq. Shunda bilimi yuqoriroq tinglovchilar muhokamada faol ishtirok etishlari, o‘z bilimlarini mustahkamlab, o‘qituvchiga ham yordam berishlari mumkin. Chunki, ushbu muhokamada ular boshqalar tushunib eta olmagan fikrlarni tushuntirib beradilar va talqinlari, tafakkurlari chiniqadi.

Endi “Birgalikda ilm olish” metodi haqida fikr yuritimiz. Bu metod faqat seminar mashg‘ulotlarida qo‘llanishi mumkin va uning xillari juda ko‘p. Ularning hammasini bu erda keltirish uchun vaqt etmaydi. Bu erda biz ulardan ba’zilarini namuna sifatida ko‘rsatimiz. Shu namunalar asosida qolganlarini yosh o‘qituvchi o‘zi kashf qilishi yoki boshqa manbalarni o‘qib, tushunib olishi ham mumkin.

“Yozma va og‘zaki yumaloq stol” metodi. Bu mavzuning muhokama etiladigan masalasi bo‘yicha 3 bosqichli galma gal fikr bildirish usulidir. Usulni qo‘llash uchun, avvalo seminar guruhini har birida 5 talabadan iborat 4 ta mayda guruhlarga ajratiladi.

Birinchi bosqichda, masalan, 1 va 2 guruh tinglovchilari masalaning javobini yozadilar, 3 va 4 guruh tinglovchilari esa ularning javoblarini tahlil qiladilar. Javobda 1 va 2 guruh barcha a'zolari qatnashadilar. YA'ni guruh a'zolarining har biri "yumaloq stol" atrofida o'rtaga tashlangan savol (masala) bo'yicha o'z fikrlarini yozma ravishda bildiradilar. Buning uchun javob qog'ozga yozilishi va javob ostiga javob muallifi o'z familiyasini yozib qo'yishi kerak. Birinchi talaba javobni yozib bo'lgach, qog'oz bilan ruchkani o'zining boshqa gruppadoshiga uzatadi va h.k. Shu tarzda qog'oz guruhning 5 a'zosini aylanib chiqadi va tahlil uchun 3, 4 guruxlarga uzatiladi. Z va 4 guruh a'zolari javoblarni qiyosiy tahlil etib, tegishli baholaydilar ("ball" qo'yadilar).

Ikkinchi bosqichda Z va 4 guruh a'zolari mavzuning ikkinchi masalasi buyicha javob yozadilar, 1 va 2 guruh tinglovchilari esa ularning javoblarini tahlil etib, baholaydilar.

Uchinchi bosqichda "og'zaki yumaloq stol" o'tkaziladi. Buning uchun mavzuning uchinchi savoli 1,2 guruh a'zolariga beriladi. Ular og'zaki javob beradilar, 3,4 guruhdagilar esa javoblarni og'zaki muhokama qilib, og'zaki baholaydilar. Keyin mavzuning to'rtinchi savoli 3,4 guruh a'zolariga beriladi. Ular og'zaki javob beradilar, 1,2 guruhdagilar esa javoblarni og'zaki muhokama qilib, og'zaki baholaydilar.

"Birgalikda ilm olish" metodining ikkinchi shakli: "uch bosqichli intervyu" dir. Seminarni bu metod asosida o'tkazish uchun seminar guruhida har biri 3 talabadan iborat (7 yo 8 ta) mayda guruhlari tuziladi. Guruhchalarining a'zolarini A, B, G deylik. Bunda A Bdan intervyu oladi, G esa savolni va javobning asosiy fikrlarini yozib oladi. Intervyu oluvchi o'z partnyoriga o'ylab javob berishi uchun bir necha sekund vaqt berishi va asosiy savolga javob to'liq chiqishiga yordam beradigan qo'shimcha savollarni ham berishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi bosqichda rollar almashadi. G A dan intervyu oladi, B yozib oladi.

Uchinchi bosqichda B Gdan intervyu oladi, A esa yozadi. Demak, seminarni bunday tashkillash uchun seminar asosiy savollarni uchtadan mayda savollarga ajratish kerak bo'ladi. Savollar soni gurux va guruhdagilar soniga bog'liqdir.

Dars oxirida intervyu yozuvlari yig'ib olinadi va o'qituvchi tomonidan har bir guruhning, jumladan, har bir a'zoning ishi obyektiv baholanadi.

“Birgalikda ilm olish” metodining uchinchi shakli sifatida butun seminar guruhini 3 ga - “savol beruvchilar”, “javob beruvchilar” va “baholovchilar” – ajratib, har birining vazifalarini oldindan taqsimlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Seminar qiziqarli o'yin tarzida kechishi uchun savol beruvchilarni “jurnalistlar”, javob beruvchilarni “delegatlar”, baholovchilarni “kuzatuvchilar” yoki “hakamlar” yoki “arbitrlar” guruhi deb atash ham mumkin.

Bu usulda seminar tashkil etilganda birinchi guruh a'zolariga seminarda muhokama etiladigan masalalarni yoritishga xizmat qiladigan savollari ro'yxatini dasdan avval tayyorlab kelish topshiriladi. Ikkinchi guruh a'zolari seminarining asosiy savollari bo'yicha javob berishga tayyorlanib keladilar. Uchinchi guruh a'zolari esa har ikki guruh ishini, ya'ni savol-javoblarni eshitib, baholashga tayyorlanib keladi. O'qituvchi uchala guruh ishini nazorat qiladi, kerak bo'lgan hollarda munozaraning obyektiv va adolatli bo'lishiga oid ko'rsatmalar berib turadi.

Bu metod kuchli guruhlarda va og'zaki o'tkaziladi. Guruhdagilar faolligi yaxshi bo'lsa, keyingi seminar ham ayni shu usulda, faqat guruhlarning rollari almashtirilgan xolda o'tkaziladi. Uchinchi marta ham shu usul rollarni almashlab o'tkazilganidan keyin bir sikl tugaydi va keyingi seminarlarda boshqa uslubnarni qo'llashga o'tish mumkin yoki shu yo'sinda davom etish ham mumkin. Bu masalani guruhdagilarning reaksiyasiga qarab aniqlanadi.

Ixtisoslik bo'yicha ma'ruza matnlarini tuzish va tayyorlash bizda juda murakkab jarayondir. Chunki o'qituvchi bolalarga ham tarbiya, ham ilm berib borishi lozim. O'qitilayotgan ma'ruza tushunarli, ko'rgazmali bo'lishi kerak. Tinglovchilarning e'tiborini har xil yo'llar bilan o'ziga jalb qilib, ularga ko'zlagan bilimni berish lozim. Buning uchun o'qituvchida avvalom bor bilim, malaka, tajriba, topqirlik, nutq madaniyati va shu kabilar bo'lishi shart.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ixtisoslik fanini o'qitish metodikasiga doir qo'llanmalardan foydalanib o'tkaziladigan maxsus kurs va seminarlarining

ahamiyati katta. Aslida olganda darsdan tashqari va fakultativ mashg'ulotlar o'tkazishga tayyor bo'lmagan o'qituvchini yaxshi tajribali o'qituvchi deb bo'lmaydi. O'qituvchilarning fanga qiziqishi, avvalo dars jarayonining tashkil etilishiga bog'liq. Shu bilan birga, yaxshi tashkil qilinmagan darsdan tashqari tadbirlar orqali ham o'qituvchilarning ixtisoslikka qiziqishlarini amalga oshirish mumkin.

PowerPoint Presentation:

Mutaxassislik faniga qiziquvchi tinglovchilar ixtisoslik darsida olgan bilimlari kamlik qiladi. Ular ixtisoslikka doir ko'proq bilim chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan, ya'ni ixtisoslik nazariy materiallarni amaliy jihatdan o'rganish va dastur materiallarini yana ham mustahkamlash va o'rganish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga ko'proq ahamiyat beradilar. Bu darslarda tinglovchilarda etarli darajada tushuncha hosil qilish uchun tartib bo'yicha mashg'ulotlarda ma'ruzaga asoslangan dastur bo'yicha nazariy bilimlarni amalda ko'rib chiqishlari zarur.

Ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalarni amalga oshirish maqsadida Oliy va o'rta maxsus Ta'lim vazirligi bir qator amaliy ko'rsatmalar berib bormoqda. Jumladan. 2002-2003 o'quv yilining "Ta'lim sifatini oshirish o'quv yili" deb e'lon qilinganligi, pedagoglik amaliyotiga muammoli ma'ruzalarning joriy qilinishi ana shunday dolzarb ko'rsatmalardan hisoblanadi.

Muammoli ma'ruzaning odatdagi ma'ruzadan qanday farqi bor? Uning o'qitish sifatini oshirishdagi ahamiyati nimadan iborat? :

Muammoli ma'ruzaning odatdagi ma'ruzadan qanday farqi bor? Uning o'qitish sifatini oshirishdagi ahamiyati nimadan iborat? Eng avvalo shuni takidlash lozimki, muammoli ma'ruza o'qituvchini jo'ngina (o'z javobi o'zi bilan) bayonidan iborat bo'lmay, balki mashg'ulot davomida bir necha (2-3 ta) muammolar kiradi. Ularga echim topishda tinglovchilar faol ishtirok etadilar, buning natijasida yangi axborotning o'zlari mustaqil izlab topadilar. O'qituvchi esa, tinglovchilarning ijodiy fikrlash jarayonini boshqarib boradi. Ikkinchidan, tinglovchilar o'quv jarayonidagi sust (passiv) tinglovchidan faol ishtirokchiga

aylanadilar. O‘z fikrlari, g‘oyalari qarashlari bilan mashg‘ulotlarda faol ishtirok etib, uning mazmunini va natijasini yanada boyitadilar. Uchinchidan, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tinglovchilarning faqat xotirasi emas, balki ularning ko‘p variantli (divergent) tafakkuri va shahsi ham rivojlanadi. Metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘yilgan muammolar tinglovchilar tafakkurini, muammolarini mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishning kaliti bo‘lib qolaveradi.

Muammoli o‘qitishning – muammoli savol, muammoli vaziyat, muammoli masala va muammoli topshiriq shakllari mavjud. Ularning dastlabki ikkitasi ma’ruza mashg‘ulotlariga ko‘proq mos keladi.

Falsafiy ma’ruzalarni muammoli o‘qishning pedagogik va didaktik prinsip va talablari asosan quyidagicha:

- 1.Talabning muammo muhokamasiga nazariy va psixologik tayyorgarligini hisobga olish.**
- 2.Ta’lim dasturi va mazmuni bilan uslub orasidagi uzviylikni yo‘qotmaslik.**
- 3.Muammo materialining dars moduli bilan uyg‘unligi.**
- 4.Tanlangan material talaba ehtiyojlari va qiziqishlarilariga muvofiq kelishi.**
- 5.Tanlangan material chindan ham muammoli bo‘lishi**
- 6.Muammo muhokamasidan salbiy (negativ) xulosa va tajriba hosil bo‘lmasligiga erishish.**
- 7.Dars uzluksiz kechishini ta’minlash, vaqtdan unumli foydalanish.**
- 8.Muhokamada barcha tinglovchilar ixtiyoriy qatnashishi uchun sharoit yaratish.**
- 9.Va h.k.**

Auditoriyaning falsafiy mavzularni o‘zlashtirish ko‘nikmalari ortgani sayin va ma’ruzalarning kirish va fundamental mavzulari tinglovchilar tomonidan yaxshi o‘zlashritilganidan keyin ma’ruzalar vaqtida muammoli masalalar sonini ko‘paytirib borish va xatto darsni boshidan oxirigacha muammoli masalalar muxokamasi tarzida o‘tkazish ham mumkin. Keyingi holda dars “suqrotcha baxs” tarzida o‘tgan, deyish mumkin. Suqrotcha baxs namunalarini Platonning dialoglari misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu, albatta, hozirgi davrda falsafadan dars berish

san'atida eng oliy idealdir. Bu idealga etish esa nafaqat o'qituvchi, balki talabaga, uning bilimiga bo'lgan o'z ichki shaxsiy intilishiga, qiziqishiga bog'liq. Bunda o'qituvchi faqat tashqi turtki rolini o'ynay oladi.

Mazkur jarayonlarni biz o'z seminarlarimizda yanada konkritroq muhokama qilishga harakat qilamiz.

Muammoli savol. : Muammoli savol. Ba'zi olimlarning (Bezrukova V.S., Kagan V.A.) tadqiqotlarida va amaliy kuzatishlarida ta'kidlaganidek, o'qituvchilarning talaba (o'quvchilar)ga beradigan savollarining 80-85 foizi o'zlashtirishning faqat reproduktiv darajasidagi javobni talab qiladi. Bu holat ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirmas ekan. Chunki, bunday savolar axborot tavsifiga ega bo'lib, ularning tayyor javoblari o'quv adabiyotlarida yoritilgan yoki o'qituvchi ularni tushintirgan bo'ladi. Demak, tayyor javoblari manbalarda yoritilmagan savollar tinglovchilar uchun muammo tug'diradi, ularni fikrlashga undaydi, ya'ni muammoli savol tug'iladi. Ular tinglovchilarni – tahlil, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, turkumlash kabi tafakkurning yuqori bosqichlarida fikrlashga undaydi.

PowerPoint Presentation:

Jahon pedagogikasida bunday savollar "Bilim savollari" deb ataladi. "Nima uchun?", "Tarkibiy qismlarga ajrating", Eng muhim xususiyatlari nima?", "Buni siz qanday hal qilgan bo'lar edingiz?", "O'zaro munosabatlarini aniqlang", "Taqqoslang" kabilar ana shunday savollardan bo'lib hisoblanadi. Albatta bunday savolarni shakllantirishda muayyan fanning asosiy tayanch tushunchalari va xususiyatlarini nazarda tutish darkor. Masalan, "Yangi peagogik texnologiyalar" fanidan birinchi ma'ruza Golpbrayt, T.Sakomoto, M.Klarinlarning "Pedagogik texnologiya" tushunchasiga oid ta'riflarni mustaqil o'zlashtirganlaridan so'ng, tinglovchilarning "Yuqorida qayd qilingan ta'riflarda pedagogik texnologiyaning qaysi eng muhim jihati ko'zga tashlanadi?" degan savol bilan murojaat qilinadi.

Muammoli vaziyat. :

Muammoli vaziyat . Bunday vaziyat biror tushunchani anglash yoki biror xatti harakatni bajarish uchun tinglovchilarning mavjud bilimlari etarli

bo'lganda, ya'ni bilish va bilmaslik o'rtasida nomunofqlik paydo bo'lganda sodir bo'ladi. Ma'ruza davomida yaratiladigan muammoli vaziyat mashg'ulot mavzusiga oid bo'lish bilan birga, oldin o'zlashtirgan bilimlarga asoslangan holda, uning echimini topish imkoniyati ham mavjud bo'lishi zarur. Butunlay nomalum bo'lgan vaziyat yaratilsa, tinglovchilarda uning echimini topishga qiziqish paydo bo'lmaydi (vaqt bekorga sarflanadi). Masalan: Etika fanidan muammoli ma'ruza yaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi: (slayd namoyish qilinib), tinglovchilarga "Ezgulik va yaxshilik" ularning farqli va umumiy jihatlarini tushuntirib berib murojaat qilinadi.

Muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishning quyidagi tarkiblari mavjud: Muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishning quyidagi tarkiblari mavjud: muammoli vaziyatni vujudga keltirish va muammoni qo'yish; vaziyat echimini topish uchun tahminlarni olg'a surish va ilmiy asoslangan taxmin (gipoteza) larni asoslash; muammoli vaziyatni hal qilish; muammo to'g'ri hal qilinganini ko'rib chiqish; Ma'ruzalarda yaratilgan muammoli vaziyatlar o'quv materiallariga bog'liq bo'lish bilan birga, tinglovchilarning bo'lajak mustaqil amaliy faoliyatini ham aks ettirish zarur. Buning natijasida, bir tomondan o'quv materiallari o'zlashtiriladi, ikkinchi tomondan esa tinglovchilar faqat kitobiy bilimlarga ega bo'lib qolmasdan, bo'lajak amaliy hayotga ham tayyorlanib boradilar.

PowerPoint Presentation: Muammoli ma'ruzalar o'qituvchiga bir talay o'ziga xos didaktik talablarni qo'yadi. O'quv materialini metodik tahlil qilish (muammoli savol, vaziyat, masala va topshiriqlarni shakllantirish, ularning echish usullari va to'g'ri javoblar variantlarini tayyorlash). Shu bilan birga, muammoli ma'ruzalarning o'quv jarayoniga joriy etilishida Ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichi tinglovchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati benihoyadir. Bu esa tayyorlanayotgan kadrlarning mamlakatimizda amal qilayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlovchi omildir.

Ixtisoslik fanidan amaliy mashg'ulotlarini rejalarini tuzish va o'tkazish : Ixtisoslik fanidan amaliy mashg'ulotlarini rejalarini tuzish va o'tkazish Ixtisoslik

fanlaridan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari deganda tinglovchilarning bilimlarini kengaytirib, natija oladi va bu natija asosida xulosa qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda esa o'sha fanga doir turli - tuman voqea va xodisalar sharxlanib, nazariy bilimlar mustahkamlanadi. Amaliy mashg'ulotlar uchun reja tuzish o'quv dasturi va ma'ruza matni asosida tuziladi. Bu narsa bor jixoz va imkoniyatlarga ham bog'liqdir.

Etika va estetika fanlarini o'qitishda pedagogik malaka, ko'nikma va tajribani oshirish usullari va dars o'tish turlari : Etika va estetika fanlarini o'qitishda pedagogik malaka, ko'nikma va tajribani oshirish usullari va dars o'tish turlari Misol uchun darsda «Axloq kategoriyalari» haqida ma'ruza o'tkaziladi. Bunda axloqiy kategoriyalarning qoidalari tushuntiriladi. Biz bu darsda quyidagi ta'lim qonunlariga asoslanib ish ko'rishimiz lozim: Ta'limda ilmiylik bo'lish qoidasi. Ta'limda tizimlilik, izchillik bo'lish qoidasi. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lish qoidasi. Ta'limda onglilik va faollik va mustaqillik qoidasi. Ta'lim jarayonida har qaysi talabaga xos xususiyatlarni anglash qoidasi. Ta'limda ilmiy bilim va ko'nikma malakalarini puxta mustahkam o'zlashtirish qoidasi. Ta'limning talabaga mos bo'lishi ta'lim va tarbiyaning birinchi qoidasi.

Ta'lim tizimining hal qiluvchi bo'g'ini bu – o'qituvchilardir. Shu asnoda jamiyatning kelajagi, uning ravnaqida ziyolilar-o'qituvchilarning mas'ullik darajasi yuqori. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi, “Ta'lim to'g'risidagi” qonun amal qilayotgan hozirgi sharoitda bu narsa alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'qituvchining bilimi, salohiyati, ko'nikmasi, hayotiy tajribasi oxir-oqibatida bo'lg'usi mutaxassisning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu narsa ayniqsa madaniyat va san'at oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus kasb hunar kollejlari va akademik litseylari o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi. O'zbek milliy madaniyati, san'ati nazariyasi va tarixi bilan kuchli qurollangan, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarga ega bo'lgan o'qituvchigina zamon talablariga mos mutaxassis kadrni tayyorlash mumkin.

Bugungi mutaxassis zamonaviy fan va texnologiyalarni qunt bilan o'rganishi barobarida, u ayni paytda yuksak e'tiqodli, ma'naviyat-ma'rifat bo'yicha kuchli bilimga ega, mafkuraviy jihatdan sobitqadam, iymoni butun, go'zal inson bo'lishi lozim. Ta'lim tizimida bu narsaga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada jiddiy yutuqlarga ham erishilmoqda.

Ammo, sobiq sovet mustabid tuzumi davridagi mezonlar, kadrlarga nisbatan qo'yiladigan talablar ayrim hollarda, afsuski, hali ham o'z kuchini yo'qotmayapti. Mamlakat Prezidenti I. Karimov shu o'rinda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bizga meros bo'lib qolgan ta'lim-tarbiya tizimining ma'lum bir ma'qul jihatlari bilan bir qatorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, o'quv jarayonida o'quvchi va tinglovchilarni mustaqil va erkin fikrlashga yo'l qo'yimaslik, har qaysi o'quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, ularning sobiq sovet tuzumiga soxta g'oyalarga sadoqat hisobga olib baholash va hayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p joylarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Ko'pchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi. Bu tuzumdan bizga qolgan meroslar ichidagi shunga o'xshagan salbiy asoratlarni, afsuski, hozir ham sezib turibmiz" Darhaqiqat, sobiq sovet mustabid tuzumi davrida Yurtboshimiz ta'kidlagani kabi sayoz saviyali, mute mutaxassislar ming-minglab etishtirildi. Ana shunday sharoitda sovet hukumati nima uchun milliy madaniyatlarni, xususan o'zbek, milliy madaniyatini, uning boy tarixini targ'ib etishga qarshi bo'lganligini anglab etish lozim.

Shuni qayd etish lozimki, sovet mafkurasi maddohlari o'z ma'naviyatidan yiroq, milliy madaniy merosini o'zlashtirmagan odamlarni boshqarish oson ekanligini yaxshi bilganlar. Shunigng uchun ham turli yo'l, usullar bilan Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarning azaldan madaniyati past, ko'chmanchi, boqimanda xalq ekanligi to'g'risida "nazariya"larni ishlab chiqdilar. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fan dasturlarida o'z aksi topdi. Eng achinarlisi –biz o'zbek ziyolilari ham o'sha "nazariya" larning quliga aylandik. O'quv dasturlari esa asosan rus tarixi va madaniyatiga asosiga qurildi. Bu birinchi xato edi.

Ikkinchidan, sovet mafkurasi o‘zbek xalqi madaniyati tarixini, umuman millat tarixini soxtalashtirdi. Gap shundaki, bizning tariximiz amalga urushlar, qo‘zg‘olonlar tarixidan iborat etib ko‘rsatildi. Xalqning, milliy ziyolilarning ming yillari davomida yaratgan boy va bebaho madaniyat durdonalariga panja ortidan qaraldi.

Uchinchidan, mustabid tuzum ta‘lim sohasida o‘zbek milliy madaniyati faqat “saroy madaniyati” tarzida talqin etildi. Oddiy xalqning madaniyatini yaratuvchanlik kuchi inkoretildi. Sovet tuzumi yillarida ta‘lim tizimida bu narsaga alohida ahamiyat berildi. Xalqning madaniyatni yaratishdagi rolini ko‘rmaslik bilan esa o‘zimiz o‘z tariximiz, madaniy-milliy merosimizni inkor etdik.

To‘rtinchidan, zamonaviy mutaxassis tayyorlashda ularning madaniy-badiiy jarayonlarga munosabatini aniqlashning estetik usuli inkor etildi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, adabiy-badiiy, madaniy jarayonlar siyosiy nuqtai nazardan baholandi. Bunday mezon esa yuzlab, minglab mahalliyalloma-yu mutafakkirlarni “xalq dushmani” safiga tizishga “asos” berdi. Sovet ta‘lim tizimida madaniyatning yagona o‘lchovi uning siyosiy-mafkuraviy doiraga mos yoki mos emasligi bilan o‘lchanadi.

Beshinchidan, yagona “sovet madaniyati”ni barpo etish nazariyasi yuzaga keldi. Bu esa, o‘z navbatida milliy madaniyatlarni amalda inkor etgan holda rus madaniyati negizida yangicha, “sovet madaniyati” ni barpo etish asnosida “rivoj” topdi. Eng yomoni, “sovet madaniyati” ning asosini kommunistik mafkura va sinfiy dunyoqarash tashkil etardi. Ayni paytda, “sovet madaniyati” ning mazmun-mohiyatida partiyaviylik, sinfiylik, bolshevistik-vulgar g‘oyaviylik, madaniy jarayonlarga bir yoqlama nigilistik qarash ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Innovatsiya masalasiga alohida e‘tibor berishimizning bir necha muhim sabablari bor. Birinchidan, bizning anglashimizcha, Prezident Islom Karimovning O‘zbekistonni mustaqillikka olib chiqish va mustaqil taraqqiy toptirish yo‘li – “o‘zbek modeli” behad katta va ulkan, uzoq muddatli, eng ustuvor va olamshumul umummilliy innovatsion loyiha va dasturamal bo‘ldi. Ikkinchidan, innovatsiya, innovatsion faoliyat va bozor hamda innavotsion tizim

O‘zbekistonning o‘z mustaqilligi uchun kurashda va taraqqiyot yo‘li – “o‘zbek modeli”ning tarkibiy qismi yo‘nalishlaridan biri sifatida mustaqillik yillarida paydo bo‘ldi. Uchinchidan, ma’lum bo‘lganidek, bularning har ikkalasi – “o‘zbek modeli” va innovatsiya o‘zaro uzviy bog‘likda dunyoga keldi. Ularning biri ikkinchisini mazmunan va mohiyatan boyitdi, jamiyatga ta’sirchanligini oshirdi. To‘rtinchidan, “o‘zbek modeli” ham, innovatsiya ham faqat bir buyuk maqsadga xizmat qildi va qilmoqda. Bu Vatan va millat mustaqil qilib, takomil toptirish, jamiyat rivoji, ilm-fani va texnika taraqqiyotini tezlashtirishdan iborat bo‘ldi. Bularni to‘la to‘kis anglash, masalaning mazmuni va mohiyatini yanada chuqurroq his qilish uchun eng avvalo, innovatsiya haqida alohida to‘xtalishiga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Chunki, bu mutlaqo yangi tushuncha va soha bo‘lib, hali to‘la-to‘kis anglanilganicha yo‘q.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”

Bu ensiklopedik qisqa ma’lumot innovatsiyaga umumiy ta’rif-tavsif berilgan. Asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, ishlab chiqarishlarga oid yangiliklar yoki umuman insoniy mehnat faoliyatlari, yangilanishlariga sababchi bo‘ladigan yangiliklar, yangi intellektual bilim, g‘oya, nazariya va ta’limotlar nazarda tutilgan. Albatta, bular jumlasiga ijtimoiy gumanitar fanlari, shuningdek, axloq va estetika fanlari va uning metodologiyasiga oid innovatsiya – yangiliklar ham kirishi o‘z-o‘zidan ma’lum. Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham xuddi fan metodologiyasi kabi keng – umumiy va tor, hususiy xarakterga ega.

Metodologiya bilan innovatsiya o‘rtasida o‘zaro umumjihatlik va maqsad birligi mavjud. Ularning har ikkalasi ham insoniy bilimlar takomili topishi, ishlab chiqarish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakkai, har

qanday innovatsiya va innovatsion loyihalar amalga oshirilishi, hayotga tadbiq etilishida aniq bir metodologik ilmiy g'oya, ta'limot, nazariya, usul va tamoyillarga amal qilinsagina, ular ro'yobga chiqadi. Aks holda, u quruq, natijasiz harakat bo'lib, qoladi. Albatta, har yangilik, ya'ni innovatsiya ostida yangi g'oya va texnologiya yotadi. Mana shu ishlab chiqarish yoki biror bir fan uchun ilmiy metodologik asos ya'ni yo'l ko'rsatuvchi, da'vat etuvchi kuch-quvvat bo'ladi.

Metodologik asos va usullar qanchalik ilmiy haqiqatga yaqin bo'lsa, innovatsion loyiha shunchalik muvaffaqiyat va samara bilan yakun topadi. Metodologiya yoki metodologik g'oyaviy-nazariy ilmiy asos, usul va tamoyillarni obrazli qilib, har bir innovatsion faoliyatning kompassi yoki dirijyori deb aytsak, biz nazarda tutayotgan masalani anglash yanada osonlashadi. Xullas, metodologiya innovatsiyaning ilmiy –nazariy asosi. Bular qanchalik o'zaro uyg'unlikda bir butun mujassam bo'lsa, innovatsiyaning innovatsionlik mavqei, darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor haqida hali madaniyatshunoslar biror mukammal tadqiqot yaratgani yo'q. Ammo shu bilan birga, bu soha mutloq bo'm-bo'sh, quruqlikdan ham iborat emas. Bu sohaga oid ko'pgina maqolalar yozilmoqda. Tarixchi, iqtisodchi va boshqalar tomonidan ko'p bo'lmasada, ma'lum darajada qo'llanma va risolar yaratilgan.

Interfaol (inter – bu o'zaro, act – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandin suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadigan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talablarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi.

Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: “men ochman, menga yordam ber!”. Donishmand quyidagicha javob beribdi: “men senga baliq berishim

mumkin, sen tez to‘yasan va biroz vaqt o‘tgach, huddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so‘raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to‘g‘ri keladi. Yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o‘rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordamim kerak bo‘lmaydi. O‘z yo‘lingni tanla...”

Yuqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi o‘qituvchi talabaga “qarmoq yasashni” o‘rgatishi va aqlli talaba yasashni qanchalik tez va mustahkam o‘rganib olsalar, ular shunchalik birovlariga muhtoj bo‘lmasdan o‘z “ovlariga” ega bo‘ladilar.

O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va talabaning hamkorligidagi faoliyati, ular qo‘ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq.

Nazariy savollar

1. Mutaxassslik fanlarini o‘qitishda san’at asarlarining zamonaviy janr va ko‘rinishlari
2. Mutaxasssislik fanlarini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish
3. O‘zbekistonda axloqiy muammolar ularning rivojlanishi
4. Hozirgi bosqichda O‘zbekiston estetik madaniyati, umumiy xolati, muammolari, ularni xal etish yo‘llari
5. Jamiyatni ma’naviy axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirish jarayonida tarixiy xotiraning o‘rni va muammolari.

1-ilova

Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani echish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini echish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

«Insert» texnikasining qoidalari:

1. Tekstni o‘qib chiqing.
 2. Olingan ma’lumotni tizimlashtiring.
 3. Har bir qatorga qalam yordamida belgilar qo‘ying.
- V – ma’lumotlar mavzuga oid bilimlarimga to‘g‘ri keladi.
+ – yangi ma’lumotdir.
- – olgan bilimlarimga to‘g‘ri kelmaydi.
? – meni o‘ylantirib qo‘ydi, bu masala yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlar kerak.

INSERT» jadvali

Javob variantlari

V

+

-

?

Taqqoslash tablitsasi.

Moddiy va ma’naviy madaniyatni taqqoslang:

Moddiy.

Ma’naviy.

“Baxslashuv” texnologiyasi

Tinglovchilarning o‘quv guruhlarida ularning o‘zaro munosabatlarini yanada yaxshilash, bir-birlariga tezlik bilan ko‘nikishlari yoki o‘zaro bir-birlarini yaxshi munosabatda bo‘lishlari uchun ba’zida ular o‘rtasida baxslar tashkil etib turish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday bahslar tinglovchilarni o‘z fikrlarini charxlab olishga, hayotga va muammolarga bo‘lgan munosabatlarini aniqlab olishga katta yordam beradi. Bahs mavzularini tinglovchilarning o‘zlari tanlashlari va taklif etishlari mumkin. Bu mavzular ularni baxsga chorlovchi, muammoli, qiziqarli bo‘lishi kerak, aks holda bahs davomida tinglovchilar o‘z fikrlarini bayon eta olmaydilar yoki himoya qila olmaydilar.

Bahslarni o‘tkazish uchun tinglovchilardan bitta yoki ikkita bahs boshqaruvchisi belgilanadi. Ular bahsni muhokama qilishi kerak bo‘lgan mavzu haqidagi kirish so‘zi bilan boshlaydilar. Bu texnologiyani bir necha turkumda olib borish mumkin.

1. Madaniyatli inson deb kimni aytsa bo‘ladi?

- Inson madaniyati nimalardan tashkil topadi?
- Madaniyatli insonga tegishli quyidagi fazilatlardan qaysi birini birinchi o‘ringa qo‘ygan bo‘lardingiz(xushmuomalalik, topqirlik, ma’lumotlilik, notiqlik)?
- Barcha ma’lumotli insonlarni madaniyatli deb atasa bo‘ladimi?
- Insonlarning so‘zlashuvi, nutqiga qarab, ularning madaniyatli ekanliklarini aniqlasa bo‘ladimi?
- Kiyinishiga qarab madaniyatli kishi deb hisoblash mumkinmi?
- Kimlarni madaniyatli desa bo‘ladi?
- Siz o‘zingizni madaniyatli hisoblaysizmi?
- Siz qaysi madaniyat tarafdorisiz? Sharqmi yoki G‘arbmi?

2. Ikki guruhga alohida savol beriladi? Ushbu savollar “Agarda...” deb boshlanadi va bu ikki guruhni bahsga chorlaydi?

- Agarda Rossiya xalqi 988 yil xristian dinini qabul qilmaganida, bu xalq hozirgi madaniyatida qanday holatda bo'lardi?

“Ssenariy” texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchilarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi yakka va jamoaviy ijodiy faoliyatni egallash, o'tkaziladigan tadbirlarni oldindan rejalashtirish, ssenariysini tuzish, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'nikma, malaka hosil qilish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulotni har bir qatnashchisi yakka holda ishlash uchun tayyorlab kelgan tarqatma material (kartochka)lardan bittasini tanlab oladi. Kartochkalarda tinglovchilar uchun turli xil tadbirlarning mavzusi berilgan bo'lib, ular shu mavzuda o'tkazilishi mumkin bo'lgan tadbir haqida yakka holda bosh qotirishlari, uning mazmuni, o'tkazilishi tartibining turli shakllarni aniqlashlar hamda shu tadbirning reja-ssenariyasini ishlab chiqishlari kerak.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida tinglovchilar o'zlari yakka holda tuzgan reja-ssenariyalari kichik guruhlariga ajraladilar.

Ular o'z ishlarining natijasi bilan guruh a'zolarini birma-bir tanishtiradilar, ishlab chiqilgan reja-ssenariylarga baho beradilar, berilgan reja-ssenariylarni to'ldirib, to'g'rilab, ular ichidan bitta variantni tanlab oladilar. Keyin kichik guruhlar birgalikda tanlangan tadbirning reja-ssenariysini ishlab chiqadilar.

Vazifalarni bajarish mobaynida guruh a'zolari, yakka tartibda ijodiy yondoshib, tayyorlangan reja-ssenariylarni e'tiborga olgan holda ham ular ichidan tanlab olingan ssenaiy bo'yicha taqdimotga tayyorlanadilar.

Har bir guruh birgalikda tayyorlangan ssenariylarni himoya qiladi. Himoya vaqtida guruh a'zolari (yoki guruh vakili) tinglovchilar auditoriyasining savollariga javob berishi yoki o'z variantlarida qolishlari mumkin. Reja-ssenariy loyihasining namoyishi sxema (yoki tomosha) shaklida bo'lishi mumkin.

Taqdimot tugagach, tinglovchilar himoya qilingan loyihalarni birgalikda muhokama qiladilar va yakunlaydilar. O'qituvchi har tomonlama yaxshi, qiziqarli

tuzilgan ssenariylarni keyinchalik amalga oshirish uchun tashkilotchilarga tavsiya etadi. O‘qituvchi bajarilgan ishlar uchun minnatdorchilik bildiradi.

«Nima uchun» organayzeri

Nima Nima uchun? Nima uchun?

Nima uchun?

Nima uchun?

“Blits-so‘rov savollari

1. Sharq uyg‘onish davri madaniyati uni davrlashtirish masalasi.
2. Sharq Uyg‘onish davrida xattotlik madaniyati qay darajada rivoj-landi?
3. Bu yil yurtimizda “Ma‘mun akademiyasining necha yilligi nishonla-nadi?
4. “Yaxshi odamlar amalga intilishi kerakmi? Ha. U agar intilmasa yomon odamlar amalni egallaydi”-degan fikr kim tomonidan aytilgan.
5. Ismoil Somoniy maqbarasi qaysi shaharda joylashgan?
6. “Qutadg‘u bilik” asari kim tomonidan yozilgan?

O‘zini-o‘zi baholash savollari

1. “Etika va estetika” fanlarini o‘qitishda qaysi uslublardan foydalansa bo‘ladi?
2. “Etika va estetika “fanlarini o‘qitishda qaysi pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin?
4. “Etika va estetika “ fanlarini o‘qitish tizimi deganda nimalar nazarda tutiladi?
5. “Etika va estetika” fanini o‘qitishda qaysi axborot texnologiyalardan foydalanish mumkin?

Elektron ta’lim resurslari

1. Soro @museum/samara/ru / Noviye podxodi obespecheniya muzeya. Konsepsiya razvitiya muzeynogo menedjmenta i marketinga.
2. www.hermitage.ru
3. www.cnac-gp.fr/Pompidou/
4. www.museum.sstu.runnet.ru
5. www.smartweb.fr/louvr

2-mavzu: XXI asrning global axloqiy va estetik muammolari: axloqiy,

ekologik axloq, etosfera.

XXI asrning global axloqiy-estetik muammolari. Axloqiy va estetik muhit – sogʻlom turmush tarzining asosi sifatida. Globallashtirish jarayonlarida axloqiy va estetik ehtiyojning yuzaga kelish sabablari. Yoshlar maʼnaviy tarbiyasi, oila inqirozi. Komil insonni tarbiyalash vazifalari. Komillikning axloqiy qirralari Xudbinlik, hasad, loqaydlik, qarindosh-urugʻchilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etishning ahamiyati.

Bu oʻrinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk koʻrinishi boʻlmish hasad toʻgʻrisida toʻxtalib oʻtish joiz deb oʻylayman. Odamzot va jamiyat hayotida ogʻir asoratlar qoldiradigan hasad tuygʻusi avvalambor boshqalarni koʻrolmaslik, ularning yutugʻidan quvonish oʻrniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo boʻladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid boʻlgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarida «Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov oʻtinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiqkoʻngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yoʻllarida hasad balosiga koʻp duch kelamiz. Olov va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, koʻrolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sogʻligʻi, hatto hayotidan judo boʻlganini achchiq misollarda koʻrish mumkin.(120-121-betlar)

Yosh avlodimizni turli maʼnaviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulugʻlaydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan nomaʼqul odatlar haqida ham ochiq soʻz yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urugʻchilik va mahalliychilik, korrupsiya va

manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim.(119-120-betlar)

"Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmokda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda", — deydi Yurtboshimiz, — "Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi, desak, o'ylaymanki, xato qilmagan bo'lamiz" ("Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch", T.: "Ma'naviyat", 2008 y., 117-118-6.).

Ma'naviy mezonlarning nisbiyligi yaxshilik va yomonlikning turli jamiyatlarda turlicha tushunilishi bilan bog'liq. Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida ko'pgina G'arb mamlakatlarida ma'naviy buzg'unchilik (pala-partish jinsiy munosabatlar, giyohvandlik, nikohsiz oila, ommaviy behayo kliplar, axloqsizlik, zulm va zo'ravonlikni targ'ib etuvchi filmlar va boshqalar) jamiyat hayotining barcha jabhalarida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Amerikalik yapon millatiga mansub olim F. Fukuyama «Buyuk uzilish» (2003) asarida G'arb og'ir kasallikka yo'liqqan, uning ilk alomatlari 1960 yillarda paydo bo'lgan, degan xulosaga keladi.

F. Fukuyamaning nazarida, uning asosiy alomatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1. Jinoyatchilikning o'sishi. «Jinoyatchilikning urushdan keyingi to'lqinining ko'tarilishi taxminan 1963 yillarga to'g'ri keladi, o'sha vaqtdan beri u yanada shiddat bilan tezlashdi».

2. Oila inqirozi. «Nikoh va bolalar tugʻilishi kamayib ketdi; ajralishlar soni koʻpaydi; AQShdagi har uchta boladan bittasi nikohsiz tugʻilmokda, butun Skandinaviyada esa tugʻilayotgan bolalarning yarmidan koʻpini nikohsiz tugʻilganlar tashkil etadi". 3. Aholi sonining kamayishi (depolyasiya). Demografik portlash muammosi faqat «Uchinchi dunyo» mamlakatlariga xosdir, ayni paytda «barcha rivojlangan mamlakatlarda umuman qarama-qarshi muammo – ular aholisining qisqarishi masalasi kun tartibida turibdi», uzoq umr koʻrish jamiyatning nafaqaxoʻrlardan iborat boʻlib qolishi va ularni taʼminlash masalasini keltirib chiqaradi. 4. Ijtimoiy tarqoqlik – shaxsning hayotdan ajralib qolgani, munosabatlarning keskinlashuvi, kishilar oʻrtasida yolgʻiz yashashga moyillik kuchayishi. F. Fukuyama Gʻarb jamiyati duch kelgan kasallikning sabablari haqida toʻxtalib, ular oilaning inqirozga uchragani bilan bogʻliq, degan xulosaga keladi.

Gʻarb jamiyatida axloqiy buzulishning kuchayishi, internet, kabel TVsi orqali behayo filmlarning namoyish etilishining salbiy asoratlari: gomoseksualizm, sadizm va mazoxizmning targʻib qilinishi.

D. Vilkersonning «His etish» kitobida Gʻarb jamiyatida «axloqiy buzulishning kuchayishi», kabel TVsi orqali behayo filmlarning namoyish etilishi, gomoseksualizm, sadizm va mazoxizmning targʻib qilinishi tobora keng oʻrin olayotgani taʼkidlanadi. Bularning barchasi, avvalo, yoshlarning dunyoqarashi, axloq-odobi, maʼnaviyatiga salbiy taʼsir etishi shubhasiz. Gʻarb ommaviy madaniyati, gʻarbona qarash, gʻayriaxloqiy xatti-harakatlarni targʻib etishda yirik kinokorporatsiyalar, xususan, Gollivudning ham "xizmatlari" yoʻq emas, albatta. Prezidentimiz Islom Karimov "ommaviy madaniyat" niqobi ostida bizning yurtimizga ham kirib kelayotgan bunday xavf-xatarlardan doimo ogohlantirib keladi.

Amoralizm va immoralizm gʻoyalari.

Amoralizm (amoralizm - lot, a - yoʻq, moralis-axloq) — maʼnaviy hayot va shaxslararo munosabatda axloq meyorlarining buzilishi hamda ularni inkor etish, umumeʼtirof etilgan xulq-atvor mezonlariga eʼtiborsizlik va ularga engil-yelpi munosabatda boʻlish. Amaliyotda amoralizm alohida bir shaxsning maʼnaviy etuk

emasligi yoki jamiyatdagi muayyan kishilarni ma'naviy tubanlikka olib keluvchi ijtimoiy holatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Amoralizmning tarixi qadimdan boshlangan, uning individual, guruxlarga xos va ijtimoiy shakllari ma'lum. Yakka shaxsga mansub amoralizm bir kishining axloqiy buzilishi, uning xulq-atvoridagi jiddiy kamchiliklar majmui tarzida namoyon bo'ladi. Guruhlarga xos amoralizm esa jamiyatning biron-bir qatlami, ijtimoiy xarakat a'zolari orasida keng tarqalgan illat (boylikka ruju qo'yish, jamoaviy buzg'unchilik, narkomaniya, alkogolizm, fohishalik va fohishabozlik hamda boshqalar) tarzida ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy amoralizm u yoki bu tarzdagi ma'naviy buzilishning butun jamiyatni qamrab olishi yoki uni majburlash tamoyillarining zurlik bilan amalga oshirilishi (masalan, ateizm, fashizm, ekstremizm, terrorizm g'oyalarning zo'rlik bilan yoyilishi, odamlarni shu yo'llarga o'tishga ommaviy majburlash yoki qadimgi Pompeydagi ommaviy ma'naviy buzilish holati) tarzida sodir bo'ladi. Amoralizmning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy shakllari ham mavjud. XIX asr o'rtalarida G'arbda an'anaviy madaniyatning inqirozi davrida amoralizmning boshqacha shakli — immoralizm g'oyalari rivojlana boshlagan. Bu g'oyalarning mazmuni shuki, ularda ma'naviylikning to'la siyosiy maqsadlarga bo'ysundirilishi lozimligi uqtiriladi. Amoralizmning o'ta shafqatsiz, insoniylikka zid, yovuz shakli fashizm g'oyasi va amaliyotida o'z ifodasini topdi. Buning eng asosiy ko'rinishi shaxsga (fyurer)ga sig'inishdir.

Bu sig'inishda har qanday vijdoniy mezonlar rad etiladi. Tarixiy jarayonlar shundan dalolat beradiki, jamiyatda insonga muhabbat, hurmat, vijdon, axloqiylik mezonlari buzilishi amoralizmga olib keladi. Shu sababdan unga va uning turli ko'rinishlariga qarshi kurash ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyatga ega. Amoralizm kishilarning ma'naviy buzilish oqibatida shakllanadigan, rasman tan olingan yoki amalda mavjud bo'lgan axloq meyorlari, baholar, an'analar, xulq-atvor namunalari tizimiga mos kelmaydigan xatti-xarakati, xulqidir. Amoralizmni belgilash mezonlari mutlaq yoki nisbiy bo'lishi mumkin. Ayrim shaxs yoki guruhlarning umuminsoniy ma'naviyat meyorlariga mos kelmaydigan xatti-xarakati va xulqi tom ma'noda g'ayri axloqiy deb baholanadi. Yolg'on so'zlama», «ota-onangni

xo‘rlama», «zo‘ravonlik qilma», «birovning joniga qasd etma», «o‘g‘rilik qilma», «boshqalarga yomonlikni sog‘inma» kabi oddiy axloqiy mezonlar insoniyat tomonidan asrlar mobaynida asrab-avaylab kelingan, vaqt sinovidan o‘tgan va umume’tirof etilgan.

Bir bolaga etti mahalla ota-ona, degan ko‘hna maqolimiz bor. Demak har birimiz shu Vatan, shu yurt uchun, uning musaffo ertasi uchun mas‘ulmiz. Donolardan biri “beparvolik tufayli dunyoda hiyonat va qotilliklar mavjud” degan edi. Yurtboshimiz ham o‘zlarining “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida bu haqda shunday yozadilar: “Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko‘raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo‘lmagan, ularga ishonmagan odam qo‘rqinchlidir”. Yonidagi bemorga e’tiborli bo‘lish, xayr-saxovatni unutmagan, ota-onasi, ajdodlari qabrini ziyorat qiladigan odam ezgulikni kasb qilgan odamdir. Farzandlarimizga ezgulik sifatlarini yuqtirmasak, ajdodlarimizning bu boradagi oliyjanobligini aytib turmasak, ular loqayd va beparvo bo‘lib ketaverishi mumkin.

Daunshifting

Daunshifting (ingl. downshifting, avtomobil tezligini pasaytirish, u yoki bu jarayonni sekinlashtirish, sustlashtirish). Termin «o‘zi uchun yashash», “boshqalar bilan bog‘liq maqsadlarni rad etish” falsafasining maqsadini ifodalaydi.

Daunshifterlar jamiyat tomonidan qabul qilingan qadriyatlardan yuz o‘g‘irgan, umum manfaatlaridan, jamiyat farovonligi, tinchligi kabi qadriyatlar uchun mehnat qilish o‘rniga o‘zi uchun yashashni ustun qo‘yadi.

Boshqacha qilib aytganda daunshifting bu — doimo bir tomondan daromad bilan stress, ikkinchi tomondan – kam zo‘riqish evaziga erishiladigan halovat o‘rtasidagi tanlovdan iborat. Daunshifterlar biznes yoki zo‘riqtiradigan, asabiylashtiradigan ishni tashlab, o‘zi yoki oilaviy hayot uchun ko‘proq vaqtga ega bo‘lishni afzal ko‘rishadi.

Daunshifting mafkurasi va tushunchasi XX—XXI asrlarda G‘arbiy Yevropada paydo bo‘ldi. Keyinchalik Rossiyaga kirib keldi. Hozirgi kunda Rossiyada daunshifterlar hamjamiyati faoliyat yuritmoqda. Mafkuraviy jihatdan xippiga, falsafiy jihatdan nyu-eyj, buddizmga yaqin oqim bo‘lib hisoblanadi.

Daunshifting vakillari o'zlarini "iste'mol jamiyati" ideallariga qarshi protest bilan chiquvchilar deb biladilar. "Iste'mol jamiyati"ni insonni shaxs sifatida rivojlanishiga qarshi turishda – "odamning odamiylikdan begonalashtirishda" ayblaydilar.

«Daunshifting» tushunchasi birinchi marta 1994 yili nyu-yorkdagi Trends Research Institute nashrida paydo bo'ldi. Keyinchalik u Buyuk Britaniyada, Avstraliyada va AQShda keng tarqalib ketdi.

Tarixda ayrim kishilarning o'z ma'naviy kamolotlari yo'lida karyeradan, ijtimoiy statusdan, boylikdan voz kechganligiga misollar ko'p uchraydi. Misol uchun bundan 2500 yil ilgari Shakya - Muni urug'i vakili shahzoda Siddxartxa Gautama (Budda), monaxlik uchun o'z uyi, oilasi, merosi, mulkidan voz kechib, azoblardan qutulish yo'llarini o'rganishga o'zini bag'ishlagan.

Mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat poydevoriga qurilayotgan fuqarolik jamiyati asosi, istiqboli va taraqqiyotini sog'lom farzandlar va komil insonlar tashkil etadiki, bu ayniqsa bugungi kunimizning dolzarb masalasi sifatida bir qator vazifalarni hal etish bilan bog'liq jarayondir. Yurtboshimiz tomonidan 2014 yil "Sog'lom bola" yili deb nom berilishi avvalambor, bolalarimizning sog'lig'i, ularning kelajagi haqida ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir. "Bizning vazifamiz, kerak bo'lsa, oliy burchimiz,- deb ta'kidlaydi I.A.Karimov, -farzandlarimiz ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan uyg'un rivojlangan, zamonaviy bilim va tajribalarni puxta egallagan, Vatanimiz va xalqimiz kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol insonlar bo'lib etishi uchun qo'limizdan kelgan barcha-barcha ishlarni amalga oshirishdan iborat".

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini amalga oshirishdagi islohotlar sog'lom bolani shakllantirish bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda oila instituti uning ilk ma'naviy o'chog'i vazifasini o'taydi. Shunga ko'ra sog'lom oila sog'lom bolalarning dunyoga kelishi va komil insonlar shakllanishining asosidir. Sog'lom deganda nafaqat jismoniy sog'lomlik, balki

ma'naviy-axloqiy shakllanganlik, etuklik, aqlan teranlik, sog'lom fikrlilik va mafkuraviy immunitetining mavjudligi nazarda tutilmog'i lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sog'lom oilani shakllantirmay, sog'lom bolani ham tarbiyalab bo'lmaydi.

Milliy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida qadriyatlarimizning istehkomi bo'lgan oila tizimi bugungi globalashuv jarayonida mafkuraviy tahdidlarning asosiy nishoni bo'lib qolmoqda. Tahdidlarning xavfi shundaki, ular "shaxs erkinligi", "demokratiya", "inson huquqi" niqobi ostida oilaviy qadriyatlarimizga mutlaqo yot ahloqsizlik falsafasini yoshlarimizning dunyoqarashi, e'tiqodiga singdirishga harakat qilmoqdalar.

Kishilarni, ayniqsa, yoshlarni o'ziga ohangrabodek jalb etadigan "ommaviy madaniyat" ushbu maqsadning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur "madaniyat" o'smirlarning shahvoniy his-tuyg'ularini junbushga keltiradigan va shu orqali ularni milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularidan mosuvo qilib, ruhiy giyohvandlarga aylantirishga, nikoh, oila degan muqaddas maskan mohiyatiga qarshi qaratilgan individualizm, egoizm ruhiyatidagi mafkuraviy og'udir. Bunday og'udan xastalangan kimsalar esa oila, nikohning muqaddasligi, sevgi-muhabbat, vafu va sadoqat, farzand, mas'uliyat, burch tushunchalarining qadr qimmatini unitadilar.

So'ngi yillarda bir qator G'arb mamlakatlarida surunkali kechayotgan ma'naviy inqiroz, eng avvalo, oila tizimining axloqiy jihatlariga darz ketganligi bilan izohlanadi. Amerikalik taniqli siyosatshunos, sotsiolog Patrik Byukenen "G'arbning halokati" nomli asarida oila ijtimoiy institutining tanazzuli bois rivojlangan G'arb mamlakatlarida, shu jumladan, o'z yurtida tug'ilishning yil sayin kamayib borayotganligi haqida tashvishlanib, quyidagi faktlarni keltiradi: agar 1970 yilda AQSHda 523 ming kishi oilasiz (nikohsiz) yashagan bo'lsa, 2000 yilga kelib bundaylarning soni 6,5 milliongacha etgan, ya'ni 1000 (!) foizga oshgan.

Agar oila tizimi inqirozi bilan bog'liq ushbu jarayon shunday davom etsa, kelajakda farzandlarimizning ma'naviy- axloqiy tarbiyasida ham global muammolar yuzaga keladi. AQSH va G'arb mamlakatlaridagi oila inqirozining

asosiy sabablaridan biri shundaki, uning ahloqiy jihati aytish joiz bo'lsa, "shaxs erkinligi" oyog'i ostida toptalganligidir. Axir insonning biologik mavjudot sifatidagi g'ayriaxloqiy istak, mayllari quyushqondan tashqaridagi erkinligi qonun yo'li bilan himoya qilinadi, rag'batlantiriladi. Masalan, AQShning Vermont shtati qonun ijodkorlari bir jinslilar nikohini qonuniylashtirishga erishadilar va bu qaror Senatda ham qo'llab-quvvatlangan. Bu bugungi kunda 12 ta davlatda qo'llab quvvatlangan.

XX asrning oxirlarida molekulyar biologiya, genetika sohasida erishilgan yutuqlar ta'sirida G'arbda yangi yo'nalishdagi liberal evgenika g'oyasi qayta tiklanadi. Yevgenika (yunon. engines-zotdor) – bu insonning irsiy sog'lomligi, uni tabiiy – biologik jihatdan mukammallashtirishga ta'sir ko'rsatish haqidagi ta'limot bo'lib, bunda uning ma'naviy–axloqiy mavjudot ekanligi inobatga olinmaydi. Yangi yo'nalishdagi evgenika, garchi genterapiyasi, ya'ni anomal genlarni "to'g'rilash" ga qaratilgan bo'lsa–da, lekin ushbu amaliyotning axloqiy jihatlari e'tibordan chetda qoldiriladi.

Sog'lom bola sog'lom oilada shakllanib uning muhim shartlardan biri bu nikohdir. Nikoh, oilaviy mulk va farzandlar tarbiyasi oila tizimining tarkibiy qismlari bo'lib, ularning o'zaro uyg'unlikda amal qilishi ushbu tizimning ma'naviy – axloqiy maqomini belgilaydi.

Nikoh – bu erkak va ayol jinsining er-xotin bo'lib umrlari davomida bir-biriga vafodorlikda yashashlari haqidagi qasamyodi va unga berilgan fatvodir. Va bunday qasamyod va fatvo huquqiy majburiyat hamda ixtiyor erkinligi bo'lgan ahloqiy tamoyili muhabbat va vafodorlik birligi, mushtarakligiga asoslanadi.

Avval-azaldan turli millat va elatlar, buyuk faylasuf va dono insonlar tomonidan nikoh muqaddas deb hisoblab kelingan, undan tug'ilajak farzandlar mamlakat kelajagi sifatida qayg'urishga chorlagan. Yunon faylasufi Aflotun oila muammolarini huquqiy jihatlari bilan birga ma'naviy va axloqiy jihatlari asoslab "Avlodlar eng oqil ota- onadan tug'ilishlari zarur... butun umr davomida ham va asosan tug'ish vaqti kelganida ehtiyot bo'lish va ixtiyoriy ravishda zarar keltiruvchi, behayo va adolatsiz ishlar qilmaslik kerak. Chunki bularning hammasi

bolaning dili(ruhi) va badaniga muhrlanib qoladi va bolalar yomon bo‘lib tug‘iladilar” deb ta’kidlar ekan, sog‘lom bola sog‘lom oiladan shakllanishiga bog‘liqligi va u mamlakat, millat kelajagi ekanligini alohida uqtiradi.

Shuningdek, qadriyatlarimiz qonunlarida xalqimiz ota-onaning o‘g‘il-qizlarini el-yurt uchun munosib qilib voyaga etkazish, tarbiyalashni azaliy udum deb bilganlar. Bu xalqimizning milliy qadriyatlari va diniy urf- odatlarida namoyon bo‘lib, bugungi kunda mamlakatizda olib borilayotgan tub islohotlarida ham o‘z aksini topmoqda.

Sog‘lom bola tarbiyasi va mas’uliyatida oila ma’naviy- axloqiy maskan sifatida mamlakatimizda o‘ziga xos modeldagi huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy omili sifatida belgilovchi rol o‘ynaydi. Chunki davlat va jamiyat, shaxs o‘rtasidagi munosabatlar huquqiy va ahloqiy norma, qonun, qoida va tamoyillarning o‘zaro birlikda amal qilishi orqali uyg‘unlashadi. Mazkur uyg‘unlikka esa, asosan, sog‘lom oilada shakllanadigan ma’naviy-ahloqiy makon muhitida erishiladi.

Bu esa bugungi kunda sog‘lom bola tarbiyasini hal etishda sog‘lom muhitda shakllangan oilani ma’naviy shakllantirish va uni mafkuraviy tahdidlar, xususan, “ommaviy madaniyat” xurujiga qarshi turish, kurashish yo‘nalishida olib borishni talab etadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishning zaruriy sharti–bu axloqiy, estetik va huquqiy tarbiyani uyg‘ulikda olib borish va bunda ota–onalarning o‘z farzandlarini voyaga etkazish, tarbiyalashga bo‘lgan ma’naviy- axloqiy va konstitutsiyaviy burchi oldidagi mas’uliyatini oshirishdir.

XXI asr boshida ham zamonaviy tadqiqotchilar xuddi shunday hodisalarni qayd etib kelmoqdalar. “Zamonaviy moyilliklar kumulyativ tusga ega va madaniyat hamda uning asoslari mohiyatiga ta’sir etgan qator o‘zgarishlar keltirib chiqardilar. Shulardan asosiylari: madaniyatning tijoratlashuvi, demokratlashuv, ham ilm-fan, ham texnika sohasida chegaralar mavhumlashuvi, – shuningdek asosiy e’tiborning mohiyatdan jarayonga ko‘chishi va h.k.”.

Fanning ommaviy madaniyatga munosabati ham o'zgarib bormoqda. Karl Yaspers ommaviy madaniyatni "san'at mohiyatining tushkunligi, inqirozi" deb atagan bo'lsa, bu kabi qarashlar 1960-1970 yillar postmodernizm doirasida qayta ko'rib chiqilib, u ko'plab tadqiqotchilar uchun ommaviy madaniyat va saylanma madaniyat qarama-qarshiligiga chek qo'ydi.

Iste'molchilik psixologiyasi. Boylikni ko'z-ko'z qilish.

Boylikni ko'z-ko'z qilish (kiygan kiyimlarini, egan ovqatini ko'z-ko'z qilish, uyini, boyligini ko'z-ko'z qilish) — isrofgarchilik, ortiqcha sarf-xarajat orqali o'z boyligini, daromadini namoyish qilish. Buni jamiyatda o'z obro'ga erishish va uni saqlab turish vositasi deb bilish. Ingliz tilida «keeping up with the Joneses» («birovdan kam bo'lmaslik» iborasi ishlatiladi. Yana bir ibora - Invidious consumption, odamlarda hasadini keltirish uchun, degan ma'noda qo'llaniladi.

Tushuncha iqtisodchi va sotsiolog Torsteyn Veblenning "Boylar sinfi nazariyasi"(Nyu York, 1994 y.) kitobida ilk bor qo'llanilgan. Veblen bu tushunchani 19 asrda, Ikkinchi sanoat inqilobi davrida o'z qo'llariga katta kapitalni to'plab, boshqalardan boyib, ajralgan nuvorishlarning xulq-atvorini ifodalash uchun ishlatgan.

20 asrga kelib, odamlarning turmush darajasi ko'tarilib, o'rta sinf yuzaga kelgach, termin xarid qilingan tovarlarni ishlatish uchun emas, balki o'z obro'sini, statusini ko'rsatib qo'yish uchun xarid qilishga ishlatila boshlandi. Keyinchalik bu tushuncha salbiy odat, gedonizm ma'nolariga qo'shib ishlatila boshlandi.

Tadqiqotlar bu hodisaning rivojlanayotgan mamlakatlarning kambag'al toifalari orasida ko'p uchrashini ko'rsatgan. Qimmatbaho narsalarni namoyishkorona sotib olish ularni odamlar nazarida kambag'al, daromadi kam, degan qarashdan xalos qiladi, deb o'ylashgan. Bu fikrni 1998 yil chop etilgan «Mening qo'shnim — millioner» (angl. «The Millionaire Next Door») kitobi ham tasdiqlaydi. Unda boy amerikaliklar tejamkor va kamtarona turmush kechirishi tasvirlanadi.

1950-yillarga kelib AQShda katta imoratlar qurish va sotib olish odati paydo bo'ldi. Uylar hajmi 50 yilda ikki baravar kattalashdi. O'sha davrga kelib qudratli

jiplarni sotib olish epidemiyasi boshlandi. Bu ham ko'rgazmali iste'molning ramziga aylandi. Odamlar juda katta imoratlarni(imorat yonidagi maydonni kamayishi uchun qo'shimcha pul to'lab) sotib ola boshladilar. Ishdan uygacha 2 soatlik masofa bo'lsa-da, qasrlarni sotib ola boshladilar.

Boylikni ko'z-ko'z qilish – “boshqalarga o'xshamaslik uchun to'lov” shaklini oldi.

Dik Meyyer CBS News ko'rsatuvida Boylikni ko'z-ko'z qilishni odamlardan ajralib, faol aloqa, munosabatdan ajralib qolganlik uchun jamiyatga qarshi “agressiv maqtanchoqlik, ko'z ko'z qilish” (angl. «aggressive ostentation») deb atagan.

“OMMAVIY MADANIYAT” – pop-madaniyat – mazkur jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo'lgan madaniyat. U o'z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, pop-musiqqa), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi. Ommaviy madaniyat mohiyatiga ko'ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to'lib toshgan. Ommaviy madaniyat o'z nomi bilan omma, ya'ni ko'pchilik ehtiyojiga mo'ljallangan bo'lib, bu shakl va mazmun standartlashganligi, shuningdek tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni taqozo etadi.

Mohiyati:

An'anaviy madaniyat

XVIII va XIX asrlarda ommaviy madaniyat

XX asr

An'anaviy madaniyat

Ertaklar, rivoyatlar, qahramonlar obrazlari va boshqa shu kabi hodisalar an'anaviy madaniyat tarkibidan o'rin olib, ularda ko'p miqdordagi odamlar hayotidagi yirik voqea-hodisalar to'g'risidagi xotira va to'qima birikib ketadi. Ko'pincha xalq madaniyati namunalari hayotiy donolik namunalarini aks ettirib, u muayyan-tarixiy sharoitlarda o'z tasdig'ini topadi va avlodan-avlodga hikoyalar,

rivoyatlar tarzida o'tib kelaveradi. Aksariyat hollarda ularda haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar emas, balki odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar aks etib, hikoya qiluvchi tasavvurining boyligiga bog'liq ravishda to'ldirilib, ularning yaxshilik va yomonlikka, ideal jamiyatga oid tushunchasi bilan boyitib boriladi.

Shuningdek, kino va rassomlik san'at turlari ham yutuqlaru-kamchilik girdobida turibdi. Bu sohalarda aktyor va ijodkorlarga e'tiroz yo'q. Ammo, matn va rejissurada, syujetda e'tiroz bor. Ikkita savol tug'iladi: ko'pchilik e'tiboriga va e'tirofiga sazovor bo'ladigan film nega yaratilmayapti? Qaysi kartinamiz dunyo miqyosida e'tirof etildi?

Keltirilgan mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, musiqa, qo'shiqchilik, kino va rassomlik san'atlarimizga oid muoammolarni o'z vaqtida va tezkor ravishda hal qilishimiz lozim bo'ladi. Bu bilan yoshlarimizga chinakam ma'nodagi san'at namunalarini taqdim eta olamiz.

Barkamol avlod tarbiyasida san'atning o'rni masalasi haqida gapirganda bir necha masalaga e'tibor berishimiz lozim bo'ladi. Bizning nazarimizda, ularning eng muhimlari quyidagilardan ibroat:

1. San'atimizni milliy g'oya ruhida rivojlantirish. Unga ko'ra, san'at asralarimizda Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligiga yo'naltirilgan ruh ustuvor bo'lishi kerak. Aslida tinchlik, taraqqiyot va farovonlik g'oyalari asos bo'lmagan san'at asari inson rivojiga xizmat qilmaydi.

2. San'atimiz milliy merosini keng ko'lamda targ'ib qilish. Bu borada ilmiy va amaliy harakatlar uyg'un olib borilishi kerak. Sir emas, san'atimiz milliy merosini barmoq bilan sanarli kishilar chuqur bilishiga da'vogarlik qilishadi va qizig'i shundaki, o'z bilganlarini yoshlarga o'rgatishga u qadar shoshilishmaydi. San'atimizning milliy merosi (mumtoz qismi)ni keng ommalashtirishimiz lozim.

3. Jahon san'atining ilg'or namunalarini o'rganish. Bu ish bugungi stixiyali kechmoqda. Jahon san'atining ilg'or namunalarini o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilmagani uchun, ko'pchilik, ayniqsa yoshlar uni o'z bilganicha o'rganmoqda. Natijada didsiz va past saviyali san'at namunalari kirib kelmoqda.

Ma'lum bo'ladiki, barkamol avlod tarbiyasida san'atdan unumli foydalanish

uchun keng ko‘lamli va maqsadli dasturga ega bo‘lishimiz kerak.

“Ommaviy madaniyat” va musiqa.

Barkamol avlod tarbiyasida san‘atning o‘rni beqiyos. Bugungi kunda san‘atning turlari keng ko‘lamligi bilan diqqatni tortadi. Ayni paytda, ular orasida musiqa, qo‘shiqchilik, kino va rassomchilik san‘atkorlarining yoshlarni ko‘proq jalb etayotganligi real hodisaga aylandi. Bu san‘at turlari yosh avlodga ma‘naviy zavq berish bilan birga, ularni yuksak maqsadlar sari yo‘naltirish vazifasini ham o‘tamoqda.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat yoshlar bo‘sh vaqtlarini musiqa va qo‘shiq tinglash bilan o‘tkazishadi. Salmoqli qismi esa yangi filmlarni tomosha qilish yoki turli ijodiy ishlarni bajarish bilan bo‘sh vaqtlarini o‘tkazishadi. Bu hol ikki xulosani beradi: 1) yoshlarimizning san‘atga qiziqishi va undan ruhlanishi talab darajasida; 2) yoshlarga taqdim qilinayotgan san‘at asarlarining saviyasi yuksak darajadami?! Shu ma‘noda yaratilayotgan san‘at asarlarining saviyasi barchamizning diqqat markazimizda bo‘lishi tabiiy holdir.

Keyingi yillarda yoshlarimizni nisbatan ko‘proq o‘ziga jalb etayotgan san‘at turi-bu albatta, musiqadir. Ular mumtoz, milliy estrada va jahon musiqiy merosidan bahramand bo‘lmoqda. Biroq, yoshlarning zamonaviy va milliy estrada musiqaga ko‘proq qiziqtirayotganligi sir emas. Mazkur masala musiqa mutaxassisidan tortib, barkamol avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi keng jamoatchilikni hushyor torttirishi tabiiy hol. Negaki, milliy estrada va zamonaviy jahon estrada musiqachiligida yangilanishlar jarayoni kechmoqda. Bu yangilanishlar jahon xalqlari musiqa merosidan unumli foydalanish bilan birga, ba‘zida manipulyatsiya ruhidagi “musiqa”larni ham taqdim qilishga urinmoqda. Musiqa atalmish qurama ohanglar majmuasidan iborat shovqin yoshlar ongini manipulyatsiya qiladi. Buning natijasida yoshlarning ongi, estetik didi va ruhi susayib, musiqadan chinakam ma‘noda zavqlanish va ruhlanish hissi yo‘qoladi.

Bunday fikrlarni qo‘shiqchilik san‘ati haqida ham aytish mumkin. Hozirgi milliy estrada qo‘shiqchilik san‘atimiz keng ko‘lamda rivojlanib borayotgani holda, milliy mintalitetimizga yot bo‘lgan yo‘nalishlar ham kirib kelayotgani ham

mutaxassislarni hayajonlantirmoqda. Masalan, shaxsan men “repper”ni zamonaviy estarad qo‘shiqchilik san’at turi ekanligiga ishonmayman.

Gedonizm. (qadimgi yunon, hedone – “zavqlanish”, “rohatlanish”) — insonning butun hayot mazmuni rohatlanishdan iborat, degan g‘oyani ifoda etadigan tushuncha. Gedonizmga binoan rohatlanishga intilish insonning tabiiy ehtiyoji, hayotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Gedonizm ta’limotining asoschisi Suqrotning zamondoshi Aristippdir (e.av. 435—355 y.y.). Aristipp inson ruhining ikki holatini — rohatlanish va og‘riqni farqlaydi. Birinchisiga yumshoqlik va mayinlik xos bo‘lsa, ikkinchisi qo‘pol va ruhiyatning kuchli silkinishlaridan iboratdir. Aristipp fikricha, inson og‘riqdan qochishi va iloji boricha rohatlanishga intilishi oqibatida baxtga erishishi mumkin, jismoniy ehtiyojlarni qondirish esa inson hayotining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bu ta’limotga binoan, huzurhalovat, rohatlanish baxsh etmaydigan harakatga e’tibor qaratish va kuch sarflash arzimaydi. Darhaqiqat, tushuncha inson hayotini rohatlanish va tanaga zavq berish sifatida talqin etish ma’lum asosga ega. Rohatlanish bir qancha omillar orqali his etilishi va mohiyati jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin: a) shaxsning o‘z ustida ishlash natijasida biron-bir nuqsonni bartaraf etishi; b) birovning tazyiqi va ta’siridan qutulish; v) biron-bir ezgu ishni amalga oshirish orqali insonning yuksakligini namoyon qilish; g) o‘z-o‘zini ifoda etish. Rohatlanish insonning jismoniy yoki ruhiy zo‘riqish holatining mo‘tadillashuvi, zarur hayotiy funksiyalarining tiklanishida ifodalanadi. Gedonizm rohatlanishning aynan ana shu talqini negizida keyinchalik yuzaga keladi. Gedonizmning mohiyati yillar davomida o‘zgarib va rivojlanib borgan. Natijada gedonizm haqidagi barcha ma’lumotlar psixologik va axloqiy etik gedonizmga ajratilgan. Gedonizmning psixologik talqinida insonni harakatga undovchi asosiy kuch bu — zavqlanish va rohatlanishga intilish, deya e’tirof etiladi. Axloqiy-etik gedonizm esa, inson o‘zining yoki o‘zga kishilarning rohatlanishi uchun yashashi kerak, degan g‘oyani targ‘ib etuvchi turli xil falsafiy yondashuvlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Masalan, gedonizmni rohatlanish sifatida targ‘ib etuvchi yondashuvlardan birining asoschisi Epikur insonning yotsirashdan va jirkanishdan xalos bo‘lishi bu xohish

istaklarni qondirish deya talqin etadi. Bu yondashuvda inson ehtiyojlarining qondirilishi emas, balki azob va baxtsizlikdan xalos bo'lish maqsadi ifoda etilgan. Inson hayotini gedonistik yondashuv asosida talqin qilish falsafa tarixida markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan va ko'plab faylasuf-mutafakkirlar ijodida o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. Fransiya faylasufi I. Bentamning yozishicha, «Tabiat insonni ikki asosiy borliq: azob va rohat girdobiga tushirgan. Ular bugun biz nima qilishimiz va ertaga nima bilan shug'ullanishimizni belgilab beradi. Hatto haqiqat va yolg'on, sabab va oqibat mezonlari ham ana shu ikki asosiy negizga tayanadi». Gedonizm ta'limotida insonning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy meyorlarga qarama-qarshi qo'yiladi, inson erkinligini cheklovchi va uning o'ziga xos xususyatlarini namoyish etishga to'sqinlik qiluvchi har qanday ijtimoiy shart va meyorlar inkor etiladi. Gedonizm ta'limotining ijobiy jihati shundaki, u o'rta asrlar falsafasida diniy dogmatizmga, axloqni sof-diniy talqin etilishiga qarshi chiqqan edi. Hozirgi davrda ham insonning hayot mazmuni shaxsiy ehtiyojlarni qondirishdangina iborat, degan g'oyani yoqlab chiqadiganlar oz emas. Ular faqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish hayotining mazmuni deb biladi va bu yo'lda mavjud ijtimoiy qonun-qoidalarga bepisandlik bilan qarash, hatto ularni inkor etishgacha boradi. Zamonaviy gedonistlarning «Ishlaging kelmasa — ishlama, eng yaxshi narsaga ega bo'lmoqchimisiz, uni qo'lga kirit» shiori ularning hayot mazmuniga aylangan. Bunday qarashlarning ma'naviy qadriyatlarga zid jihati shundaki, gedonistlar har qanday yo'l bilan rohatlanishga erishadi, bu yo'lda boshqalar manfaatini suiiste'mol qiladi, jamiyat talablarini nazar-pisand qilmaydi, umrini aysh-ishrat bilan o'tkazishga intiladi. Ayniqsa, katta shaharlarning paydo bo'lishi va ularga xos bo'lgan turmush tarzi gedonistik qarashlarning keng tarqalishiga imkon yaratadi. Ayrim olimlar gedonizmning mohiyatini insonning jinsiy mayllari bilan bog'liq holda talqin etishga intiladi. Ularning nazarida, jinsiy rohatlanish asosida yuzaga keladigan hissiyotlar jinsiy maylni yanada kuchliroq qondirishga undaydi va shu tariqa asosiy e'tibor faqat rohatlanishga, lazzatlanishga qaratiladi.

SHAHVATPARASTLIK VA ZO'RAVONLIK – ibora, mafkuraviy klishe bo'lib, publitsistikada shahvatparastlik hamda zo'ravonlik sahnalari mavjud

ma'lumotni tarqatishga qarshi qaratilgan.

1950 yil 4 noyabridagi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyasiga binoan televideniya "aholi sog'lig'i va ma'naviyati"ni asrash maqsadida cheklovlar joriy etishga ruxsat etiladi.

Yevropa hamjamiyatining 1988 yilgi ko'rsatma(direktiva)sida aytilishicha, hamjamiyat ishtirokchisi bo'lgan mamlakatdan olib berilayotgan dasturlar translyatsiyasini, agar ular balog'atga etmaganlar rivojiga putur etkazishi mumkin bo'lgan hollarda uzib qo'yishga ruxsat etiladi.

Kaliforniya, Shimoliy Karolina, Texas va Viskonsin universitetlari xodimlari o'tkazgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, kuch va tahdid ishlatish targ'ib va tashviq etilishi o'smirlarda agressiv xulq-atvor shakllanishiga olib keladi.

"Rossiya Federatsiyasida bola huquqlarining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi federal qonunning 14-moddasiga binoan davlat hokimiyati idoralari bolalarni "zo'ravonlik va johillik, pornografiya, narkomaniya, toksikomaniya, jamoatchilikka qarshi xulq-atvorni targ'ib qiladigan nashrlar, audio va video mahsulotlar tarqatilishi"dan himoya qilish choralarini ko'rishlari shart.

1999 yili Davlat Dumasi "Rossiya Federatsiyasida kinematografiya va teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar sohasidagi etika va ma'naviyatga oid Oliy kengash to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qildi, ammo B.N.Yelsin uni imzolashdan bosh tortdi. Telekanallar rahbariyati qonun loyihasini so'z erkinligiga tajovuz qilinishi deb qabul qildi. Shunga qaramay, Rossiyaning ba'zi mintaqalarida bunday ko'rsatuv va sahnalarni cheklaydigan qonunlar qabul qilindi.

Buyuk Britaniya

VVS siyosati talablariga ko'ra, soat 21 ga qadar translyatsiya qilinadigan barcha dasturlar bolalar tomonidan tomosha qilinishi uchun muayyan talablarga muvofiq bo'lishini talab qiladi.

Germaniya

Germaniya Konstitutsiyasiga binoan "yoshlarni himoya qilish maqsadida" axborot uzatish erkinligini cheklashga ruxsat etilgan. Qator telekompaniyalar bolalar va o'smirlar sog'lig'iga zarar etkazishi mumkin bo'lgan dasturlar, ular

bolalar tomonidan tomosha qilinishi ehtimolining qisman bo'lsa ham oldi olinganidan so'nggina ekranga chiqariladi degan qoidaga amal qiladilar.

Fransiya

Fransiyaning Oliy audiovizual kengashi, 1986 yilgi qonun asosida faoliyat yuritib, bolalarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan dasturlarni nazorat qilib boradi. Xususan, uning ko'rsatmasiga binoan, telekompaniyalarga shahvatparast va shunday sahnalari bo'lgan dasturlarni soat 22.30 ga qadar va ular reklamasini 20.30 ga qadar ko'rsatmay turish tavsiya etiladi.

Manba: www.wikipedia.org

Hornby A.S. "Oxford Advanced Learner's Dictionary of
Current English"

Internet (lot, inter - "aro" va net (work) - "tarmoq") — 1) katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'laydigan butun jahon kompyuter tizimi, butun dunyo bo'ylab faoliyat ko'rsatadigan xalqaro axborot almashuvining global kompyuter tarmog'i; 2) turli-tuman masalalar va sohalar bo'yicha ma'lumotlarni qamrab oladigan, uzoq, masofalardan turib aloqani amalga oshirish, elektron tijorat, masofaviy ta'lim, audio, video, tele, tasvir ayirboshlash va umuman, ko'pdan-ko'p yangilik va ma'lumotlarni jamlaydigan elektron axborot vositasi va dasturini anglatuvchi tushuncha. Internetda geografik joy, zamon va makondan qat'i nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlararo o'zaro hamkorlik uning global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi.

«Internet» tushunchasi XX asrning 60-yillaridan shakllana boshlagan. 1969 yilda ARPA (Ilg'or tadqiqot loyihalari) agentligi to'plamlar kommutatsiya qilinadigan eksperimental tarmoq yaratish maqsadida tadqiqot boshlaydi. Tarmoq yaratilib, u g'oyat oddiy hamda qisqa nom — ARPANET, ya'ni agentlik tarmog'i nomini oladi. Tarmoq aloqa tizimida ma'lumotlar oqimini mustaqil uzatish texnologiyalarini o'rganish uchun barpo etilgan edi. Tadqiqot loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshadi. Uni yaratishda qatnashgan ko'pgina tashkilotlar bu tarmoqdan o'z kundalik maqsadlarida foydalana boshlaydi va 1975 yilda mazkur eksperiment ishchi tarmoqqa joriy qilinadi. Bunda tarmoq uchun javobgarlik DCA

(AQSH Mudofaa aloqasi agentligi) zimmasiga yuklanadi. Ayni vaqtda mutaxassislar TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol - Uzatish jarayonini boshqarish protokollari) Internetprotokol asoslarini ishlab chiqishga kirishadi. Aynan ana shu vaqtning o'zida "Internet" atamasi (Interconnected Networks — birlashtirilgan tarmoqlar so'zlarining qisqartmasi) ko'llana boshlaydi. Holbuki, bu vaqtda ARPANET ikkita alohida tarmoqqa: MILNET (G'arbiy tarmoq) — Ma'lumot uzatish mudofaa tarmog'ining nomaxfiy qismi (DDN) va yangi (hajmi kichraytirilgan) ARPANETga bo'lingan edi. O'sha vaqtda bir yo'la har ikkala tarmoq, nazarda tutilishi kerak bo'lgan hollarda esa, Internet atamasi qo'llangan.

O'tgan asrning 90-yillarda «Jahon o'rgimchak to'ri» — Worldwide Web gipermatn sahifalari tizimi vujudga keladi. CERN (Shveysariya) kompaniyasi xodimi Tim Berners-Li hujjatlarni gipermatnli chegaralash tili — HTML tilini ishlab chiqadi. 1993 yilda NCSA (National Center for Supercomputing Application) xodimlari Mark Andressen va Erik Bina ilk brauzer — «Mosaic X»ni ishlab chiqishadi. Keyinchalik Mosaic Communications Internet sahifalari brauzerining birinchi versiyasi — Netscape Navigator 1.0 versiyasini taqdim etadi. Shuni aytib o'tish joizki, 90-yillarda Maykrosoft kompaniyasi butun dasturiy ta'minot bozorini boshqaradi, Netscape Navigator dasturi esa o'zining onlayn imkoniyatlari orqali Windows bilan raqobatlashishi mumkin edi. Shunda Bill Geyts ularning raqobatchi ekanini anglab, xodimlariga bu kompaniyani darhol "o'yin"dan chiqarish to'g'risida buyruq beradi. Shu tariqa brauzerlar qarama-qarshiligi boshlanadi. 1995 yil 7 dekabrda Maykrosoft Internet Explorer (IYE) brauzerini ishlab chiqadi. 1997 yil sentabr oyida brauzerlar qarama-qarshiligi Maykrosoft kompaniyasining g'alabasi bilan tugaydi. O'sha vaqtda Luis Monye Alta Vista qidiruv tizimini ishlab chiqadi. Shu vaqtning o'zida esa Sietldagi bo'lajak «Internet do'konlar qirol» — Amazon ish boshlaydi. 90-yillar oxirlariga kelib, Compaq kompaniyasi Alta Vista qidiruv tizimini 3 million dollar evaziga sotib oladi. O'shanda dastlabki internet auksionlar, portallar, shuningdek, internet tarmog'ida birinchi marta MRZ formatidagi musiqiy fayllar paydo bo'ladi. Oradan

bir yil o'tgach, 1998 yilning mart oyida Netscape kompaniyasi jahon navigatorining boshlang'ich kodlarini ochadi va butun dunyodagi kompyuter ixlosmandlari birlashib, Mozilla Organization deb nomlangan hamjamiyat - kichik loyihaga asos soladi. Keyinchalik u Mozilla Foundation deb qayta nomlanadi. Hozirgi kunda internet brauzerlar juda ko'payib ketgan. Ular orasida eng ommalashganlari, albatta — Internet explorer, Flock, Netscape, Mozilla Firefox, Avant browser va boshqadir.

Ma'lumki. 90-yillarning o'rtalarida internet tarmog'iga tijorat nuqtai nazaridan qaralmas edi. Ammo 1995 yilning oxirlarida Yahoo kompaniyasi birinchi bo'lib internetda reklama targ'ibotini boshlaydi va internet orqali daromad ko'rish mumkinligini tushunib etadi. Tez orada Yahooning raqiblari ham paydo bo'ladi. Ularning orasida eng xavflisi talabalar tomonidan yaratilgan Excite edi. Ammo Yahooga qaraganda Excite takomillashtirilgan tizimdan foydalanar edi. O'sha kezlarda ko'proq daromad topish maqsadida Yahoo va Exciteda reklamalar, foydali maslaxatlar, pochta servislari va chatlar tobora ko'payib, bu qidiruv tizimlari ko'ngilochar portallarga aylana bordi. Yahoo va Excite o'rtasidagi raqobat shafqatsiz edi, ammo qidiruv tizimlari o'zlarining dastlabki yo'nalishlari bo'lgan ma'lumot qidirishni unutib qo'ydi. Zarur ma'lumotni topish lozim bo'lganda Yahoo va Excite keraksiz narsalarni chiqarib berardi. Ba'zan kerakli ma'lumotlarni izlab topish uchun bir kunlab vaqt ketardi. Shu bois keskin tarzda farqlanuvchi yangilik zarur edi va buning javobi Stenford universitetida topiladi. Sergey Brin va Larri Peyjlar 1998 yilning birinchi yarmida yangi, istiqbolli texnologiyani rivojlantirib, bu yangi qidiruv tizimiga Google deb nom berishdi. O'sha paytda Stenford universitetining yotoqxonasidagi Peyjning xonasi ma'lumotlarni qayta ishlash markazini, Brin xonasi esa ishchan ofis vazifasini bajarar edi. Og'aynilar o'z g'oyalarini sotmoqchi bo'lishganida muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunda ular biznes reja tayyorlab, o'z kompaniyalarini tashkil etish uchun mablag' izlashga tushadi. Natijada dastlabki investitsiyalar hajmi 1 million AQSH dollarini tashkil etadi. Bu pullar qarindosh va do'stlardan, shuningdek, investorlardan to'planadi. Jumladan, Sun Microsystems

kompaniyasi tashkilotchilaridan biri Endi Bextolsxaym g'oya mualliflariga 100 ming AQSH dollariga chek beradi. Google qidiruv tizimi kuniga 10 mingta so'rovga javob beradi va PC Magazine jurnali tomonidan 1998 yilning eng yaxshi 100 ta internet sayti qatoriga kiritiladi. Bugungi kunda Google eng mashhur va muvaffaqiyatli qidiruv tizimlaridan biri hisoblanadi, uning asoschilari Brin va Peyning daromadi esa bir necha milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Bugun kompyuter texnologiyalari hayotimizda mustahkam o'ringa ega, kompyuter savodxonligi ko'rsatkichi esa ko'p hollarda insonning saviyasini belgilab beradigan omilga aylanib bormoqda.

Endilikda kompyuterda ishlashni bilmaydigan xodimni yaxshi mutaxassis deyish qiyin. Agar o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida yoshlarning eng sevimli mashg'ulotlari musiqa tinglash va teleko'rsatuvlar ko'rish bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa kompyuter va internet avvalgi qiziqishlarni yosh avlod hayotidan siqib chiqardi. Zamonamiz yoshlarining 70 foizi o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlari haqida so'z yuritganda sport, do'stlar bilan suhbatlashish, ma'naviy va madaniy hordiq chiqarish bilan bir qatorda kompyuter texnologiyalari, internetga bo'lgan qiziqishini birinchi o'rinda tilga oladi. Nielsen/Net Ratings kompaniyasi o'tkazgan so'nggi ilmiy tekshiruv natijalariga ko'ra, butun dunyo tarmog'iga ulanayotgan yosh bolalarning soni kun emas, soat sayin oshmoqda: birgina 2007 yili Yevropada yosh avlod vakillarining uchdan bir qismi onlayn tizimidan foydalangani kuzatilgan. 2008 yili dunyo axborot tarmog'ida 10 million yosh "sayr" qilgan bo'lsa, hozirda ularning soni allaqachon 13 milliondan oshib ketdi. Bu ko'rsatkich kundan-kunga ko'paymokda. Bunday onlayn hayotda yashaydigan yoshlarning katta qismi — 4,5 millioni Buyuk Britaniyaga to'g'ri keladi. Ular har kuni elektron manzillarini tekshiradi, turli xil saytlardan ma'lumot izlaydi va chat (global tarmoqdagi suhbatxona)lar orqali muloqotda bo'lishadi. Germaniyada hozircha 3 million, Fransiyada esa 1,5 million yosh vaqtini asosan onlayn tizimida o'tkazadi. Bir yildan so'ng bu ko'rsatkich ikki barobarga oshishi kutilmokda. Yosh avlodning kompyuter savodxonligi yuqori, bugun hatto olti yashar bolalar ham blutus (bluetooth) va spam nimaligini kattalarga nisbatan yaxshi biladi. Dunyoning

rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada o'n etti yoshgacha bo'lgan 6 ming bola o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, internetdan faqat axborot olish maqsadida foydalanilmas ekan. So'rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har o'ntasidan sakkiz nafari uyda ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirgan. Kanada yoshlarining yarmidan ko'pi internet va kompyuter texnologiyalarini ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internetga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo'lgan filtrlash dasturini o'rnatib qo'ymagani va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Umuman olganda, aksariyat ota-onalar, aniqrog'i, ularning 65 foizi farzandlari internetdan faqat uy vazifasini tayyorlash uchun foydalanadi, degan fikrda, yoshlar esa ilm olishni eng oxirgi o'ringa qo'yar ekan. Ular asosan internet orqali musiqa tinglaydi, elektron manzilni tekshiradi, xullas, vaktichog'lik qiladi. Yoshlarning uchdan ikki qismi internetga yangi dustlar orttirish va kim bilandir suhbatlashish maqsadida ulanadi, ularning 15 foizi bu munosabatlarni keyinchalik real hayotda davom ettirar ekan.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish ko'nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur. Internetda grifingdan tashqari o'smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. YA'ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga etaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'ligiga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy.

Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta'sir o'tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn

savdolarda qatnashish imkoni bilan birga kichik o'yinchoqdan tortib to eng so'nggi rusumdagi mashina sotib olish xuquqiga ham ega bo'ladi. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab, global tarmoqdan foydalanuvchilar ko'p bo'lgan Belarusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo'lgan. Yangi turdagi mazkur mutaxassislarining vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma'naviy hamda jismoniy zarar etkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko'plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o'z faoliyatini internetning bolalarga ta'siri va undan bo'ladigan zararning oldini olish usullarini o'rganishga qaratgan. Jumladan, internet mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo'lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko'ngilsizlik va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto'g'ri axborotlardan himoyalash va so'z erkinligini ta'minlashdan iborat. Ota-onalarga mavjud muammolar yuzasidan maslaxat, ko'mak beradigan kiberfarishtalar (Cyberangels) - internetda bolalar huquqini himoya qilishga yo'naltirilgan Yevropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda unga AQSH va Kanada kabi davlatlar ham a'zodir. Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar xam keng ko'lamda tadqiqotlar o'tkazish va mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni kuchaytirmokda. Xususan, Bolalarni asraylik (Save the Children) xalqaro huquqiy tashkiloti o'tkazgan so'rovnomalar natijasida ma'lum bo'ldiki, AQShdagi 15-17 yashar o'smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarining 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi (Association for the Research of Communication Media) olgan natijalarga ko'ra esa, o'smirlar katta yoshlilarni 2004 yildayoq internetdan foydalanish bo'yicha ortda qoldirgan.

Ispaniyaning Bolalarni himoya qilish agentligi (Child Protection Agency) tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, internetdan doimiy ravishda foydalanuvchi

bolalarning 44%i virtual muloqot paytida hech bo'lmaganda bir marta, 11%i esa bir necha bor ta'qib ostiga olingan. E'tiborli tomoni shundaki, so'rovlarda ishtirok etgan yoshlarning 14,5 %i internet orqali notanish odamlar bilan uchrashuv belgilagan, 10 %i bunday uchrashuvlarga yolg'iz borgan, 7 %i bu haqda hech kimga hech narsa aytmagan. Dunyo miqyosida esa 38% bolalar zo'ravonlik ruhidagi saytlarni, 26% bola millatchilik xarakteridagi vebsahifalarni muntazam kuzatib borishi ma'lum bo'ldi. 2008 yilning oxirgi oylarida dunyoning eng mashhur kompaniyalaridan biri bo'lmish «Maykrosoft» (Microsoft) 28 davlatda o'zining chat xonalarini yopishini e'lon qildi. Bu harakat bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi huquq-tartibot hamda xayriya tashkilotlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi, chunki erkin va nazoratsiz forum xonalar spam, virus va axloqsiz axborotni tarqatish manbaiga aylanib qolgan edi. Shu tariqa MSNning tekin chatlari Yevropa, Yaqin Sharq, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlarida o'z faoliyatini to'xtatdi. Ularning o'rniga Microsoft Messenger tezkor xabar almashinish tizimi joriy qilindiki, endilikda bu xizmatdan foydalanish uchun shaxsiy ma'lumotlarni kiritish asosida ro'yxatdan o'tish talab etiladi. Chunki o'tgan yili Buyuk Britaniyada shov-shuvga sabab bo'lgan zo'ravonlar ustidan o'tkazilgan sud jarayonlarining kamida 26 tasida qurbonga aylangan bolalar ta'qibchilar bilan virtual muloqot orqali tanishgani aniqlandi.

Virtual ta'qib.

Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Alohida e'tibor talab etadigan jihat - internet orqali ta'qib deb nomlanadi. Bugungi kunda virtual ta'qib nihoyatda ommalashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, hozirda maktab yoshidagi bolalar internetdan tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bemalol maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, internetdan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham internetga ulanish imkoni bo'lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarning fikricha, yoshi o'nga etmagan bola odatda mustaqil ravishda internetdan foydalanish uchun zarur bo'lgan tanqidiy fikrlash va shu asosda

ma'lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrlash» qobiliyatiga ega emas. Shu sababli internetdan yolg'iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo'lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o'zi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni internet orqali tanishgan odamlarga aytmalikni o'rgatish zarur.

Grifing.

So'nggi paytlarda internet orqali ta'qib etish yoki ilmiy tilda aytadigan bo'lsak, grifing holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu kabi tarmoq bezoriligining eng birinchi qurbonlari aynan yoshlar qatlami, xususan, o'smirlar hisoblanadi. Bir qarashda beozor tuyulgan chat xonalar yoki maxsus muloqot dasturlari orqali kechadigan suhbatlar tafakkuri endi shakllanayotgan bolalarni ba'zan jinoyatgacha etaklab borayotgani hayotiy haqiqat. Grifing bilan shug'ullanadiganlar yoki grifyorlar zamonaviy yoshlarning qiziqishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, onlayn konferensiya, forum xonalarida istalgan mavzuda suhbat yuritishi, o'zlarini ularning muammolarini tushunadigan odamlar sifatida ko'rsatishi mumkin, buning ustiga veb tarmoqda anonimlikni saqlash xususiyati qisqa fursat ichida ishonchga kirib olishga imkon yaratadi. Grifing bilan kurashishning eng oddiy usuli — kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari Kiberpatrul yoki Kidskontrol)ni o'rnatish. Shunda zararli manbalardan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o'zi qiziqib nojo'ya axborotni olmoqchi bo'lganda, avtomatik taqiqqa tushadi. Ayni paytda mazkur dasturlar ham to'liq xavfsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba'zida ular foydali axborotni cheklab qo'yishi yoki keraksizini o'tkazib yuborishi mumkin.

“Kibernetik do'st”.

Zamonaviy texnologiyalarning tez sur'atlarda o'sishiga qaramay, ba'zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to'liq anglab etmaydi. Kompyuter va internetgacha bo'lgan davrda o'sib ulg'aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola internetdan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko'proq, deb o'ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg'itish harakati

zamidida aslida boshqa bir muammo, ya'ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o'zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo'yish to'g'ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e'tiborga loyiq: bolalarda kibernetik do'stga nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo'lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo'lmaydi. Foydalanuvchilar ma'lumotlarning to'g'riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga internetda xohlagan odam o'z sahifasini ochishi, unga har qanday ma'lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to'sqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo'naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to'g'riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanihga ularni o'rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Kiberterrorizm.

Kiberterrorizm (lot, cyber terrorism; cyber - "kiber", terror – "qo'rquv", "dahshat") – zamonaviy, ilg'or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o'zining g'araz niyatlariga erishishdan iborat.

Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g'arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog'idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog'lig'iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo'rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. Kiberterrorizm insoniyat uchun jiddiy xavf bo'lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o'z yangiligi tufayli to'la-to'kis o'rganib ulgurilmagan quroldir.

Masalan, kompyuter tarmoqlari orqali bank tizimlariga kirish va u erdan pul mablag'larini o'marish. Misol sifatida kredit kartalari bilan amalga oshirilayotgan

afera (g'irromlik)lar har yili 400 million dollar atrofida zarar keltiradi. Viruslardan ko'rilgan zarar esa 12 milliardni, mualliflik huquqining buzilishi 250 milliardga yaqin zarar keltiradi.

Turli kompyuter tizimlariga kirish bilan kiberterrorchilar har xil, shu jumladan yashirin axborotga ham yo'l topadilar. Zamonaviy kiberterrorchilikka 1998 yili AQShda amalga oshirilgan qotillik ham misol bo'la oladi. Internet orqali AQSH klinikalaridan birining tarmog'iga kirib olgan terrorchi (u erda FBR himoyasida og'ir ahvoldagi muhim guvoh davolanayotgan edi) qator to'siqlardan o'tadi va kardiostimulyatorni ishdan chiqarib, oqibatda mijozni halok qilishga erishadi. Manba: www.wikipedia.org; Hornby A.S. "Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English"

Ludomaniya.

Ludomaniya (ingl, Ludomania; ludo - "stol ustida shar yumalatib o'ynaladigan o'yin turi", mania – "ashaddiy jinnilik") o'yinga bog'lanib qolish, gambling – qimor, pulli o'yinlarga patologik(qalban) bog'lanib qolish. U qimor, pulli o'yinlarda qayta-qayta ishtirok etishda namoyon bo'lib, bu hol subyekt hayotida ustuvor ko'rinish oladi va aksincha, uning uchun ijtimoiy, kasb-hunar, moddiy va oila bilan bog'liq qadriyatlar ahamiyati tushib ketadi. Shaxs o'z majburiyatlariga e'tibor bermay qo'yadi. Fond va valyuta bozorlaridagi chayqov savdosi ham qimorga o'xshaydi, Internet orqali savdo qilish imkoniyati ham bunga ko'maklashadi.

So'nggi vaqtda pulli o'yin avtomatlari keng rusum bo'lganligi, kazino, o'yingohlar soni ko'payganligi sababli qimor muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan asrning 70-yillarida Angliyada o'yin avtomatlari tarqalishi munosabati bilan kinoteatrlarga odam kirmay qo'ydi. Ko'pchilik o'yin avtomatlari "telba"si bo'lib qoldi. AQShda hayoti butkul ana shu avtomatlarga bog'lanib qolgan "o'yinchi"lar miqdori aholining 5% ni tashkil etar ekan.

Bugungi kunda ludomaniyaning qo'l telefonlari o'yinlari keng tarqalmoqda.

Ludomaniya – xuddi piromaniya kabi psixik kasallikdir. Rossiyadagi Bexterev nomidagi psixiatriya institutida 7 yil davomida 16-57 yoshlar orasidagi

200 kishi davolanib chiqqan. Bemorlarning 190 nafari – erkak, 10nafari – ayollar bo‘lgan.

Medsitsina fanlari nomzodi, Odessa Meditsina Instituti dotsenti Konstantin Aymedov ludomaniyani kasallik deb ataydi: “Bizda ludomaniya so‘zining paydo bo‘lganiga endi ikki yil bo‘layapti. Odamlar alkogol narkotikning zararliligini yaxshi bilishadi. Lekin ludomaniyaning kasallik ekanligini ham, oqibatlarini ham sezishmayotir.

O‘yinbozlarni ko‘rsak, “Vaqtini qadrlamaydigan, mas’uliyatsiz odamlar-da”, - deb qo‘yamiz, xolos. Aslida o‘yinning mohiyati – hayotni virtuallashtirish. Odam o‘ynaganda hayotda his qila olmaydigan ekstremal holat, jazava, zavqni his qiladi. Misol uchun motopoyga, “osmon jangini” olaylik. Odamning hayotda bunga erishishi uchun ko‘p vaqt, bilim, malaka, mablag‘ kerak. O‘yinda-chi, ozgina pulni avtomatga tashlab, knopkalarini bossang, bas. Osmonda jang qilganda hosil bo‘ladigan adrenalin toshqini ro‘y beradi. (Reporter Axborot Agentligi, 2008 yil 28 noyabr), deydi u.

Ma’lumotlarga qaraganda eng “geymerlashgan” mamlakatlardan biri – Koreyada har yili o‘yinbozlikdan 7 kishi halok bo‘layotir. 38 yoshli bir kishi o‘n kun uzluksiz o‘ynagan. Faqat uxlab olishga tanaffus qilgan, xolos. Vrachlar uni yuragi yorilib ... o‘lgan holda topishgan.

Yekaterinburglik bir o‘smir 12 soatlik uzluksiz o‘yindan keyin miya insultidan vafot qilgan. “Bolalarda miyaning bunday jarohatlanishi kamdan kam uchraydi. O‘yin paytidagi uzluksiz ruhiy zo‘riqishdan bola miyasining qon bilan ta’minlanishi buzilgan. Boshi aylangan. Biroq, jazavaga tushgan o‘smir o‘zini o‘yindan to‘xtata olmagan. U o‘zining o‘layotganini bilib tursa ham o‘yinni to‘xtatmagan. Zo‘riqishdan miya tomirlari yorilib ketgan. Miyaga qon kelmay qolgan. O‘smir o‘layotib ham o‘ynayverгани kishini hayratlantiradi,— degan Yekaterinburg bolalar kasalxonasining narkologiya bo‘limi mudiri Aleksey Sulimov.

Ommaviy axborot vositalarida Yevropa, AQSH maktablarida o‘quvchilar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar bilib, etimiz junjikadi. O‘z sinfdoshlarini

otgan o'smirlar tergov paytida bu ishni falon-falon kompyuter o'yini ta'sirida qilganligini ochiq aytganlar. Darhaqiqat, bog'langan odam, o'smirning qiziqish doirasi torayadi.

Bolalar 6-7 yoshdan boshlab tengdosh, tengqurlari bilan o'ynaydi. O'yin davomida insoniy munosabatlar, atrof-muhit haqida ma'lumot oladi. Munosabatlar "maktabi"dan o'tadi. Kattaroq bolalardan o'zlarini o'g'il bolacha tutishni, qiz bolalar o'zlarini qizdek tutishni o'rganadi. Ko'plab ijobiy va salbiy qiliqlarni birinchi marta ko'radi. Yomonlikning oqibatlarini ham o'z darajasi va davrasida ko'radi. Intizomlilik, uyushqoqlik, irodalilik, qiyinchiliklarga chidab engib o'tishni, boshlagan ishni oxiriga etkazishni, maqsadga etish uchun bor kuchini ishga solishni, o'rganadilar. "Komanda ruhi"ni his qiladilar. Mashq qiladilar.

Bular bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy olamini boyitadi. Milliy o'yinlarimiz ota-bobolarimizni abjir, chidamli, irodali, dovyurak qilib tarbiyalagan. Chunki o'yin orqali turli shartli hayotiy to'siqlarni, "raqiblar"ni o'z kuchi bilan engib o'tishga o'rgatgan. Chiniqtirgan. O'yinlarda mardlik maqtalib, g'irromlik qoralangan. Xullas, o'yinlar - bolalarni katta hayotga tayyorlash, kurashishga, engishga o'rgatishning o'ziga xos mashqlari vazifasini o'tagan. Demak, milliy o'yinlar – bolani millat farzandiga aylanishining ajralmas sharti ekan.

O'zlikka sodiqlikda gap ko'p ekan. Mustabid sho'rolar davrida ham uzbek o'zining milliy, insonparvar bolalar o'yinlarini saqlab qoldi. Bugun jahon uni o'rganishga kela boshladi! Bir pedagog aytib bergan misol: yapon pedagoglari o'smirlarining kompyuter ludomaniyasiga berilib, harakatsizlikdan sog'liqlarini, ma'naviy tahdidlardan o'zliklarini yo'qotayotganliklarini ko'rib, chora qidira boshlashibdi. Chunki bu – millat kelajagini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Ular yosh yaponlar avlodi sog'lig'ini saqlab qolish davosini qidirib-qidirib O'zbekistondan topishibdi. Shahru qishloqlarimizni kezib, bolalarimiz "zamonaviy emas" deb o'ynamay qo'ygan harakatli o'yinlarni o'rganib, to'plab, olib ketib, o'zlarining superzamonaviy bolalariga o'rgatishayotgan ekan. G'arbning zamonaviy o'yinlari esa haddan ortiq texnokratlashib ketgan. Ularda insoniy ruh, joziba, zavq, tuyg'ular kam. Shuning uchun bolalar harakatli

o‘yinlarga qiziqmayotgan ekan. Bularning barisi o‘zbek milliy bolalarining o‘yinlarida bor ekan. Yapon pedagoglarining fikricha.

Dunyoda «Homo Ludens» - “O‘yinboz odam” iborasi istefodaga kirdi. “Ommaviy madaniyat” odamlarning ish bilan emas, o‘yin bilan mashg‘ul bo‘lishidan manfaatdor. Chunki o‘yin industriyasi ularga juda katta daromad keltiradi. Shuning uchun keyingi yillarda odamni jazavaga tushiruvchi o‘yinlar ko‘payib boryapti. Bu – ludomaniya deb nom oldi. Ludus – o‘yin, maniya – haddan ortiq berilish degani. Balki o‘yinbozlik desa ham bo‘lar.

O‘yinlarni tashkil qiluvchi o‘z biznesmenlari bor. O‘yin avtomatlari, kazinolar – G‘arb “ommaviy madaniyat”ining “kashfiyotlari”. Ularda ishtirok etuvchilarning niyati – tez, bir lahzada boyib olish, yutib olish. Mehnat qilib, ishlab emas, “yutib olish”. Yoki yugurib elib, terlab, zo‘r berib erishiladigan g‘alabaga joyida qimirlamay - o‘tirib “erishish”.

O‘yinbozlik kasaliga chalingan o‘smir qanaqa bo‘ladi? Olimlar I.P.Korolenko va T.A.Donskix (1990) ludomaniya o‘yinbozlik alomatlarini shunday tasniflashgan:

1. O‘smirning o‘yinda o‘tkazayotgan vaqti miqdorining oshib borishi;
2. Oldingi odatlar, qiziqishlar doirasining torayishi. O‘yin haqida tobora ko‘proq o‘ylay borishi;
3. Yutsa ham, yutqizsa ham o‘yindan chiqqa olmasligi;
4. O‘yin boshlanishini oshiqib kutish, o‘yinsiz qolganda bezovta bo‘lib, asabiylashish;
5. Tobora ko‘proq o‘ynash istagi, o‘yinga tobora ko‘proq narsa tikish;
6. O‘yindan o‘zini to‘xta olmay qolishi. “Bo‘ldi, o‘yinni tashladim”, - deydi, biroq oldin birga o‘ynagan sheriklarni ko‘rganda, o‘yin haqida gap ochilganda, o‘yingohning yonidan o‘tayotganda qaroridan tezda aynib qolish;
7. Ota-onasidan o‘yinga pul olish uchun yolg‘on gapirishi, o‘g‘irlik qilishi;
8. Oila a‘zolaridan, shifokorlardan va boshqalardan o‘zining o‘ta o‘yinparasligini yashirib, yolg‘on gapirishi kabilar o‘smirning o‘yinparastligidan dalolat beradi.

O'yinga qattiq berilgan kishi o'z hulqini nazorat qila olmay qoladi. Avstraliyalik tadqiqotchilar A.Blassinski va L.Nauer (Blaszczynski, Nower, 1997) o'yinparastlarga xos hulq-atvorlarni "fe'l-atvorlari buzilganlar"; "emotsional beqarorlar"; antisotsial, impulsiv qiliq qiluvchilar, deb baholashgan.

Lug'atlarda "o'yin", "ermak", "o'yinchoq" so'zlari yonma-yon keladi. Hayotda ham shunday. Ko'rinadiki, o'yinlar ikki xil bo'larkan. Biri – foydali. Vaqtni ko'ngilxushlik bilan yoki zerikmay o'tkazish, ko'ngil ochish, dam olish maqsadida qilinadigan erkin harakat yoki mashg'ulot; boshqalar bilan musobaqa qilish uchun ma'lum qoidalar asosida o'tkaziladigan mashg'ulot (futbol o'yini, shaxmat o'yini); ritmik harakatlar va mimikalar uyg'unligidan iborat san'at (raqs); spektakl, sirk, konsert tomoshasi; bolalarning o'ynashi, ovunishi uchun xizmat qiladigan narsa yoki biror ko'ngil ochish vositasi...

"O'yin" degan so'z pul yoki biror narsa tikib o'ynaladigan, qaltis hazil, g'alati qiliq, injiqlik ham kirar ekan. Bu o'yinlarda (qo'chqor, xo'roz, it urishtirish, oshiq, qarta, "qizilini top"...) faol harakat, o'z kuchiga, halollikka tayanadigan tirik raqobat yo'q. O'smir o'smir bilan b e v o s i t a kuch sinashmaydi. Maqsad ham raqibni "yengish" emas, balki "yutish".

Hozir "Bola - bola", "Komanda - komanda" emas, "Bola – kompyuter" o'yinlari paydo bo'ldi. Bunda bola 2 soat "shuter" o'ynaydi. 2 soat harakatsiz o'tiradi. Asablari, ko'zlari zo'riqadi. 2 nafas o'zini killerdek tutadi. Odam "o'ldiradi". Diqqinafas bo'ladi. Bir soatda 500-800 so'mini sarflab, jismonan va ruhan zo'riqib chiqadi. G'olib yo mag'lub bo'ladi. Bunday o'yinning o'zi kabi natijasi foydasi ham virtual bo'ladi. Bola kompyuterdan uzoqlashgan zahoti hammasi unutiladi. Lekin kompyuter xonasi egasining cho'ntagidagi bola bergan 500-800 so'm virtual emas. Real pul. Kim yutdi? Internet klub egasi, Internet to'ri mutasaddisi, o'yin dasturlari egalari. Bular bolalarning aqliy, jismoniy, ma'naviy olamini xarob qilarkan.

O'yinga (bolalar uchun foydalilari bundan mustasno) bahoni xalqimizning o'zi berib qo'ygan: "O'yin tubi – o't bo'lar"; "Yel so'ngi – yog'ish, O'yin so'ngi - urush"; "O'yindan o'ymoq chiqar, Qozondan quymoq(o'ymoq - angishvona)";

“O‘limning chachvog‘i - o‘yin”; “Nojo‘ya o‘yin – sindirar bo‘yin”; “Achchiq o‘yin shirin turmushni buzar”.

Kibernetik ludomaniya. Bugungi kunda yoshlarning kattagina qismi bo‘sh vaqtlarini internet-klublarda o‘tkazyapti. Internet faqat tijorat, iqtisodiyot, hordiq, ilmiy ma‘lumotlar olami emas, balki o‘yinlar haqidagi ma‘lumotlar olamiga ham aylandi. “Igri @ mail.ru”, “O‘yinlar haqida portal”, onlayn o‘yinlar, “Katta o‘yinlar”, “Yengil onlayn o‘yinlar”, “Brauzer o‘yinlar”, “Mini o‘yinlar”, “Mening olamim o‘yinlari”, “Oddiy o‘yinlar” portallari bor. O‘yinlar bozorlarda millionlab disklarda sotilmoqda.

“Kibernetik ludomaniya” tushunchasi ham jahon meditsina amaliyotiga rasman kiritilgan. Kiberludomaniya – kompyuter o‘yinbozligi. Kompyuter o‘yinlariga berilib ketishning og‘ir shakli. Uning asoratlari yoshlarning hayot tarzida, jismoniy va ma‘naviy sog‘lig‘ida namoyon bo‘ladi.

“Biz chat orqali xorijliklar bilan uch yil tinmay gaplasha oladigan, biroq kundalik hayotda birov bilan yuzma-yuz gaplasha olmaydigan odamovi bolalarni ko‘ryapmiz. Ularning ijtimoiy aloqalari butunlay buzilgan”, - deydi Smith@ Jones Addiction Consultants kompaniyasi direktori Kit Bekker.

O‘yinboz odam doimo zo‘riqish, tashvishda bo‘ladi. O‘yin xumori uni asabiylashtiradi. Yillar davomida, bir kunda 12 soatlab o‘ynovchi yoshlar qayd qilingan. Bu – ularning shuncha vaqt tashqi dunyodan, odamlar – real hayotdan aloqasi uzilishini ko‘rsatadi.

3-Mavzu: Axloq psixologiyasi

O‘rta asrlarda axloqiy tafakkur musulmon sharqida yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarilgan. Agar G‘arb-Ovro‘pada bu davrda turg‘unlik-sxolastika hukm surgan bo‘lsa, bu mintaqada, xususan Markaziy Osiyoda uyg‘onish davri yuz beradi. Bu davrda axloqshunoslik mashshoiyyunlik (arastuchilik) va tasavvuf falsafiy-diniy ta‘limotlari rivojlanadilar. Beruniy, Farobiy, ibn Sino, Ibn Rushdlar, Arastu ta‘limotini rivojlantirgan va axloqshunoslik masalalarini ana shu yo‘nalishda talqin qilgan mutafakkirlardir.

Abu Nasr Farobiy (873-950)ning axloqiy qarashlari uning “Fozil odamlar shahari”, “Shaharni idora etish kitobi”, “Baxt-saodatga erishuv haqida risola” kabi asarlarda bayon etilgan. Farobiyning qarashicha axloqiy Kamolotga erishishi insonning o‘z qo‘lidadir. Bunga esa tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalashi orqali erishiladi. Barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlari bilan, hamkorlik munosabatida bo‘lishlari kerak deb ko‘rsatadi faylasuf. Baxt, uning talqinicha, tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishdir.

Abu Rayhon Beruniy 973-1048 har qanday bilimlar insonning axloqiy kamolotga xizmat qilish kerakligini u “burch” “nomus”, “yaxshilik va yomonlik”, “adolat”, “vijdon” mezonli tushunchalarni ana shu nuqtai nazardan turib talqin qiladi. Uning ana shu axloqiy qarashlari “Hindiston”, “Javohirot” asarlarida o‘z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) axloqiy qarashlari “Salomon va Ibsol haqida qissa”, “Zafarnoma”, “Risolat at-Tayyor”, “Aksam al umum al aqlini” asarlarida bayon etilgan.

Ibn Sino axloqiy fazilatlarini ptuelich.. emas, balki tarbiya mahsuli deb hisoblaydi. Uningcha, kamolotga intilish yaxshilikdir. Savol javob tarzida yozilgan “Zafarnoma” nomli pandnomasida yaxshilik quyidagicha tavsiflanadi.

“- Yaxshilarning yaxshiligi nimada? Dedi: - Xoksorlik, beminnat saxovat hamda mukofot ta’ma qilinmagan xizmatida”

Farobiy, ibn Sinoning falsafiy-axloqiy qarashlari arab faylasufi Ibn Rushd (1126-1198) tomonidan rivojlantiriladi. Uning axloqshunoslikka oid qarashlari “Tahofut ut-tahofut” asarida bayon etilgan bo‘lib, bunda u ixtiyor erkinligi masalasi ustida fikr yuritiladi. Uningcha, inson xulq-atvori bilan bog‘liq xatti-harakatlar azaldan belgilab qo‘yilmaydi, u ixtiyor erkinligiga egadir. Bunday erkinlikni inkor etish yaratuvchining mohiyatiga ziddir, zotan insonning axloqqa zid xatti-harakatlarini taqdiri azal bitiklari deb bo‘lmaydi. Illo o‘z bandalariga yomonlik sog‘inishi, ularni yovuzlikka boshlash yaratuvchining atributlariga kirmaydi.

O‘rta asrlar musulmon Sharqida tasavvuf diniy-falsafiy ta’minot VIII asr

boshi va IX asr boshlarida Markaziy Osiyoga keng yoyila boshlaydi va u Abduxoliq, G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi bir qator mashhur mutasavvular tomonidan o'ziga xos ma'naviy-axloqiy ta'minot sifatida rivojlantiriladi.

Ahmad Yassaviy (taxm. 1103-1166) axloqiy qarashlarini teran falsafiylik bilan yo'g'rilgan "Devoni hikmat" nomli o'git-pandnomasida bayon etadi. Uningcha, Xudoga-Haqiqat, Ezgulik timsoliga erishish uchun nima xizmat qilsa, ularning barchasi axloqiy fazilatlaridir.

Tasavvufning Yassaviya yo'nalishi uning nomi bilan atalib kelinadi.

Abduxoliq G'ijduvoni (1103-1220) insonni ma'naviy axloqiy komilikka olib boruvchi yo'llar (rashha)larni ishlab chiqadi va bular keyinchalik naqshbandiya tariqati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tamoyillar to'rtta bo'lib, ular: 1. Hush dar dam: zikr vaqtida har bir chiqayotgan nafas hushyorlik bilan chiqmog'i, g'aflatga tushmaslik lozim, har nafas olib chiqarish paytida Allohni zikr qilish darkor. 2. Nazar bar qadam: solik tariqat a'zosi qayerda bo'lmasin har bir qadamiga nazar solishi, ogoh bo'lib yurmog'i lozim. 3. Safar dar vatan: solikning yomon odatdan xushxulqlikka yo'nalishi. 4. Xilvat dar anjuman: Zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan bo'lish zarurligi.

Bahouddin Naqshband (1318-1389) tasavvufni ma'naviy-axloqiy ta'limot darajasiga ko'targan mutasavvuf. U asos solgan Naqshbandiya tariqati Markazi Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotidan chuqur o'rin egallaydiki, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantirishda, milliy mafkuramizni kishilar qalbiga singdirishda ham katta ahamiyatga egadir.

Naqshbandiya tariqati A.G'ijduvoni ta'limotining takomili bo'lib, uning asosida "Dil ba yoru dast ba kor" ("Ko'ngil Xudoda, qul esa ishda bo'sin") degan diniy (ilohiylik) lik va dunyoviylikni o'zida mujassamlashtiruvchi shior yotadi. Mazkur shiorning mazmuni shundaki, axloqiylik insonning baxt-saodatiga yo'naltirilgan bunyodkorlik ishlarida namoyon bo'ladi va bunday axloqiylik esa ilohiylik bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim.

Najmiddin Kubro (1154-1226)ning axloqiy qarashlari "Sharxussunna val-

misolihu”, “Usuli asari”, “Favoinhul-Jamol” nomli asarlarida bayon etilgan. Kubriviya tariqatining mohiyati quyidagi o‘nta axloqiy qoidalarda mujassamlashgan: tangriga o‘z hohishi bilan yuzlashish; zuhd fi dunyo-har qanday lazzatdan o‘zni tiyish; tavakkul-Oллоhga e’tiqod va bu yo‘ldan har qanday nopok narsalardan voz kechish; qanoat; uzlat-xilvatni ixtiyor qilish; mulozamat az-zikr; tavajjuh-Xudoga muhabbat qo‘yish; nafsni engish; muroqaba-tafakkur, mushohada qila bilish; rizo-Xudo xushnudligi erishish.

Tasavvuf (naqshbandiya) tariqati ma’naviy-axloiy ta’minot sifatida Temur va Temuriylar davrida xalq mafkurasiga aylanadi va kishilarni mo‘g‘ul istilosiga qarshi kurashga, bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi. Amir Temurning “Kuch-adolatda” degan shiori mazmuni naqshbandiya tariqatining “Dil ba yoru dast ba kor” tamoyili bilan yo‘g‘rilgan edi. Temuriylar davrida Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ijodkorlar naqshbandiya tariqati tamoyillari asosida ijod qiladilar va uning g‘oyalarini hayotga tadbiiq etishda ibrat namunalarini ko‘rsatadilar.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492)ning “Bahoriston” asarida baxt, burch, yaxshilik va yomonlik kabi axloqiy mezoniy tushunchalar xususida fikr yuritiladi.

Alisher Navoiy (1441-1501) insonni oliy qadriyat deb biladi va bunga har bir kishi eng avvalo o‘zida axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali erishadi. Inson bu dunyoga bir marta kelar ekan, deb uqdiradi mutafakkir o‘zida ana shunday fazilatlarni kasb etib yashamog‘i kerak:

Kamolot kasb etkim olam uyidin,

Senga farz o‘l mag‘oy g‘amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o‘tmak biaynih

Erur hammomdan nopok chiqmoq.

Uning “mahbub ul-qulub” asari bevosita axloqiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda axloqiy meyorlar, tamoyillar o‘git, hikmatlar tarzida bayon etiladi.

XV asrdan boshlab Ovro‘pada uyg‘onish davri boshlanadi va bu keyinchalik yangi-ilm fan, ma’rifatning rivojlangan davrning shakllanishiga

zamin tayyorlaydi. Uygʻonish davridagi axloqiy qarashlar gumanizm-insonparvarlik gʻoyalari taʼsirida rivojlanadiki, bunga Lorenzo Valla, Nikallo Makiavellalar katta hissa qoʻshadilar.

L.Valla (1407-1457) “Haqiqiy va yolgʻon ezgulik”, “Ixtiyor erkinligi haqida” nomli asarida barcha jonzotlarning tabiatan oʻzini asrashga va iztirobdan qochishga intilishini taʼkidlaydi va buni oʻzining axloqiy qarashiga asos qilib oladi. U muhabbat, ixtiyor erkinligi masalalarini ana shunday biologik qarashidan kelib chiqqan holda tavsiflaydi. Uningcha, muhabbat lazzatga oʻxshash hissiy idrok etishdir, ixtiyor erkinligi esa har bir kishining yaxshi yashash uchun intilishi va yomonlikdan qochishidir.

M.Makiavelli (1469-1577) axloqshunoslik masalalarini din, siyosat bilan bevosita bogʻliq tarzda talqin qiladi. Uning bunday qarashlari “Podshoh”, “Tin Liveyning birinchi dekadasi” asarlarida bayon etiladi.

I. Kant va G.Geggellar yangi davr axloqshunosligi rivojiga katta hissa qoʻshgan nemis mumtoz falsafasining namoyandalaridir.

I.Kant (1724-1804)ning axloqiy qarashlari undan keyingi davr axloqshunosligiga katta taʼsir koʻrsatadi. U “qatʼiy imperativ” (“mutlaq buyruq”) yoki “axloqning oltin qoida”si degan nom olgan gʻoyani ilgari suradiki, unga muvofiq mazkur buyruq (imperativ) xatti-harakatning mazmuniga bogʻliq boʻlmagan holda xulq-atvorning yalpi umumiy qonunini boʻladigan qoidaga amal qilishni talab etadi.

Mazkur qoidaning muhim talabi: bu “ ... faqat shunday qoidaga muvofiq harakat qilki, unga amal qilish barobarida uning eng umumiy qonun boʻlib qolishini xoxlab qolishing mumkin boʻlsin”.

Kantning fikricha, insonning tabiiy mayllari irodaga taʼsir oʻtkazadi va ayni paytda iroda erkin aql yordamida oʻrnatilgan qonunga boʻysunadi. Bu axloqiy majburiyat-amr sifatida qatʼiy imperativ-mutlaq buyruq mavqeiga egadir. Va shundan kelib chiqqan holda axloqiylikning mezoni adolatdir, deb hisoblaydi faylasuf.

Kantning axloqiy qarashlari uning “Xulqlar metafizikasi”, “Axloq

metafizikasi” asarlarida o‘z aksini topgan.

V.Gegel (1770-1831) axloqshunoslik masalalarini huquq, siyosat bilan bog‘liq tarzda talqin qiladi. Uning axloqiy imperiativ haqidagi qarashni shunday: “Qonunlar harakat qilmaydi, balki faqat inson harakat qiladi”.

U cherkovning tarkidunyochilik axloqiga qarshi chiqadi va har qanday fazilat “Huzur-halovat baxsh etsa, shunchalik saodatga eltadi”, deb hisoblaydi.

Eng yangi davr axloqshunosligi bevosita shu davr falsafiy fikri uchun xos bo‘lgan irratsionalizm (lot. Irrationalis-g‘ayri aqliy) uslubi ta’sirida rivojlanadi. Ekziyetensiyachilik, pragmatizm, pozitivizm, ruhiy tahlil kabi axloqiy yo‘nalishlar ana shunday uslubiy ta’sir natijasida shu davrda yuzaga keladi.

Eskzistensiyachilik (lot. Existenlia-mavjudlik) XX asr axloqshunosligidagi etakchi yo‘nalishdir. Mazkur ta’limotda kishining har lahzada hayot va o‘lim oralig‘ida kechadigan ichki kechinmalari mavjudligi asosiy masala sifati olib qaraladi. Ushbu ta’limot nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) tomonidan ilgari suriladi va undan keyinchalik fashizmning g‘oyaviy quroli, mafkurasi sifatida foydalaniladi. Chunki Yaspers insondagi zo‘rlik, shavqatsizlikka moyil biologik jihatlarni uning ma’naviy-axloqiy javobgarlikdan ozod holatdagi mavjudligi tarzida talqin qiladi. Keyinchalik ekzistensializmga fransiyalik Jon Pol Sartr (1905-69) tomonidan gumanizm ruhi singdiriladi.

Pragmatizm AQSH da yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyondalari (CH.Pirs, J.Dyun) axloqiy meyorlar, normalar kishining foydali faoliyati talablariga bo‘ysinadi, degan qarashni ilgari suradilar. Shunga ko‘ra, deb hisoblaydi ular, axloq kishi xatti-harakatlari, fe‘l atvorlarining normalari emas, balki uning istak va niyatlaridir. Va ular har bir kishining o‘z hohishi, o‘z maqsadi bor bo‘lgani uchun ularda shunga muvofiq o‘zi uchun nima yaxshi va nima yomon ekanligini aniqlashga yordam beruvchi axloqiy meyor, o‘lchovlari bo‘ladi.

Ruhiy tahlil ta’limotining asoschisi avstriyalik psixolog Zigmund Freyd (1856-1939) bo‘lib, u axloqiy masalalarni kishi ruhiyatida muhim mavzeni egallovchi ongsizlik Freydning fikricha, inson shaxsi uchta-Id,Ego, Superego

komponentlarining o‘zaro birligidan tashkil topadi. Holati orqali talqin qiladi. (Id) Freydning fikricha, ongsizlik inson shaxsi tarkibidagi Markaziy komponentdirki, u inson tanasining ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. Ongsizlikda hech qanday zamon ta’siri bo‘lmaydi va unda hech qanday yaxshilik ham, yomonlik ham yo‘q, u axloqiy meyorlarga bo‘ysinmaydi.

Inson shaxsi tarkibidagi Ego va Superego komponentlari bevosita Id bilan bog‘liqdir. Ego Id negizida, Superego esa Ego zaminida vujudga keladi. Shaxsdagi barcha axloqiy meyorlar, xulq-atvor talabalari Superego komponentida mujassamlashadi va ma’naviy axloqiy taqiqlar qatlamini hosil qiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Ovro‘pa Sharq Mamlakatlarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy o‘zgarishlar turli yo‘llar bilan Turkiston hayotida ham kirib kela boshlaydi. Bu davrda Rossiya Chorizmi 1870 yilga kelib Qo‘qon xonligini bosib oladi va Buxoro hamda Xiva xonliklarini vassaliga aylantiradi. Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachiligiga qarshi kurashi-ma’rifatchilik harakati yuzaga keladi. Mazkur harakat yangi taraqqiyot, ilm-ma’rifatga chaqiruvchi, millatni uyg‘otuvchi kuch sifatida maydonga keladi. Asta-sekin ma’rifatchilik harakatidan jadidchilik o‘sib chiqadi. Va u ta’lim-tarbiya yangicha maktab, maorif tizimini yo‘lga qo‘yish masalalarini kun tartibiga qo‘yadi. Bu davrda Ahmad Donish, Berdaq, Abay, Abdulla, Avloniy kabi ma’rifatparvarlar etishib chiqadi.

Ahmad Donish (1827-1897) mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni tanqid ostiga oladi. O‘z yurtining Ovro‘pa mamlakatlaridan iqtisodiy, madaniy jihatdan orqada, qolishning asosiy sabablarini ko‘rsatib berishga harakat qiladi.

Uning fikricha, agar hukmdor adolatli yuritsa, ilm-fan, san’atning gullab-yashnashiga yo‘l ochib bersa, mamlakat obod bo‘ladi, xalq farovonlikka erishadi. Qoraqalpoq shoiri Berdaq (1827-1900) “Axmoq podsho”, “Xalq uchun”, “Bo‘lgan emas” kabi asarlarida axloqiy meyorlar, tamoyillar poetik uslubda bayon etiladi.

Abay Ibrohim Qunanbayev (1845-1904) jamiyatdagi barcha salbiy

hodisalarning sababi axloqiy qoida, talablarga rioya qilmaslikdir deb hisoblaydi. Uning fikricha, odam bolasi onadan axloqsiz bo‘lib tug‘ilmaydi, uning axloqsizligi tarbiyasizlik natijasidir. Abay hayo, uyat, insof, odillikni insonning eng asosiy fazilatlarini deb ko‘rsatadi. Masalan, u uyatni kishining ornomusi, o‘zining yaramas xulqiga qarshi turuvchi ichki isyonidir deb tavsiflaydi.

Abdulla Avloniy (1848-1913)ning axloqiy qarashlari XXasr boshlari Turkiston ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egallaydi. U axloqiy tarbiya, ilm-ma‘rifat masalalarini shu davrining talab, ehtiyojlaridan kelib chiqib tahlil qiladi va bunda zamonaviylik, dunyoviylikni asosiy mezon qilib oladi.

Avloniy tarbiyani uch turga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloqiy tarbiya. Bulardan axloqiy tarbiyani shakllantiruvchi, martaba, komillikka ko‘taruvchi tarbiya deb hisoblaydi. Avloniy mazkur tarbiyaning jamiyat va shaxs ravnaqida qanday muhim rol o‘ynashni ko‘rsatib beradi. Bu borada uning “Tarbiya—biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.” Degan fikri hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, bil‘aks alohida dolzarblik etmoqda.

Axloqiy tarbiya umumiy tarbiya tizimining, falsafiy til bilan aytganda substansiyaviy asosini tashkil etadi. Chunki barcha tarbiya yo‘nalishlari(estetik, siyosiy-mafkuraviy, huquqiy, jismoniy va h.)ning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda axloqiy tarbiya asosiy vosita – omil bo‘lib xizmat qiladi.

Chunki umuman har qanday tarbiyaning amaliy ko‘rinishi, uning maqsad, vazifalarining qay darajada realashishi shaxs axloqiy tarbiyasi darajasi bilan belgilanadi. Va shunga ko‘ra axloq ma‘naviyatning negiz elementi hisoblanadi.

Inson ma‘naviyat sohibi ekanligi uning madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra shaxs axloqiy tarbiyasi inson mohiyati bilan bog‘liq azaliy falsafiy muamolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki barcha tarbiya yo‘nalishlari o‘zaro birlikda jamiyat va shaxs ma‘naviyatini shakllantirish uchun xizmat qilib mazkur jarayonning natijasi axloqiylik mezonlari bilan o‘lchanadi.

Shu bois axloqiy tarbiya masalasiga har bir davrda o‘ta dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Tarixdan ma’lumki, axloqiy tarbiya Konfutsiy, Platon, Aristotel, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yuknakiy, Avloniy kabi mutafakkirlarning diqqat markazlarida bo‘lgan va ular o‘zlarining bu haqda noyob fikrlarini meros qilib qoldirganlar. Bu erda har bir alloma fikriga to‘xtalish imkoniyati ega bo‘lmasada, ayrimlarining fikrini keltirib o‘tamiz. Yunon faylasufi Aflotun(er. avv.4 asr)ning fikricha “Tarbiya faqat azaldan insonga berilgan fazilatlarini shakllantiradi, yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto‘g‘ri berilsa, u holda insondagi azaliy fazilatlar o‘zgarishi yoki o‘chishi mumkin.

Axloqiy tarbiya insonni komillikka eltuvchi yo‘llarning eng asosiysi hisoblanadi. Yunon faylasufi Arastu(er.avv. 4 asrda) “Ma’naviy barkamol inson aql bilan fazilat birligiga amal qiladigan kishidir. Fazilat (axloqiy-tarbiya mahsuli) insonning qo‘lga kiritgan sifatidir.”-deb ta’kidlangan edi. Shunga ko‘ra axloqiy tarbiya shaxsni ma’naviy-ruhiy kamol topishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Shaxsni axloqiy tarbiyalash murakkab uzluksiz jarayon bo‘lib u jamiyat uchun eng dolzarb masala hisoblanadi. U o‘z vaqtida buni taniqli map’rifatparvar Abdulla Avloniy bir jumla bilan ifodalab bergan edi: “Tarbiya (axloqiy tarbiya izoh bizniki) biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. Allomaning ushbu fikri hozirgi kunda yoshlarimizni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda dasturiamaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shaxs axloqiy tarbiyasi axloqiy fazilatlar, meyor va tamoyillarning muayyan usul va vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi ma’naviy-axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish bo‘lib, bu axloqiy norma, tamoyil va meyorlarni har bir kishining faoliyati, motivi hatti-harakatining mazmuni, turmush tarziga aylantirish vazifasi orqali amalga oshiriladi. Shu ma’noda axloqiy tarbiya–bu shaxsning axloqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz, tizimli jarayondir.

Mazkur vazifa bir-birini taqozo etuvchi obyektiv va subyektiv omillar

birligida amalga oshadi. Jamiyat ma'naviy hayoti darajasi axloqiy tarbiyaning obyektiv sharoiti–omili hisoblanadi. Mazkur tarbiyaning subyektiv omili esa insondagi ilohiy noyob ne'mat axloqiylikni muayyan tamoyil vosita va usullar bilan takomillashtirishga qaratilgan maqsadli jarayondir.

Axloqiy tarbiya quyidagi tamoyillar orqali amalga oshiriladi: 1)namunaviylik; 2)o'z-o'zini tarbiyalash; 3) uzluksizlik.

Namunaviylik – bu tarbiyalanuvchiga axloqiy meyorlarning konkret shaxs faoliyatida qay darajada reallashganligini ibrat qilib ko'rsatishdir. Mazkur tamoyil ayni paytda tarbiyalining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak degan tamoyilga amal qilishni talab etadi.

Namunaviylik tamoyili, ayniqsa, yoshlarga oila, maktablarda odob, xulq ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Chunki bolalar tabiatan taqlidchi bo'ladilarki, ular bunday ko'nikmalarni birinchi galda o'z ota-onalari, o'qituvchilaridan oladilar. Shuning uchun har bir ota-ona, pedagog yoshlarni faqat o'git, nasihat bilan berish bilan emas, balki namunaviy xatti-harakati, o'rnak ko'rsatish orqali tarbiyalashi talab etiladi.

O'z-o'zini tarbiyalash axloqiy tarbiya jarayonining faoliyat sifatida amal qilishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalash–bu kishining o'z-o'zini anglashi, jamiyatning ehtiyoji, maqsadi mezonidan turib o'z-o'ziga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi asosida kechadigan faoliyati bo'lib, bunda u o'zini shaxs sifatida shakllantiradi. Shaxsda bunday qobiliyat maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonida shakllanadi. Va bunday tarbiya birinchi galda oilada amalga oshiriladiki, bunda ota-onaning farzandlarga namuna ko'rsatishi muhim rol o'ynaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash ijobiy sifatlarini takomillashtirish va salbiy nuqsonlarni tuzatishga qaratilgan ongli va muntazam faoliyat deb ta'riflanadi. Lekin, shaxsda o'zining salbiy xislatlarini tushunish, uni yo'q qilishga intilish, yaxshi fazilatlarni rivojlantirish uchun harakat qilish faoliyati o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Buning uchun barcha tarbiyachilar qunt bilan yoshlarni o'ziga nisbatan talabchanlik nuqtai-nazari bilan qarash yo'lida talay ish olib

borishlari lozim. Bu o'rinda bolani kimga o'xshashi va kimdan ibrat olishiga ko'maklashish zarur. Ammo bu ish buyruq yoki ko'rsatma shaklida emas balkim, fikr-xohish bildirish yoki maslahat tarzida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tanqidiy qarash vujudga kelmasdan turib o'z-o'zini tarbiyalash amalga oshmaydi. Lekin boshqa kishilardagi kamchiliklarni tanqid qilish kifoya qilmaydi. Balkim o'ziga nisbatan qattiq talabchan bo'lish, o'z kamchiliklarni anglash va ularni qunt bilan yo'qotish muhim ahamiyatga molikdir. O'ziga nisbatan talabchan bo'lmaslik, o'z nuqsonlarini tan olmaslik, xudbinlikka va nihoyat axloqiy tubanlikka olib boradi. O'z-o'zini tarbiyalash yo'lida ijobiy natijaga erishmoq uchun yoshlarda o'z xulq-atvorini to'g'ri baholash qobiliyatini rivojlantirish, o'zi uchun ma'qul axloqiy ideal tanlash istagini vujudga keltirish lozim. Bu oqil ona tarbiya jarayoni va murabbiylarning shaxsiy ta'siri orqali vujudga keladi. Insonda o'z-o'zini tarbiyalash xususiyatlari kichik yoshda boshlanib, yoshi ulg'aygan sari takomillashib boradi. Xususan o'smirlik davrida taqlidchanlik ancha rivoj topadi. Ular ijobiy shaxslardan ibrat olish bilan birga ba'zan salbiy mard, botirlardan ta'sirlanib ularning nojo'ya yo'llaridan borib qoladilar. Natijada: manmanlik, ikki yuzlamachilik, bag'ritoshlik, ichkilikbozlik, hattoki o'g'rilik kabi yomon sifatlarni yo'qotishga urinadilar. O'zlaridagi salbiy harakatlarni ijobiy faraz qilib ba'zan jinoyatlar sodir qiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash jarayonini pedagogik nazoratsiz (stixiyali hoida) qoldirib bo'lmaydi. Chunki yoshlar hayotiy tajriba va shuningdek huquqiy bilimdonlik etishmaydi. Uning ustida ayrim o'smirlar o'jarlikni prinsipiiallikni deb xato tushunib axloqsizlik darajasiga tushunadilar.

Uzluksizlik axloqiy tarbiyaning muhim tamoyili bo'lib, mazkur tarbiyaning barcha yo'nalishlar bilan uzviy birlikda va tarbiya subyektlarining (oila tarbiya muasasaligi maktab, oliy maktab, jamoat tashkilotlari)ning o'zaro aloqadorlikda faoliyat ko'rsatishni taqozo etadi.

Axloqiy tarbiyadagi uzluksizlik-tamoyili ta'lim va tarbiya birligida amalga oshiriladiki, bu ko'pincha tarbiya xususan, axloqiy tarbiya amaliyotida

nazardan chetda qoldiriladi.

Axloqiy tarbiya bir qator vositalar orqali amalga oshiriladi: Bular; oila, mehnat, san'at, ommaviy axborot vositalari va h. Shaxs axloqiy tarbiyasi avvalo oiladan shakllanadi. To'g'rirog'i, u ona qornidan boshlanadi degan gap bejiz aytilmagan. Chunki avvalo ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak. Ota-ona o'zining axloqiy fazilatlari bilan farzandiga namuna bo'la olishi kerak. Shuning uchun ularning zimmasiga kattta ma'suliyat yuklangandir.

Axloqiylik insonning insoniyligi uning axloqiy tarbiya mahsuli bo'lgan axloqiy madaniyatida ifodalanadi. Shunga ko'ra axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, oila uning asosiy omil – vositalaridan biri hisoblanadi.

Mehnat ham shaxsiy axloqiy tarbiyalovchi muhim vositalaridan biridir. Insonni halollikka, poklikka o'rgatadi. Mehnatga o'rganmagan kishi dangasa, loqayd, be'mani, adolatsiz, mol-dunyoga beriluvchan, tayyorga-ayyor, xasis, pastkash, takabbur kabi illatlar egasiga aylanadi.

“Mehnat insonni ulug'laydi” degan maqoldakatta hikmat bor. Ijodiy mehnat insonni inson qilib tarbiyalaydi, komillikka eltadi, sabr toqatli bardoshli qiladi. Shuning uchun oila, maktabda bolalarni mehnatga o'rgatish – mehnat tarbiyasini amalga oshirish muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.

San'at axloqiy tarbiya vositalar tizimida alohida o'rin egallaydi. Chunki san'at asarlarida axloqiy mezoniy tushunchalar, tamoyillar mazmun-mohiyati badiiy obrazlarda mujassamlashadi. Shunga ko'ra shaxsda san'at asarlarini estetik idrok etish, undan ma'naviy-ruhiy g'izolanish qobilyatini shakllantirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi. Va xuddi mana shu vazifani amalga oshirishda axloqiy va badiiy-estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari o'zaro mushtaraklashadi

4-Mavzu: Davlat xizmatchilari etikasi va imiji.

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarning bajarilishi boshqaradi. Etiketga

keladigan bo'lsak, odob qoidalari etiket qoidalaridan ustun hisoblangan. Zero odob rasm-rusmlar – asosan tashqi ta'sirga emas, balki ichki jihatlarga – insoniylikni, xulq va axloqiylik uchun asos sifatida qaratilgan. YA'ni etiket “muhimi qandayligi emas, balki boshqalar uchun qanday ko'rinishda” shiori ostida o'zini yo'qotib qo'ymaslik, aslzodalikning mavjudligini ko'rsatishga intilish va shu bilan jamoatchilikda ijobiy taassurot qoldirish bilan bog'liq bo'lgan.

Davlat xizmatchilari xodimlari umumiy etiket qoidalariga amal qilish bilan birga diplomatik etiket qoidalarga amal qilishlari shart buladi. Bu etiket qoidalari umumiinsoniy qoida sifatida axloqiy norma hisoblanadi. Uni buzish yoki amal qilmaslik nafaqat mintaqaviy axloqiy qoidaning, balki xalqaro ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

DIPLOMATIK ETIKET

Diplomatik etiket – bu diplomatlar va boshqa rasmiy shaxslarning bir-biri bilan diplomatik tadbirlarda bo'ladigan muloqotlari chog'ida amal qiladigan yaxshi xulklarining qoidalari.

Diplomatik etiket shakllanish jarayonida umumiy etiket qoidalariga tayanadi, shu bilan birga diplomatik normalar va qoidalar biznes etiketi amaliyotida va umumiy etiket qoidalarida o'z aksini topadi. Ushbu qoidalarni buzilishiga yo'l qo'yish mumkin emas, oddiy takallufning munosabatlarda qo'llanmasligi diplomatik etiketda hurmatsizlikka tenglashtiriladi va xalqaro va millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarishga qodir.

Diplomatik etiket turli-tumandir. U o'z ichiga uchrashuvlar, o'zaro salom almashish, tabrik yo'llash, qabul marosimlarini o'tkazish, tashriflarni amalga oshirish, suhbat va muzokaralar olib borish etiketi va diplomatik seremonialni qamrab oladi.

Diplomatiya — bu o'zaro kelishuvlar, bitim va konvensiyalar tuzish san'atidir. Ushbu natijalarga uchrashuvlarning muvaffaqiyatli yakunida erishiladi.

Diplomatik uchrashuvlar o'zining belgilangan reglamenti, etiketi va ko'pincha o'z protokoli bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, diplomatik uchrashuvlarning qatnashchilari diplomatiya kabi nozik faoliyatning

asosini tashkil etuvchi subordinatsiya qoidalarini va professional cheklanishlarga qat'iy rioya qiladilar.

Uchrashuvlar o'zaro salom almashish bilan boshlanadi. Salomlashish turlari har xil bo'ladi. Horijiy mamlakatlarda uzoq safarda bo'lgan kishi bu mamlakatning milliy udum va qonun-qoidalarini o'z mamlakati urf-odatlarini bilan taqqoslaydi. Misol uchun, shuni ta'kidlash lozimki, musulmonlar uchun Shariat qonunlariga binoan ayol va erkak kishining qo'llari, agar ular qarindosh bo'lmasa, hatto bir-biriga tegib ketishi ham qat'iy man etiladi.

Rasmiy qabullar. Davlat rahbarlari o'rtasida rasmiy munosabatlarni keng tarqalgan va umumiy qabul qilingan shakllaridan biri rasmiy qabullarni o'tkazishdir.

Qabullarni tashkil etish odati bizga o'tmishdan kelgan bo'lib, tinchlikparvarlik, yaxshilik belgisi hisoblangan. Mehmondo'stlik esa, shu kunga qadar davlatning sha'ni, xalqning to'kin-sochinlik ko'rsatkichi bo'lib kelmokda. Rasmiy qabul marosimlarida mehmonning an'anaviy taomlarining tortilishi mehmon davlatga bo'lgan alohida hurmat-e'tibordan dalolat beradi.

Hozirgi kunda xalqaro amaliyotda hamma ishtirokchilar uchun bajarilishi shart bo'lgan va o'z etiketiga xos bo'lgan bir nechta rasmiy qabullarning turi mavjud.

Diplomatik qabullar chog'ida suhbat olib boriladi, aniq belgilanmagan muzokaralar, tanishuv va boshqa tadbirlar amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar bir-birlarining o'zaro aloqasi, yig'ilish xarakteri, yoshiga qarab, bir-birlarini to'liq ism-shariflarini aytib o'tishlari yoki faqatgina familiyalarini aytish bilan chegaralanadilar.

Diplomatik uchrashuv yoki diplomatik qabulning xarakteri o'zaro muloqotning meyorini va shaklini, salomlashish darajasini belgilaydi.

Bir uchrashuv butunlay norasmiy, boshqasi – yarim rasmiy, uchinchi esa – protokol tomonidan oldindan belgilangan tarzda o'tkaziladi. Etiket aniq va bir xil tavsiyalarni ko'zlamaydi.

Diplomatik etiketga ko'ra, asosiy muomala sharti qabul turi bilan bog'likdir.

Xulq-atvorning asosiy sharti diplomatik etiketga binoan qabul marosimi bilan bog'liqdir.

Qabul marosimlari diplomatik korpus vakillari o'rtasida hamda rasmiy hukumat vakillarining horijiy vakillar bilan aloqalarini o'rnatish va ularni rivojlantirishga qaratilgan.

Qabul marosimlari biror-bir voqeani nishonlash uchun, masalan, mamlakatga davlat yoki hukumat rahbari tashrifi yoki bayram va yubiley sanalari munosabati bilan, taniqli shaxslarga hurmat belgisi sifatida, biror-bir hujjatlarni imzolash sharafiga o'tkaziladi.

Qabullarning quyidagi turlari mavjud: «Shampan vinosi bokali» yoki «Vino bokali» qabullari keng tarqalgan. Qabulning bu turi odatda peshinda boshlanib bir-bir yarim soat davom etadi. Bunday qabul turi oddiyligi bilan ajralib, shartlilik cheklangan. Bunday qabullarda murakkab muzokaralar olib borish mumkin emas. Ushbu turdagi qabullar odatda insonlarni bir-biriga tanishtirish yoki keyinggi uchrashuvlarni belgilash uchun xizmat qiladi.

«Nonushta» qabuli (inglizcha – «Lanch») kunning birinchi yarmida – soat 15.00da o'tkaziladi. Qabul taomnomasiga oddiy gazaklar, 1-2 turdagi issiq taom va desert kiradi. Qabul so'ngida kofe yoki choy taklif etiladi. Qabul paytida avval yaxna ichimliklar va pivo beriladi. Bu kabi qabullar jiddiy suhbatga yoki biror-bir muammolarni muqokama qilishga imkon yaratadi. Qabul paytidagi tanaffus (yangi taom tortilishidan yoki desert va choydan avval) taklif etilgan tomonlarga qisqa vaqtga suhbatdoshlarni tark etib, kerakli masalalarni muhokama qilishga imkon beradi.

Xalqaro protokol amaliyotida kunduzgi qabullar kechki qabullarga nisbatan katta tantanaga ega bo'lmagan qabullar, deb hisoblanadi.

«Tushlik» qabuli daraja jihatidan muhimroq hisoblanadi. Uning boshlanish vaqti – soat 19.30, 20.00 yoki 20.30larga borib taqaladi. Taomlar, gazak va sharoblar «Nonushta» qabuli kabidir. «Tushlik» 2-3 soat yoki undan ziyod davom etadi. «Nonushta» kabi «Tushlik» ham turli usulda o'tkaziladi. Usullardan biri mehmonlarni alohida o'tkazishni nazarda tutadi. Ushbu holatda mehmonlar qabul

o'tkaziladigan joyda xonalarning birida belgilangan vaqtda to'planadilar. Ularga yaxna ichimliklar, pivo, viski va sharbatlar tortiladi. Yengil gazaklar tavsiya qilinishi mumkin. Shundan so'ng mehmonlar umumiy stolga taklif etilib, ularga o'rnatilgan tartibda taom va vinolar tortiladi. Desert vaqtida mezbon va asosiy mehmon o'rtasida «shampan» qadahi so'zlari (tostlari) bilan fikr almashiladi. So'ngra mehmonlar alohida ajratilgan joyga o'tadilar va ularga choy yoki kofe hamda konyak va liker taklif qilinadi.

«Nonushta» kabi «Tushlik» qabuli ham muhim suhbat va tanishuvlar uchun imkoniyat yaratadi.

«Nonushta» va «Tushlikshing boshqa bir turi bu «Tushlik» – bufet " bo'lib, odatda u soat 18.00-20.00 larda boshlanadi. Qabul chaytida taomlar alohida stolda joylashgan bo'ladi, mehmonlar o'rta hajmdagi stollar atroflarida joylarini egallab, o'z-o'zlariga xizmat qiladilar. Mehmonlarga vinolar taklif etilishi mumkin. Ba'zan vinolar alohida kichik stolchaga joylashtiriladi va mehmonlar o'zlari turib likopchalarga alohida stoldagi taomlardan solgani kabi vinolarni ham olishlari mumkin. Choy va kofelar ham shu tarzda taklif qilinadi.

«Kokteyl» yoki «a-lya furshet» turidagi qabullar tayyorgarlik va tashkil etilishi nuqtai nazaridan oddiy va keng tarqalgandir. Ular tik turgan holda o'tkaziladi. Asosan ofitsiantlar mehmonlarga engil sovuq gazaklar hamda yaxna va mast qiluvchi ichimliklarini olib keladilar. Ba'zan ular stollarga joylashtirilishi ham mumkin. Ushbu qabullar kechki vaqtda taxminan soat 18.00 - 19.00 larda o'tkaziladi. Ushbu qabul boshqalariga nisbatan har bir ishtirokchini boshqalar bilan muloqot qilishiga qulay imkoniyat yaratadi, chunki stol atrofida o'tirib, mehmonlar faqat yaqin o'tirganlar bilan muomala qilishlari mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan qabullarga mehmonlar odatda rafiqalari bilan birga taklif qilinadilar.

Qabullarning yana bir turi "Choy" bo'lib, u, odatda, ayollar uchun soat 16.00-18.00 lar mobaynida o'tkaziladi. Ba'zi bir hollarda ushbu qabul diplomatik vakolatxonaning rahbari yoki diplomatning rafiqasi ketishi munosabati bilan ham o'tkazilishi mumkin. Qabulga choy yoki kofe, konditer mahsulotlari, konfetlar,

mevalar, ba'zida engil gazaklar va vino ham tortilishi mumki.

Hay'atlar (delegatsiyalar) tashrifi

Mehmonni qabul qilish barcha xalqlarda oddiy hollarda ham alohida e'tibor bilan o'z o'rniga qo'yiladi. Xalqaro munosabatlar darajasida esa mehmonga bo'lgan e'tibor jiddiy tusga kiradi. Bu holat tashrif darajasi, maqsadi va xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Tashriflar o'z klassifikatsiyasi bo'yicha bir necha turlarga bo'linadi. Ular: oliy darajada tashkil etiladigan davlat va rasmiy tashriflari, «Sammitlar», amaliy va norasmiy tashriflar. «Sammit» va oliy darajadagi uchrashuvlarda asosiy e'tibor siyosiy muzokaralarga hamda tantanali marosimlar tadbirlari, gulchambar qo'yish marosimlari, ehtirom tashriflari, qabullar, jamoat bilan uchrashuvlarga qaratiladi. Bunday tashrif odatda qo'shma hujjatlarni imzolash bilan yakunlanadi. Bu avvalambor ishlab chiqilgan va kelishilgan dastur bo'yicha amalga oshirilib, faqat biror-bir favquloddagi hodisalar tufayli dasturga ma'lum o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Diplomatik yozishmalarni olib borish

Diplomatik hujjatlarga davlat arboblarning nutqlari, notalar, maktublar va memorandumlar kiradi. Ularda davlatning xalqaro miqyosdagi muammolarga munosabati va hukumatning ularga nisbatan tutgan mavqei bayon qilinadi. Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarda biror-bir davlatni tan olish va diplomatik aloqalarni o'rnatish, faol xalqaro muammolarni hal etish bo'yicha takliflar, davlat suverenitetini yoki xalqaro huquq tamoyillarini buzish bilan bog'liq harakatlarga nisbatan qarshiliklarga doir ma'lumotlar bayon qilingan bo'lishi mumkin.

Xalqaro diplomatik amaliyotda quyidagi hujjat turlari yuritiladi: shaxsiy notalar, eslatma qaydlari, memorandumlar, shaxsiy yarimrasmiy xatlar. Shaxsiy nota birinchi shaxs nomidai tuzilib, ikki tomonni qiziqtiruvchi biror-bir hodisa haqidagi ma'lumotga ega bo'ladi. Yuqori darajadagi muhim xalqaro masalalar haqidagi shaxsiy nota yozishmasi shaxsiy maktub darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Verbal nota juda keng tarqalgan diplomatik hujjat hisoblanadi. U uchinchi shaxs nomidan yozilib, tegishli Tashqi ishlar vazirligi yoki elchixonalar tomonidan

keng qamrovli masalalarni, xususan siyosiy, iqtisodiy, protokol va o'g'xlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan masalalarni ko'rib chiqish va hal etish uchun yoziladi.

Eslatma yozuvlar odatda og'zaki qilingan bayonotni muhimligini ta'kidlab o'tish uchun shaxsan topshiriladi. Ular shaxsi aniqlanmagan holda tuziladi: «ma'lum qilinmokka» qabilida.

Memorandum biror-bir masalani juda aniq ko'rsatadi va o'zida fakt, tahlil va argumentlarni mujassam etadi,

Shaxsay xat deyarli norasmiy hujjat bo'lib, rasmiy shaxslarga yo'llanadi va yozishmalarning ma'lum qoidasiga qat'iy amal qilishni ko'zlamaydi hamda xat yo'llangan shaxsning mas'uliyati doirasida hal etilishi mumkin bo'lgan masalalarni echish uchun ishlatiladi. Bunga misol tariqasida tashkil etilgan qabul yoki konsertda ishtirok etishdan minnatdorchilik bildirilgan xatlarni keltirshp mumkin.

Tashrifnomalarning pastdagi chap burchagida qalam bilan quyidagi ma'nolarni anglatuvchi yozuvlar belgilanishi mumkin:

r.f.

Tabriknoma

r.r.

Tashakkurnoma

r.s.

Ta'ziyanoma

p.p.

Masofadan turib tanishtirish

r.f.s.

Tanishuvdan mamnun bo'lish

r.r.s.

ShaShaxsiy tashrif o‘rniga (ketish safari arafasida)

r.f..N.a.

Yangi yil munosabati bilan tabriknoma

Diplomatik bayonnoma (protokol)

“Diplomatik bayonnoma” – Davlatlararo hamkorlikda munosabatlarning asosiy qoidalari, jumladan suverenitetni hurmat qilish, tenglik, erkinlik, hududiy barqarorlik, bir-birini ichki ishlariga aralashmaslik kabi talablarga rioya qilmasdan turib to‘laonli kelishuvni amalga oshirolmagan bo‘lar edilar.

Bunday talablarni bajarish uchun bu boradaga tajribadan tashqari ma’lum bir dasturamal ham lozim. Bunday dasturamal diplomat (muzokara) bayonnomasi deyiladi. O‘shbu bayonnoma davlatning vujudga kelishidan tortib, hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘zaro hamkorlik munosabatlarining qayta ishlangan, yillar davomida tahrir va tajribadan o‘tgan, zamonaviy talablarni ham o‘z ichiga qamrab olgan qoidalar majmuidir.

«Diplomatik lug‘at» diplomat bayonnomasida to‘g‘risida aniqroq tushuncha bera oladi:

Diplomatik bayonnoma – xalqaro munosabatlarda rasmiy shaxslar, vakillar tomonidan hukumatlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan umumqabul qilingan an’ana, tartib, rasm-rusmlar qoidasining majmuidir.

Umuman olganda, muzokara etiketining bir qancha qat’iy qoidalari mavjud. Ular quyidagicha:

Salomlashish va ko‘rishishda ismi bilan murojaat qilish. Bu nafaqat uni hurmat qilishingizni, balki o‘zingizga nisbatan ham shunday hurmat bilan qarashingizni anglatadi.

Nigoh muhim ahamiyatga egadir. Samimiyatni ko‘rsatish uchun suhbatdoshini ko‘zlariga qarash lozim.

Salomlashuvda turish shart. O‘tirib ko‘rishilmaydi. Yosh va jinsning

ahamiyati yo‘q.

Tabassum va shirinsuxanlik har qanday vaziyatga obyektiv yondoshishga olib keladi.

Ismingizni aytib ko‘rishing. Birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsangiz ismi-sharifingizni aytib o‘zingizni bir yo‘la tanishtiring. Agar avval ham uchrashganizga gumoningiz bo‘lsa, ismingizni aytganingiz ma’qul – bu sherigingizni noqulay vaziyatga tushib qolishini oldini oladi.

Ko‘rishganda qo‘l berib ko‘rishish kerak. Bunda qo‘lni haddan ziyod qisib yuborish yaramaydi. Shasht bilan uzatilgan qo‘l munosabatni yanada mustahkamlaydi.

Muzokara kiyimi. Bundausti boshimiz makon, zamon va voqelikning tabiatiga to‘g‘ri kelishi lozim. Rasmiy muzokaralarga odmi rangdagi kiyimlar mos keladi. Bo‘yinbog‘ tusi uning egasi borasida ma’lum tasavvurni paydo qilish imkoniga ega.

qizil, sariq – erkinlik, qat’iyatlik;

qora tusda qizil bezaklar – o‘ziga nisbatan ishonchni kuchliligi, muayyanlik;

ko‘k va to‘q jiggarrang – bag‘rikenglik;

to‘q kulrang – hissiyotlarga erk bermaslik;

havorang – hotirjamlik;

yashil, sariq – sergaklik.

Pedagogik etika

Pedagogik faoliyat faylasufni jonli hayot, amaliyot, yosh avlod bilan bog‘lab turuvchi zaruriy halqadur. Aks holda garchi ilm sohasida ko‘p marralarga, darajalarga erishilsa hamki, faylasuf olim ayni zamonda dars berish bilan ham shug‘ullanmasa, quruq abstraksiyalar olamiga kirib ketib, safoataboz (sxolast) bo‘lib qolishi xavfi kuchayadi. Ayni shu holda falsafaning hayotdan uzoqlashuvi, jamiyatda qadrsizlanish, hatto krizisga uchrashi va halokati sodir bo‘ladi. Vaholanki, buyuk ezoterik faylasuf El —Moriya aytganiday "Amalda foyda keltirmaydigan bilim — o‘lik bilimdir".

Shuningdek, agar falsafa eng qadim davrlarda, hozirgi ilmiy bilimlar

shakllanmasdan ham oldin vujudga kelib, hamon yashab kelayotgan ekan, bunda juda katta hikmat bor. Bu hikmatni mashhur nemis faylasufi Ch.Fixte "Faylasuf bugun insoniyatning tarbiyachisidir" degan birgina jumlasini g'oyat aniq ifodalab bergan. Shuningdek, nafaqat Sharqqa, balki G'arbga ham o'z donishmandligi bilan mashhur bo'lgan buyuk faylasuf, vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy ham murabbiylik martabasining naqadar ulug'ligiga alohida e'tibor qaratgan. "Insoniy vujuddan maqsad, —deb yozadi u, — eng oliy baht — saodatga erishuvdir... Baxt — saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z — o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi".

To'g'ri, tug'ma aql, ziyalikka ega bo'lgan odamga hatto tog'u — toshlar, daraxt va o'simliklar ham ta'lim bera oladi. Xususan, payg'ambar Muhammad alayhissalom savodsiz bo'la turib, shunday buyuk hikmatli fikrlarni aytganlarki, islom madaniyatining hozir ham tirikligi bu bilimning naqadar chuqurligini ko'rsatib turibdi. Va lekin, har bir inson ham bu martabaga loyiq bo'lib tug'ilavermaydiku!

Shunday ekan o'qituvchi o'z talabasiga dunyo, borliq degan bu ulkan kitobni o'qish o'rganishga yordam beruvchi mo'tabar zot bo'lishi, shunga loyiq bo'lishga intilishi shart. O'qituvchi bo'lish sharafi haqida eng mashhur shoir dildan kuylaganlar. Masalan, Abdulla Oripov o'zining " Muallim" degan she'rida shunday yozadi:

Muallim haqida so'zim ushbudir:

Muallim kamolot ichra ko'zgudir.

O'qidim Gerodot, tarixni ko'p bor,

Farobiy, Danteni takror va takror.

Barini o'qidim, lol qoldi aqlim,

Bariga ustozsan o'zing muallim.

Alisher qalbiga solgan sehr-fayz,

Sensan, ey, muallim, ustoz Abdullays.

Qutlug' xonadonda qutlug' kalom bu,

Hamid Olimjon bu, Gʻafur Gʻulom bu.
Rost aytsam, oʻzingsan eng avval daho,
Sen hayot ganjida durri bebaho.

Yapon jangovarlik sanʼatini oʻrganayotgan samuraylarning "Ota —onam menga hayot baxsh etgan boʻlsa, ustoz meni insonga aylantirdi" degan, oʻz qasamyodlariga qoʻshib aytadigan soʻzlari bilan ham, qadimgi Xitoning "Ota-onang senga osmon va er kabidirlar, lekin sening ustozing va xojang Quyosh va Oy kabidirlar" degan hikmatlari bilan ham uygʻundir.

Shunday qilib, oʻqituvchi boʻlishni orzu qilmaslik oʻz oldida turgan asosiy masalaning mohiyatini bilmaslik va nodonlikdandir. Qolaversa, oʻzi oʻrgangan ilm soxasini - falsafani bilmasligidandir. Ayni paytda xatto falsafani qoniqarli bilgan har qanday inson chin maʼnodagi falsafa murabbiyi oliy unvonga sazovor boʻla olmasligi ham mumkin. Zero, chin maʼnodagi falsafa muallimi bilimdan tashqari muayyan oʻziga xos boshqa sifatga ham ega boʻlishi kerak.

Bu sifat qandayligi Abu Nasr Forobiy tomonidan juda yaxshi koʻrsatilgan :
"Oʻzidan boshqa kishilarga rahbarlik qilish, ularni baxt—saodatga erishuv darajasiga koʻtarish... xar kimning qoʻlidan keladigan ish emas. Kim birovni baxt—saodatga erishtirish boʻyicha zaruriy ishlarga ruhlantirish qobiliyatli boʻlmasa va bu ishlarni bajara olishga qudratsiz boʻlsa, bunday odam sira ham rahbar (yaʼni, murabbiy, muallim, ustoz) boʻla olmaydi".

Yurtimizning eng teran hikmatlri falsafa oʻqituvchisi, avvalo, komil inson boʻlishi kerakligini koʻrsatadi. Zero oʻzi komil boʻlmagan inson oʻzgalarga ham komillik yoʻlini koʻrsata olmaydi. Vaholanki, 2010 yilni "Bakamol avlod yili" deb nomlanishi ushbu masalaning naqadar dolzarb siyosiy oʻringa chiqqanini koʻrsatib turipti.

Demak, biz birinchi oʻrinda "Qanday odamni komil deyish mumkin?" legan savolga teran falsafiy javobni hamiga oʻz xotiramizda tutishimiz kerak. Bunday javob bizning eng qadimiy madaniyatimizda, xususan, "Avesto"dayoq mavjuddir. Bu undagi "Ezgu fikr, ezgu kalom (soʻz) va ezgu amal" degan shiorida oʻz oʻrqin ifodasini topgan. Barcha falsafiy taʼlimotlarning asosiy maqsadi ham hamisha

shundan iborat bo‘lgan.

G‘arb falsafasida esa bu hikmat bir qadar konkretlashtirilgan va ratsionallashtirilgan edi.

Buni biz nemis faylasufi I. Kantning uch mashhur savolidan bilamiz. Bular “Men nimani bilishim mumkin?”, “Men nima qilishim kerak?” va “Men nimani umid qilishim mumkin?” degan savollar edi. Birinchi savolga u o‘zining nazariy falsafasida, ikkinchi savoliga amaliy falsafasida javob bergan edi. Uchinchi savol esa ham nazariy, ham amaliy xarakterdagi ancha murakkabroq savol bo‘lib, javobda individning “umid istiqboli” ko‘rsatib berilishi kerak bo‘lgan madaniyat muammosiga borib taqalgan edi. Madaniyatning eng oliy ideali sifatida esa Kant deyarli barcha buyuk G‘arb faylasuflari kabi, “Xudo – bu muhabbat” degan injil suralarini targ‘ib etgan xristian sxolastlari kabi, shuningdek, tasavvuf ta‘limoti namoyandalari kabi ishqni tan olgan edi. YA’ni ushbu idealga ko‘ra butun borliq ishqdan boshlanadi va yana o‘z manbaiga, ishqqa qaytadi. Demak, har qanday individ uchun oliy ideal ishqdir. Faylasufning asosiy vazifasi ham individga shu yo‘lni ko‘rsatishdan iborat.

Ma’lumki, buyuk rus yozuvchisi L.Tolstoy ham Kantning mazkur g‘oyalari bilan yaqindan tanishgan va u bilan hamfikir bo‘lgan edi. Biz bunga Tolstoyning “Urush va tinchlik” nomli asari bosh qahramonlaridan biri Andrey Bolkonskiyning og‘ir yaradorlik holatida, o‘lim oldi talvasasida qalbidan kechgan quyidagi fikrlari bilan tanishish orqali ishonch hosil qila olamiz. “Ishq bu hayot demakdir, - deydi Bolkonskiy. - Men nimaniki tushungan bo‘lsam, faqat sevganim uchungina tushunganman. Olamdagi barcha narsalar mendagi ishq tufayli bordir. Hamma narsa faqat unga bog‘liqdir. Ishq bu Xudo demakdir, va o‘lim – shu ishqning kichik bir zarrachasi sifatida mening shu umumiy va abadiy manbaga qaytmog‘imdir”.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu fikrlar “Avestoda”gi ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal hikmati bilan ham, tasavvuf ta‘limotining komillikka erishuv, ya’ni shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat bosqichlari orqali “An al-Haqlikka” erishish haqidagi g‘oyalarda ham allaqachon o‘z ifodasini topgan edi.

Demak, chin murabbiylik, ya'ni murabbiy fikri, so'zi va ishi hamisha eng ulug' ish bo'lib kelgan. Vaholanki, har qanday kishi, xatto kuchli olim ham chin murabbiy bo'la olmaydi, albatta, balki ham axloqiy, ham ilmiy bilimlar egasi bo'lgan va bu sifatlarni boshqalarga ham yuqtira oladigan insongina chin falsafa muallimi bo'la oladi. Agar shu sifatlar o'qituvchida bo'lmasa, u falsafadan dars bera olmaydi. Hindlarning "Bxagavat Gita" muqaddas kitobida bu haqida oddiygina qilib shunday deyilgan: "Odatda odamlarga rahbar kerak bo'ladi, rahbar esa o'z misolida boshqalarga namuna bo'ladigan odamdir. Agar rahbarning o'zi noto'g'ri ishlar qilsa, u boshqalardan to'g'ri bo'lishni qanday talab qila oladi?".

Shunday qilib, faylasufda teran bilimlarni egallash va murabbiy bo'lish iqtidori bir medalning ikki tomoni kabi ajralmas birlikni tashkil etishi kerak. Zero, faylasuf aslida kishilarni komillikka boshlamoq uchun dunyoga keladi. Buni falsafaning "Donishmandlik va muhabbat" degan nomi ham hamisha ko'rsatib turadi. Qadimgi yunon faylasufi Gekraklit yaxshi tushuntirganiday, "Ko'p narsani bilish hali donishman bo'lish emas". Zero, donishmandlik (sofiya) bilimning o'zidagina iborat emas va barcha bilimlarning jami ham emas. Donishmandlik tushunchasining mazmuniga ko'p bilim egasi bo'lish bilan birga bu bilimlarni qo'llanishning axloqiy mezonlarini ham bilish va, eng muhimi, boshqa odamlarga va atrof tabiatga, butun borliqqa mehru shafqatli bo'lishni ham kiradi.

Lekin keyingi davrlarda insoniyatning butun diqqati asosan faqat bilimli bo'lishga qaratildi, madaniyatning boshqa eng muhim jixatlari esa e'tibordan chetda qolib ketdi. Bu hol Konfutsiy davridayoq boshlangan edi va u hozirga qadar davom etib, o'z maksimal darajasiga etdi. Bu holning boshlanganini esa Konfutsiyning o'z vaqtida afsus bilan aytgan "Qadimgi odamlar o'zlari uchun bilim olar edilar. Hozirgilar esa boshqalarni ezish uchun bilim egallamoqdalar" so'zlari ham ko'rsatgan edi.

Endilikda mustaqil jamiyatimiz ma'naviyatini qayta qurar ekanmiz biz bunday illatdan ozod bo'lishimiz, ya'ni o'z bilimimizni boshqalarni ezish uchun emas, aksincha, boshqalarga yordam berish uchun, ularga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatish uchun qo'llashimiz kerak. Shundagina faylasuf ezgu fikr, ezgu kalom va

ezgu amal egasi bo'la oladi, o'zining chin vazifasini bajara oladi.

Lekin, bugungi kunda, bizningcha, bu ham etarli emas. Zero bugungi kunda har qancha ezgu fikr egasi bo'lmang va ezgu kalom aytimg hamda ezgu amallar bilan shaxsiy namuna ko'rsatimg, odamlarni o'zingizga jalb etuvchi jihatingiz ham bo'lmasa, ish yurishmaydi. Zero televideniye, kino, teatr, radio kabi ommaviy axborot vositalari bir — biri bilan musobaqalashib, informatsiya uzatishning eng qiziq usullarini qo'llab turgan, "ommaviy madaniyat" ham bu musobaqada ulardan qolishmay turgan bugungi kunda o'qituvchidan bu raqobatda qatnashmoq uchun juda katta san'at egasi bo'lish ham taqozo etilmoqda. YA'ni bugun u yaxshi so'zni oddiy aytish bilan cheklana olmaydi, balki uni juda chiroyli, ifodali ta'sirchan nutq bilan, ya'ni artistlik mahorati bilan ham artistlardan ustun bo'lishi kerak. Buning uchun kishi o'zini zo'rlashi ham kerak emas, balki o'z kasbini chin qalbdan sevishi kerak. Shundagina bular hammasi tabiiy ravishda vujudga keladi.

Ushbu savolni yoritishdan asosiy maqsad o'quv jarayonida lektorning o'rnini hech nima bosa olmasligini ko'rsatib berishdan ham iborat edi. Vaholanki, chet ellarda maktab, kolledj va boshqa o'quv dargoxlarida ma'ruzachining jonli nutqini tinglash o'rniga yuksak texnikalashgan axborot tizimlaridan (kompyuter, mag'nitofon, internet va sh.k.) keng foydalanish amaliyoti kuzatilmoqda. Biz bu erda o'zimizning xos nuqtai nazarimizni bildirmoqchimiz. Buning uchun yana bir karra va konkretroq ravishda chin ustoz temirdan yoki boshqa jonsiz narsalarda yasalgan robot emas, balki nihoyatda noyob zot ekanini eslab olishimiz zarur.

Ustoz (o'qituvchi, pedagog) ushbu so'zning eng oliy ma'nosida olib qaralsa bu " donishmandlik fidoiysidir", haqning hizmatchisi bo'lgan insondir, U jaholat zulmatida yo'l topa olmay turganlarga yo'lni yorituvchi ziyodir. Uning ziyosi talabaning qorong'ulik chulg'ab olgan qobiliyatlari va imkoniyatlarining namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishiga yordam beradigan kuchli ruhiy madaddir.

Ana shu oliy ma'nodagi ustoz o'zi geniy bo'lmagani holda (uning genialligi ham aslida shunda bo'lsa kerak) geniylarni tarbiyalab etishtirish qobiliyatiga ega bo'lgan zotdir. Lekin bu qobiliyat ko'pincha halkning nazariga daholarga tushunganichalik tushmaydi. Shunga qaramasdan ustoz o'z ishini kamtarlik bilan

davom ettiraveradi. Chunki uning asl maqsadi shon —shuhrat emas, balki barkamol insonlarni tarbiyalashdir.

"O'zidanda yuksakroq shogirdni tarbiyalay olmaydigan ustoz chin usgoz emas"degan Bahoviddin Naqshband g'oyasining mohiyati ham ayni shunda edi.

O'zidanda yuksakroq shogirdlarni etishtirmoq uchun esa o'qituvchi quyidagi sifatni o'zida jo etishga tinimsiz harakat qilishi kerak:

1. O'qituvchining o'zi barkomilikka tinimsiz intilgan chog'dagina chin ustoz bo'la oladi, bu intilishdan to'xtagani zamoni u bu nomga munosibligini yo'qotadi. Falsafiy materialni bayon etishning boshqa shakllarida (gazeta, ilmiy adabiyotlar, radio, televideniye va h.k. dagi chiqishlarida) bunday uzluksizlik talab etilmaydi. Zero, o'qituvchi bir oy, bir yilda bir marta emas, balki har kuni kechagidan komilroq bo'lishi kerak. Chunki u har kuni, har soat, har daqiqa o'z shogirdlari uchun namunadir.

2.O'zining har bitta shogirdida yaxshi va yomon tomonlarni, yutuq va kamchiliklarni ko'ra oladigan, ularga ishona oladigan, ular davrasiga ko'tarinki ruh kirita oladigan, o'z o'quvchilari qalbini rom eta oladigan bo'lishi zarur. Falsafiy materialni bayon etishning boshqa shakllarida esa muallif o'z muxlislari bilan bunday bevosita aloqadorlik, shogird qalbiga to'g'ridan to'g'ri kirish imkoniyatiga ega emas.

3.O'qituvchining vazifasi o'z o'quvchilariga bilim berishdangina iborat emas, balki va, asosan, ularning endigina shakllanayotgan ongini eng oliy ruhiy qadriyatlarga — Muhabbat, Adolat, Haq (Haqiqat), Go'zallik kabilarga yo'naltirishdan iboratdir. Uning ana shu jihati bugungi kunda ayniqsa dolzarb. Zero, falsafani faqat fan deb qarab kelingan vaqtlarda ustozning vazifasi faqat bilim berish bilan cheklanib qolgani tufayli bir qator yosh avlod teran ruhiy qadriyatlardan bahra olish imkoniyatidan uzoq vaqtlar mahrum bo'lib kelgan edi. Kishi ongini eng oliy ruxiy qadriyatlarga yo'naltirish esa o'qituvchi bilan shogird orasida ikkiyoqlama jonli muloqot bor bo'lgan chog'dagina mumkin bo'ladi. Radioda, televideniye ekranlarida va h.k. bunday bevositalik yo'q, ya'ni "qalb qalbdan bevosita suv ichish" imkoniga ega emas.

4. Talabalarni tarbiyalayotgan ustoz avvalo o'z shaxsiy menini hudbinlikdan ajratib olmog'i, o'zining har bir hatti-xarakatini boshqara oladigan bo'lishi kerak. Shuningdek, unda asosiy hayotiy masalalarga nisbatan ochiq-oydin, aniq qarashlar shakllangan bo'lishi, boshqalarni tushunish istagi va qobiliyati rivojlanishi va bu yo'lda katta sabru toqat hislatlarini kasb etishi ham kerak.

Falsafiy materialni boshqa erlarda bayon etishning hech qaysi shaklida lektordan bunday sifatleri qat'iy, izchil, uzluksiz va davomli bo'lishi talab etilmaydi.

Shunday qilib, o'quv jarayonida malakali, o'z ishini yaxshi biladigan va yaxshi ko'radigan, bilimli va ahloqli, odil va insonparvar, shirinso'z va mohir notiq (orator) sifatiga ega bo'lgan falsafa o'qituvchisining o'rnini hech bir yangi texnologiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Televideniye ko'rsatuvlari, matbuot sahifalarida chiqqan axborotlar ham talabaning pedagog lektor bilan jonli muloqoti o'rnini aslo bosa olmaydi.

Chunki, talaba ma'ruzachining na radiodagi, na televideniya'dagi chiqishlarida va na matbuotda chop etilgan maqolalarida muallif fikrining o'zini qiziqtirib qolgan joylariga jalb qilish, savol berib, o'z savollariga shu zumda, bevosita javob olish, u bilan bevosita bog'lanish, dars mazmunida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Ikkinchi tomondan, notiq(lektor) ham o'z leksiyasini qanday qabul qilayotganidan, tinglovchiga qanday ta'sir ko'rsatayotganidan, unda qanday savollar tug'ilyotganidan yoki uni umuman befarq qoldirayottanidan va boshqa holatlaridan bevosita va tez xabardor bo'la olmaydi. Shuning uchun umuman o'qitishda, ayniqsa falsafani o'qitishda axborot uzatishning boshqa vositalaridan foydalanish mumkin va kerak bo'lgan hollarda ham meyorini esdan chiqarmaslik va asosiy e'tiborni jonli muloqatga qaratish zarurligini esdan chiqarmaslik kerak. Albatta, ta'limning ma'ruza—muloqotdan boshqa hillarining xam katta ahamiyati bor. Lekin, bularning hech biri jonli muloqotning o'rnini aslo bosa olmasligini aloxida ta'kidlash joiz.

Etiket—bu kishilarning o'zaro munosabatiga tegishli umumiy tarzda qabul qilingan va rioya qilinishi talab etiladigan axloqiy qoidalardir. Shunga ko'ra u

muomila odobining rasmiylashgan shaklidirki, u har bir xalqning urf-odati, xulq-atvori bilan bevosita bog‘liq odob qoidalari hisoblanadi. Masalan, bizning xalqimizdagi mehmondorchilik, dasturxon ustida o‘tirish – ovqatlanishning odob qoidalari–etiketlardan (dasturxon to‘rida eng kattalarning o‘tirishi, ovqat eyishni ularning boshlab berishi va boshq.)dan G‘arb – Ovro‘pa xalqlarining bu boradagi etiketlari farq qiladi. (Bu o‘rinda Maxtumqulining: “Har yigitning aslini bilay desangiz, marakada o‘tirib turishing ko‘ring” degan so‘zlarini eslash kifoya).

Bugungi globallashuv, dunyo xalqlari madaniy aloqalarining kengayib borishida kishilarimizda, ayniqsa yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko‘ra yoshlarimiz milliy etiket ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi tarbiya tizimining muhim vazifasi hisoblanadiki, oila buni amalga oshuruvchi asosiy subyekt sanaladi. Darhaqiqat, odob ko‘nikmalari bolada yoshlikdan bevosita ota-onaning namunaviy xatti-harakatlari ta’sirida shakllanadi. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan xalq hikmatida ana shu oddiy haqiqat mujassamlashgandir.

Etiket muomala odobi sifatida faqat muayyan millat, xalq munosabatidagi emas, balki xalqaro ijtimoiy-siyosiy miqyosida, xususan, diplomatiya sohasida qabul qilingan qonun-qoidalar tarzida ham amal qiladi. Bunday qonun qoidalar rasmiy xaraterga ega bo‘lib, ularga elchilardan tortib, davlat boshliqlarigacha birday rioya qilishi talab etiladi. Va ularni buzish qat’iyan taqiqlanadiki, bunga yo‘l qo‘yilgan holda katta jarima to‘lanadi.(Sobiq sho‘rolar mamlakatining boshlig‘i N, S, Xrushchev 1962 yilda BMT assambleyasida ma’ruza qilish etiketini buzganligi uchun unga jarima belgilangan edi).

Kasb odobi axloqiy madaniyatning moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonida amal qilish shaklidir. Boshqacha qilib aytganda, kasb odobi muayyan ishlab chiqarish sohasida shug‘ullanuvchi shaxs–kasb egasining o‘z ijtimoiy burchini axloqiy norma, meyorlar mezonidan o‘tash madaniyatidir. Kasb odobi bir-biri bilan uzviy bog‘liq ikki jihatni o‘z ichiga oladi: xuquqiy va axloqiy. Kasb egasining o‘z burchini jamiyatning maqsad va manfaatlariga muvofiq majburiyat doirasida bajarishi birinchi jihat mohiyatni ifodalasa, ikkinchi jihatning mohiyati

esa ixtiyor erkinligi, axloqiy tanlov asoslanishligi bilan izohlanadi. Va qayd etilgan jihatlar o‘zaro uzviy birlikda kasb egasi faoliyatida axloqiy munosabat tarzida namoyon bo‘lgan paytdagina kasb odobi axloqiy madaniyatning amal qilish shakli hisoblanadi. Darhaqiqat, masalan, shifokor-vrachning kasb odobi Gippokratga qasamyodini faqat majburiyat doirasida emas, balki axloqiy tanlov tamoyillari asosida ado etishligida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, kasb odobida huquqiy jihat belgilovchi, ustivor tomon hisoblanadi. Va shu bois hech bir tabib, hatto o‘zining ashadiy dushmanini ham davolamaslikka haqqi yo‘q.

Kasb odobi huquqiy va axloqiy jihatlarining birligi tamoyili barcha kasb egalariga ham birdek talluqlidir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, kasb odobi turli toifadagi kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa muomala odobi bo‘lib qolmasdan, ayni paytda unda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ifodalanadi. Chunki har bir ijtimoiy guruh kasbiy vazifa-burchlarini bajarishiga ko‘ra iyerarxiyali, mavqega egadirlarki, bunda ularning biri ikkinchisiga nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo‘ladi. Chunonchi, o‘qituvchi uquvchiga nisbatan, maktab direktori o‘qituvchiga nisbatan va h.

Shu jihatdan olib qaraganda kasb odobi madaniyati jamiyat va shaxs munosabatlarini uyg‘unlashtirishda muhim mavqeni egallaydiki, bu ayniqsa bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan bunday jamiyat o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘z-o‘zini boshqa tamoyiliga asoslangan tizim bo‘lib, bunda fuqarolarning axloqiy madaniyati ustivor mavqeni egallaydi.

GLOSSARIY

Atama	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
AXLOQ	Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi.	The sum of stable, certain norms and rules that regulate the historically formed behavior of people, their behavior, interaction in social and personal life, as well as their relationship to society.
AXLOQIY QADRIYATLAR	kishilarning xulq-atvorida asrlar davomida shakllangan o‘zaro munosabatlar, yurish-turish qoidalari: xushxulqlik, xushmuomalalik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, pokizalik, ezgulik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik.	relations, rules of conduct, formed over the centuries in the behavior of people: evangelism, politeness, respect for adults, self-esteem for the little ones, honesty, purity, kindness, diligence, humanism, patriotism.
AXLOQIY IDEAL	axloq -meyorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi.	morality is the image of a person with a high, desirable level of mysticism, endowed with all the best qualities, brought up in every possible way.
AXLOQIY MADANIYAT	axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g‘oyalar, ko‘nikmalar va ularga amal qilinish.	works on moral education, views, ideas, skills and their application.
AXLOQIY MEYORLAR	jamiyatda o‘rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko‘nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo‘ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi.	the rules of behavior established in society, they are manifested as traditions, skills, ritual rules, are regarded as moral values, non-observance of them is condemned by the public.
AXLOQIY	inson tarbiyasining muhim	it is an important part of

TARBIYA	qismi hisoblanib, odamga yoshligidan boshlab to'g'rilik, halollik, izzat hurmat, burch-mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e'tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir.	human education and is a process of integration of the qualities of honesty, honesty, respect for self-esteem, duty-responsibility, healthy lifestyle, shame, family integrity, and resilience to man from an early age.
AXLOQIY TAFAKKUR	axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonning axloqiy meyorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni.	thoughts, views on moral issues are ideas, the process of understanding the moral norms and values of each person, making a scientific observation.
AXLOQIY FAZILATLAR	inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobiy hatti-harakatlar, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi	human behavior, the highest in behavior, positive actions, a complex of thoughts and noble deeds: the pursuit of goodness, kindness, self-esteem, kindness, patriotism, humanism, generosity, honesty, purity, etc.
BADIIY IJOD	adabiyot va san'at fenomeni, ilhom bilan bog'liq ma'naviy hodisalardan biri, estetik ijod shakli.	the phenomenon of literature and art, one of the spiritual phenomena associated with inspiration, is the form of aesthetic creativity.
BAG'RIKENGLIK	mehr-muruvvat, g'amxo'rlik, himoya, panoh, makon, saxiy, eshigi hamma uchun ochiq, dargohi keng; kengfe'llik.	kindness, care, protection, refuge, space, generous, the mansion is wide; the expanse.
BARKAMOLLIK	insonning aqliy axloqiy va bilimdonlik jihatidan etukligi, o'zi tanlagan kasbu hunarning ustasi bo'lishi,	the maturity of man in terms of rational morality and erudition, the master of the profession he chooses,

	shaxs sifatida shakllanib, vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar b-n bunyodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi.	the formation as a person, the development of Vatan, the burning of souls for the well-being of el-yurt, the ability of creativity and creativity with noble ideas and intentions.
BIOETIKA	inson hayotini eng oliy axloqiy qadriyat sifatida qaraydi, shu bilan birga, inson hayotini saqlash muammosini – yaxshilik va yomonlikni farqlashning muhim mezonini, deb hisoblaydi.	it considers human life as the highest moral value, at the same time he considers the problem of saving human life – an important criterion for distinguishing between good and evil.
GO'ZALLIK	narsa hodisalarning nafisligi va nafosatini ijtimoiy ma'naviy jihatdan baholovchi mezon, ijtimoiy ma'naviy hayotda biron bir narsa yoki kishiga xos xususiyatlarning shaklan va mazmunan uyg'unligini anglatadigan, turli shakllarda namoyon bo'ladigan va insonda yoqimli tuyg'u, zavq, kuchli hayrat hissini hosil qiladigan tushuncha.	the criterion that characterizes the subtleties and subtleties of events in a social spiritual sense is the concept that in a social spiritual life means the harmony of the form and content of characteristics inherent in any thing or person, manifested in different forms and creates in a person a pleasant feeling, pleasure, a strong sense of admiration.
KASBIY ODOB	jamiyat tomonidan qabul qilingan ahloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir.	a set of actions, such as a clear professional duty, honor, honor, dignity, which practically applies the rules of morality adopted by society in relation to the specialties of people, is the specific appearance of common morality in the profession of people.
MUOMALA MADANIYATI	insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o'zaro ma'naviy aloka, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshka insoniy	among people, peoples and nationalities, there is a mutual spiritual flame, greeting, colloquial, reconciliation and other

	munosabatlardir.	human relations.
ESTETIK DID	voqea hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqiy yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezon.	a sense of satisfaction or dissatisfaction, obtained in the process of perception and evaluation of the aesthetic qualities of an event, an aesthetic criterion.
ESTETIK MUNOSABAT	subyekt bilan obyekt o'rtasidagi o'zaro harakat va o'zaro ta'sirning maxsus turini anglatuvchi falsafiy tushuncha.	it is a philosophical concept that denotes a special kind of interaction and interaction between the subject and the object.
ETIKET	takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisasidir	positive as the rules of etiquette, developed from the tiny aspects of takalluf, is a phenomenon of attitude that pleases the eye of a person
	Diniy-badiiy janrda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Umuman olganda, idealni ma'lum ma'noda, antiqa holat-paradoks deyish mumkin: unda bor narsa yo'q narsaning mezoni bilan o'lchanadi, ya'ni mavjud narsaga yoki hodisaga o'sha paytda mavjud bo'lmagan narsa yoki voqelik talablari bilan yondashiladi.	It is interpreted in a unique way in the religious-artistic genre. In general, the ideal can be called, in a sense, an antiquated situation-paradox: what is in it is measured by the criterion of what does not exist, that is, the existing thing or event is approached by the requirements of something or reality that did not exist at that time.

1. Etika va estetika fanlarini o'rganishning metodologik asoslari.
2. Axloqiy va estetik madaniyatni shakllantirishning tarbiyaviy vositalari va yo'llari.
3. Mustaqil demokratik taraqqiyot yo'lida etika va estetikaning o'ziga xos xususiyatlari
4. O'zbekistonda axloqiy va estetik madaniyat.
5. Estetikaning falsafiy mohiyati.
6. Estetikaning jamiyatdagi roli va o'rni.
7. Estetikaning amaliy ahamiyati.
8. Inson go'zalligining muhim mezonlari.
9. Inson axloqining muhim mezonlarini .
10. Voqelikka estetik munosabat.
11. Etika va estetikaning qamrovli hissiy-intelektual hodisa sifatida shaxs va jamiyat hayotini ma'naviy boyitishdagi vazifalari.
12. Hozirgi zamonda etika va estetikaning dolzarb muammolari.
13. Inson shaxsidagi illatlarning paydo bo'lish oqibatlari.
14. Inson shaxsidagi illatlarning jamiyat rivojiga ta'siri.
15. Globallashuv jarayonining "Etika va estetika" fanlariga ta'siri.
16. Biologik axloq va ekologik axloq tushunchalari.
17. Shuhratparastlik inson hayotida qanday namoyon bo'ladi va uning oqibatlari.
18. Tubanlilikning illat sifatida ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'siri.
19. Fojaviylikning falsafiy mohiyatini.
20. Kulgulilikning demokratik xususiyati.
21. Ruhiy tahlil yo'nalishi va g'ayrizo'ravonlik.
22. Gender muammolar.
23. Ayol va erkaklarning oddiy xulq-atvori va motivatsiyasining axloqiyligi hamda ratsionalligi.
24. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi; kasbiy erkinlik va kasbiy burchning axloqiy mohiyati.

25. Etiket zamonaviy axloqning nazariy va amaliy asosi.

26. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.

I.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

7. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008.

8. Karimov.I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. 19-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018, 40-bet.

10. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. T, 1997.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Qonuni, 2016 yil 14 sentabr, O‘RQ-406-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 25 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4210-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-son Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF- 5789-sonli Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar:

24. Falsafa. Axmedova M. Taxriri ostida. -T.: UFMJ, 2006.
25. Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. -T.: Sharq, 2005.
26. A. Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon» - 2015.-155 b.
27. Abdulla Sher. Axloqshunoslik / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010 y.
28. Abdulla Sher. Estetika. / Darslik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2015 y.
29. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.: Yangi asr avlodi, 2016.- 318.
30. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Й.и др. Современный образовательный технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство СРНС, 2015. – 318 с. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
31. B. Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
32. Белогуров А.Й. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.
33. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.
34. Gulobod Quadratulloh qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
35. J. Rumi. Ichindagi ichingdadur. -T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
36. Ibraymov A. YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A. YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

- 37.Игнатова Н. Й. Образованийе в сифровую эпоху: монография.М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с.
- 38.Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharkshunoslik, 2012. 340-6
- 39.Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
- 40.L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018 y.
- 41.L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018 y.
- 42.M. Kaxharova, N Agzamova. Etika Uchebnoye posobiye. Rizograf imeni Nizami. 2018 g.
- 43.Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
- 44.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
- 45.Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
- 46.Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.
- 47.Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019 y.
- 48.Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
- 49.Shermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
- 50.Shermuxamedova N.A. Borlik va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 6
- 51.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-6.
- 52.Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
- 53.Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Moliya, 2003.

54.Mamashokirov S. Tahriri ostida. Falsafa. –T.: Sharq, 2005.

55.Nurmatova M., Muhammadjonova L. Ma’naviyatning axloqiy asoslari. // O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Unversitet, 2013.

IV. Internet saytlari

56..<https://president.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

57..<https://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

58..<https://strategy.uz> – “Taraqqiyot strategiyasi” markazi veb-sayti.

59..<http://ziyonet.uz> – Ziyonet ta’lim portali.

60..<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi rasmiy veb-sayti.

61..<http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi rasmiy veb-sayti.

62..<http://senat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy veb-sayti.

63..<http://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi portali.

64..<http://huquqburch.uz> – Huquqiy axborot portali.